




**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI**


NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

TARIX FAKUL'TETI


**"IJTIMOIY MADANIY FAOLIYAT"
KAFEDRASI**



" JAHON ADABIYOTI " fanidan



Ma`ruzalar matni



NAMANGAN-2010

Ushbu ma`ruzalar manti Namangan Davlat universiteti «Ijtimoiy madaniy faoliyat» kafedrasining 2010-yil \_\_\_\_\_dagi \_\_ bayonnomasi bilan muhokama qilingan va Namangan davlat universiteti o`quv-uslubiy kengashining 2010 - yil _____dagi _ sonli bayonnomasiga ko`ra nashr qilishga tavsif etilgan.

Kafedra mudiri:

t.f.n. Z.Haydarov.

Tuzuvchi:

o'qituvchi D.Ashurov

Mavzu: Jahon xalqlari adabiyotiga umumiy tavsif.

Reja:

1. Kirish. Fanning maqsad va vazifasi.
2. Jahon xalqlari adabiyotining xududiy bo'linishlari.
3. Jahon xalqlari adabiyotining taraqqiyot bosqichlari.
4. O'zbek adabiyotining jahon xalqlari adabiyotida tutgan o'rni va roli.
5. G'arb va Sharq adabiyotlarining o'zaro ta'siri masalasi.
6. G'arb va Sharq adabiyotlari o'rtasidagi adabiy aloqalar formalari.

Adabiyot - so'z sa'nati. Bu ijtimoiy ong formalaridan biri bo'lib, boshqa sa'nat turlaridan o'zining ommaviyligi, tez ta'sir eta olishi, fikrlashga o'ta qulay va teranligi, uzoqqa bora olishi, milliy mafkura va milliy ongni erkin tasvirlay, ayta olishi bilan farqlanib turadi.

Adabiyotning asosiy quroli so'zdir. Ana shu so'z orqali adabiyot yuqoridagi vazifalarni bekamu ko'st bajara oladi. So'zni ham naqqoshlarcha, ustalik bilan ishlata olgandagina adabiyot biror bir timsol yarata oladi, fikr ayta oladi.

Jahon adabiyoti ana shunday eng noyob so'z ustalari qalamidan chiqqan badiiy asarlarning xazinasi hisoblanib, bu jarayonni tahlil qilish ushbu fan zimmasidadir.

Jahon xalqlari adabiyotining asosiy maqsadi Er yuzidagi katta-kichik xalq, millat, elatlardan etishib chiqib, yuksak talant bilan asar yaratgan adabiyot kishilarining ijodini tahlil qilish, yutuqlarini belgilab berish, ma'lum bir xududdagi adabiyotlar o'rtasidagi mushtaraklikni aniqlab, jahon adabiyotida ro'y berayotgan umumiy va xususiy o'zgarishlarni qayd qilishdir. Ayni vaqtda ana shu o'zgarishlar asosida umumadabiyotning qonun-qoidalarini keltirib chiqarishga, uning taraqqiyot tendentsiyalarini belgilab olishga ham yordam berishdir.

Biz ushbu fanni o'rganish jarayonida jahondagi turli xalqlarning adabiyoti, sa'nati bilan tanishamiz, ulardan etishib chiqqan yozuvchi, shoir va dramaturglar asarlarini tahlil qilish bilan jahon tsivilizatsiyasining tarixi va taraqqiyot bosqichlari bilan ham tanishamiz.

Ushbu fanning vazifasi ham ana shular bilan belgilanadi va biz fanni o'zlashtirish jarayonida Evroosiyo, Afrika, Amerika va boshqa xududlar adabiyotining eng namunalilarini o'qib, tahlil qilib boramiz.

Jahon xalqlari adabiyoti fani umumadabiyotni o'rganishni ma'lum bir tizimga solish uchun, avvalo, uni xududlarga asoslangan holda bo'lib chiqadi. Bunday xududiy bo'linish quyidagichadir.

1. Sharq adabiyoti: Xindixitoy xalqlari adabiyoti. Yapon adabiyoti. Avstraliya, Zelandiya va Okeaniya xalqlari adabiyoti. O'rta Osiyo va Qozog'iston xalqlari adabiyoti. Kavkaz xalqlari adabiyoti.

2. G'arb adabiyoti: Evropa xalqlari adabiyoti. Skandinaviya xalqlari adabiyoti.

3. Afrika xalqlari adabiyoti.

4. Arab xalqlari adabiyoti.

5. Amerika xalqlari adabiyoti.

Ushbu xududiy bo'linishlar o'sha xalqlarning o'rnatilgan joyi, etnik yaqinligi, ijtimoiy-siyosiy, madaniy taraqqiyot bosqichlaridagi rivojning yaqinligi bilan belgilanadi. Bu bo'linishlar o'z navbatida yana kichik-kichik qismlarga bo'linib boradiki, bu masalani keyingi mavzularda hal qilib boriladi. Masalan, O'rta Osiyo va qozog'iston xalqlari adabiyoti: o'zbek adabiyoti, qirg'iz adabiyoti, qozoq adabiyoti, tojik adabiyoti, qoraqalpoq adabiyotidan iborat.

Xududiy bo'linishning ilmiy afzaligi shundaki, har bir o'quvchi jahon xalqlari adabiyotini o'rganar ekan, turli-tuman millat adabiyotini bir-biri bilan adashtirib yubormaydi, ularni bir-biriga qiyoslay oladi va har bir katta xududiy adabiyotning o'ziga xos tomonlarini o'zlashtira oladi.

Ushbu soxa o'ta keng, o'rganilishi kerak bo'ladigan adabiyotlar ko'pligi sababli jahon adabiyotini taraqqiyot bosqichlariga ham bo'lib chiqishga to'g'ri keladi. Chunki tarixiy formatsiyalar, tuzumlar adabiyotga ham kuchli ta'sir ko'rsatmasdan qolmaydi, albatta.

Jahon adabiyotining tarixiy taraqqiyoti eng avvalo quyidagi katta davrlardan iborat:

1. Antik adabiyot. Bu davr adabiyoti eramizdan avvalgi yillardan to yangi eraning boshlarigacha bo'lgan badiiy asarlarni o'z ichiga oladi. Masalan, qadimgi yunon adabiyoti.

2. Yangi davr adabiyoti. Bu davr adabiyoti esa eramizning birinchi asridan boshlab, to XIII-XV asrlargacha bo'lgan adabiy xayotni qamrab olgan.

3. O`rta asrlar adabiyoti. Bu davr adabiyoti XVII asrdan XIX asrning oxirigacha bo`lgan davrda yaratilgan jahon adabiyoti namunalarini o`zida jamlagan.

4. Zamonaviy davr adabiyoti. Bu adabiyot XX asr boshlaridan to shu kungacha bo`lgan jahon xalqlari adabiyotining eng yaxshi namunalarini o`z ichiga oladi.

Ushbu katta davrlar ham o`z navbatida yana yangi bosqichlardan iborat bo`lib, unda ikki xil manzarani ko`ramiz: umumjahon adabiyotiga xos taraqqiyot bosqichlari, alohida olingan millat adabiyotining taraqqiyot bosqichlari.

Antik davr adabiyotining xududi eramizdan avvalgi ming yilliklardan boshlanib to era boshiga qadar davom etgan. Antik davr adabiyotining yuksak taraqqiyoti grek (qadim YUnon) adabiyoti va sa`nati bilan bog`liq. Chunki davlatning qaror topishi, turli urushlar tufayli uning kengayib va boyib borishi yunon ijtimoiy ongiga kuchli ta`sir qildi. Natijada adabiyot, haykaltaroshlik, rassomlik, muzika, teatr kabi sa`natlar boshqa joydagiga nisbatan bu erda kuchli taraqqiy topdi.

Yangi davr adabiyoti eramizning birinchi yuz yilliklardan boshlanib to XV asrga qadar davom etgan. Bu davrda endi Sharq adabiyotida kata bir ko`tarilish - Uyg`onish davrini ko`ramiz. YA`ni eng noyob asarlar "Avesto", "qutadg`u bilig", "Devonu lug`atit turk", "Xibbatul haqoyiq", Navoiy ijodi anshu davr mevasidir. Bu asarlar, talantlar butun jahon adabiyotiga juda katta ta`sir ko`rsatadi: unga tasavvur falsafasini olib kirdi, "inson adabiyotning eng chuqur o`rganishi kerak bo`lgan predmetidir" degan qoidani ham ana shu adabiyot olib kirdi.

O`rta asrlar adabiyoti asosan XVII-XIX asrlar bilan (shartli) belgilanib, bu davr Evropa adabiyotining o`ta tez yuksalishi bilan belgilanadi. Chunki XVI asrlardan boshlab Evropada avval san`at, keyinroq esa texnika tezkorlik bilan rivojlandi. Evropa mamlakatlari dengiz yo`li bilan juda ko`p joylarni mustamlakaga aylantirdilar. Natijada iqtisodiy daromad ijtimoiy ong taraqqiyotiga ta`sir qildi. Aynan shu davrdan boshlab Amerika adabiyoti davriga kelib endi adabiyotlar taraqqiyot bosqichlari ma`lum bir tartibda, deyarli bir xil rivojga tushdi. Chunki jahon mamlakatlari o`rtasidagi iqtisodiy, texnikaviy hamkorliklar madaniyatini, xususan, adabiyotini ham bir chiziqqa olib keladi.

Har bir millat, xalq, elat jahon adabiyotiga o`zining eng yaxshi talantlarini beradi. Milliy adabiyotning quvvati faqat bu xalqlar soni bilan o`lchanmaydi. Balki ana shu millatning mafkurasi tarixi, milliy ong bilan ham belgilanadi. SHuning uchun har qanday katta-kichik millatning jahon adabiyotida o`z o`rni, ulushi, roli bor.

Bizning o`zbek (turk) xalqi eng qadimdan boshlab jahon xalqlarimadaniyatida juda katta rol o`ynab kelgan, uning rivojga kuchli ta`sir ko`rsatgan. Ayniqsa, Sharq Uyg`onishi Evropa mamlakatlarida aniq fanlarda asos soldi, adabiyoti va saoati esa boshqa xalq adabiyotiga yangi timsollar, tasvirlar, g`oyalar olib kirdi. Bu esa, Prezidentimiz har doim ta`kidlaganlaridek, tariximiz, mafkramiz, milliy psixologiyamiz o`ta kuchli, namunali millat ekanligimiz nishonasidir.

O`zbek adabiyoti jahon adabiyotiga eng qadimgi davrdan boshlab shu kungacha quyidagi formalarda yangiliklar berib kelgan:

1. Sayyor syujetlar. Masalan: "To`maris" afsonasi, "Layli va Majnun" syujeti.
2. Tasvir uslubi. Sharqona romantik tasvir.
3. Obrazlar sistemasi. Masalan, bulbul, gul timsollari.
4. Tasavvufiy badiiylik va falsafiy g`oyalar.

Tayanch so`z va iboralar:

1. Jahon adabiyoti fanining maqsad, vazifasi haqida gapiring.
2. Jahon adabiyoti fanining mundarijasi haqida.
3. Jahon adabiyotining taraqqiyot bosqichlarini ta`riflang.
4. Jahon adabiyotining xududiy bo`linishi nimalarga asoslanadi?
5. G`azal, doston-Sharq lirikasining janri sifatida.

Savol va topshiriqlar:

So`z sa`nati. Xududiy bo`linish. Davrlashtirish. Umumiylik va adabiyotdagi xususiylik. Milliy adabiyot. O`zaro ta`sir masalasi. G`arb va Sharq adabiyoti. Adabiy aloqalar. Aloqa formalari.

Adabiyotlar:

1. Azizov K., Qayumov O. Chet el adabiyoti tarixi. T., 1987.
2. Alimuxammedov A. Antik adabiyot tarixi. T., 1982.
3. Muqimov R., SHaripov M. Xalqlar adabiyoti. T., 1980.
4. Kollektiv. Istoriya vsemirnnoy literaturq. V 9-x tomax. Tom 1. M., 1982.

Mavzu: Yunon adabiyotining ibtidoiy davri

Reja:

1. Antik adabiyotning tarkibi, uning jo'g'rofiy o'rni va davrlari.
2. Yunoniston adabiyotining taraqqiyot bosqichlari.
3. Homer va Hesiod eposlari..
4. Mil.av.gi VII – VI asrlarda Yunoniston lirikasi.
5. Antik adabiyotning tarixiy ahamiyati.

“Antik” soʻzi lotincha “antiquus” soʻzidan olingan boʻlib, “qadimgi” degan maʼnoni bildiradi. Antik adabiyot atamasi butun jahon adabiyotining qadimgi davriga nisbatan emas, balki faqat Evropa adabiyotining qadimgi davriga nisbatangina ishlatiladi. Bu adabiyot ikki xalq tomonidan yaratilgan boʻlib, oʻz tarkibiga koʻra ham ikki shoxobchadan tashkil topgan: 1. Yunoniston adabiyoti; 2. Rim adabiyoti. Ulardan dastlabkisi Yunon tilida, keyingisi esa lotin tilida vujudga kelgan. Antik adabiyot urugʻ-jamoa va quldorlik ijtimoiy-iqtisodiy tuzumida yuzaga kelib, shakllandi va rivojlandi. Qadimgi Yunonlar Bolqon yarim orolining janubi, egey dengizining orollari hamda Kichik Osiyo qirgʻoqlarini maskan tutgan edilar. Qadimgi rimliklar esa dastavval Rim tevaragi, shuningdek, Oʻrta Italiya (Latsium)dagi uncha katta boʻlmagan hududni egallagandilar. Keyinchalik esa butun Italiyani, Oʻrta Er dengizi mamlakatlarini, chunonchi, Yunonistonni, va nihoyat oʻsha davrda maʼlum boʻlgan Evropaning barcha mamlakatlari hamda Old Osiyoning hamma davlatlarini oʻzlariga qaram qilib oladilar. Yunon adabiyotining ilk yozma obidalari milod.av.gi VIII asrga, Rim adabiyotining ilk yozma obidalari esa milod.av.gi III asrga mansubdir. Milodiy V asrda Rim imperiyasining qulashi bilan Evropa tarixining qadimgi davri nihoya topadi. Yunoniston va Rim adabiyotining tugallanishi ham aynan mana shu davrga toʻgʻri keladi. SHunday qilib, antik adabiyot juda katta davrni, yaʼni 1300 yilni qamrab oladi.

Antik adabiyot quyidagi uch davrga boʻlib oʻrganiladi: 1. Klassikagacha boʻlgan davr (eng qadimgi zamonlardan mil.av.gi VIII asrgacha); 2. Klassik davr (mil.av.gi VII asrdan IV asrgacha); 3. ellin – Rim davri (mil.av.gi III asrdan milodiy V asrgacha). Yunoniston va Rim adabiyoti ham ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot bilan bogʻliq tarzda oʻz ichida bosqichlarga boʻlinadi. Biz Rim adabiyotining bosqichlari haqida keyinchalik maʼlumot berishimiz sababli hozircha Yunoniston adabiyotining bosqichlari haqida toʻxtalish bilan kifoyalanamiz. Bu adabiyot quyidagi bosqichlarga boʻlinadi: 1. Ibtidoiy davr (eng qadimgi zamonlardan mil.av.gi VI asrgacha); 2. Attika davri (mil.av.gi V-IV asrlar); 3. ellinizm davri (mil.av.gi III-I asrlar); 4. Rim hukmronligi davri (milodiy I-V asrlar).

Baʼzi bir tadqiqotlarda Yunoniston adabiyotining genezisi haqida notoʻgʻri fikrlar bildiriladi. CHunonchi, A.Alimuhammedovning “Antik adabiyot tarixi” darsligida: “... *Yunon adabiyoti hech bir xalqning adabiyotiga suyanmasdan mustaqil ravishda paydo boʻlgan adabiyotdir*”, degan qarash ilgari suriladi. Holbuki, Yunoniston madaniyati Krit-Miken madaniyati (mil.av.gi 2 – ming yillik) va u orqali hatto Misr va Mesopotamiya madaniyati (mil.av.gi 3 – ming yillik) bilan bogʻlangan hamda insoniyatning ungacha boʻlgan 2 ming yillik madaniy merosining vorisi sifatida maydonga chiqqan edi. Demak, Yunoniston adabiyoti katta adabiy tajriba negizida tarkib topdi.

Boshqa xalqlarda boʻlgani kabi Yunonlarda ham adabiyot dastlab ogʻzaki shaklda rivojlandi. Yunon xalq badiiy ijodiyoti (folʼklori) janr nuqtai nazaridan juda boy va rang-barang boʻlib, ular orasida mif (asotir)lar alohida oʻrin tutadi. CHunki, ular syujet va obrazlarning chindan ham butun bir xazinasini edi. Mif (asotir)larning majmui va ularni oʻrganuvchi fanga nisbatan mifologiya atamasi qoʻllaniladi. Mifologiya urugʻ-jamoa tuzumi sharoitida barcha xalqlarning eng asosiy ijtimoiy ong shakli hisoblanadi. Qadimgi Yunonlarning miflarida tabiat va jamiyat haqidagi xayoliy tasavvurlari obrazli ifodasini topgan. Bu insonlar oʻzlari ustidan Olimp togʻida istiqomat qiluvchi maʼbudlar hukmronlik qiladi, deb bilganlar va maʼbudlarning munosabatlarini ham oʻzlari yashab turgan ijtimoiy-tarixiy sharoitga muvofiqlashtirib, urugʻ-jamoa tuzumi tamoyillari asosida tasavvur etganlar. Masalan, Zevsning bosh maʼbud sifatidagi roli, unga qon-qarindoshlik ipi bilan bogʻlangan boshqa maʼbudlar Hera, Poseydon, Aid, Demetra, Afina, Afrodita, erot, Hefest, Ares, Apollon, Artemida, Hermes, Dionis, Satir va hokazolar tabiat va jamiyat hayotining biror bir sohasini bevosita boshqarishi bu fikrni tasdiqlaydi. Mifologiya butun Yunon xalqi tafakkurining mahsuli sifatida u bilan birga taraqqiy etib, oʻsib va oʻzgarib boradi. Yunon miflari oʻz mavzuiga koʻra turkumlarga

birikkan bo'lib, ular orasida "Troya turkumi", "Fiva turkumi", "Argonavtlar turkumi" va boshqalarni sanash mumkin. Miflardan tashqari ertak, masal, maqol va topishmoq janrlari ham keng rivojlangan. Masalan, xalq orasida keng tarqalgan va ezop nomi bilan yuritilgan 426 ta masal bizgacha etib kelgan. Ular orasida hozir bizga juda yaxshi tanish bo'lgan ko'plab syujetlarni uchratamiz. Yunon xalq qo'shiqlari va ularning turli-tuman shakllari ham yozma adabiyotning yuzaga kelishiga juda katta ta'sir ko'rsatdi.

Yunon yozma adabiyotining bizga ma'lum bo'lgan ilk asarlari - Homerning "Iliada" va "Odisseya" dostonlari o'z manbaiga ko'ra qahramonlik haqidagi xalq qo'shiqlari bilan eng ko'p darajada bog'langandir. Homer eposlari Yunonistonning Ioniya muzofotida milod.av.gi VIII-VII asrlarda yaratilgan va mustabid Pisistrat davrida milod.av.gi VI asrda yozib olingan. "Iliada" ham, "Odisseya" ham Troya urushi voqealariga bag'ishlanib, bu urush milod.av.gi XIII-XII asrlarda ro'y bergan edi. Aedlar talqinida tarixiy faktlar umumlashtiruvchi va mubolag'ili xarakter kasb etib, ularga mifologik elementlar ham qo'shilgan. SHu tariqa harbiy – qahramonlik eposi "Iliada" va sehrli – maishiy epos "Odisseya" maydonga kelgan.

Qadimgi Yunonlar bu asarlarning muallifi Homer ekanligiga hech qanday shubha bildirmaganlar. Biroq uning yashagan davri va yashagan joyi haqida bir-biriga qarama – qarshi ma'lumotlar mavjud. Ularda Homer yashagan davr mil.av.gi XII asrdan tortib to VI asrgacha deb ko'rsatiladi. Homer yashagan shahar nomi uchun esa 7 ta shahar Smirna, Xios, Kolofon, Salamin, Rodos, Argos va Afina da'vo bilan chiqqanlar. Homer masalasi Homer muallifligi haqidagi hamda Homer dostonlarining yaratilishi haqidagi masaladir. XVIII asrning oxirlariga qadar ham "Iliada" va "Odisseya"ning birdan-bir muallifi sifatida Homer so'zsiz qayd etib kelindi. Homer Yunoncha "so'qir" ma'nosini bildirib, uni so'qir mo'ysafid sifatida tasavvur etishgan va haykallardan birida uni ana shunday tasvirlashgan. XVIII asr oxirlariga kelib, nemis olimi F.A.Vol'f ("Homerga kirish" kitobi, 1795 yil) "Iliada" va "Odisseya" dostonlari xalq badiiy ijodi mahsuli, degan qarashni ilgari surib chiqdi. U Homerning o'zini bu asarlarni yaratishda ozmi-ko'pmi ishlagan talay mualliflardan biri, deb hisobladi. Ana shundan buyon o'tgan ikki asr mobaynida bu masala bo'yicha ikki oqim shakllandi: 1. Analitik gipoteza, ya'ni eposlarni mustaqil asarlardan tarkib topgan, deb qarash. 2. Unitar gipoteza, ya'ni eposlarning yaxlitligini e'tirof etish. Ularning har ikkalasini ham bir-biriga kelishtirishga intilish natijasida yuzaga kelgan nazariyalar ham mavjud. Masalan, "Asosiy yadro" nazariyasi tarafdorlari birlamchi matn sekin – asta boshqa mualliflarning qo'shimcha va kiritmalari bilan boyitib, to'ldirib borilgan, degan qarashni ilgari suradilar. Biroq barcha qarashlar oxir – oqibat ularning individual yoki jamoaviy ijod samarasi ekanligi haqidagi masalaga borib taqaladi. Homer masalasi hozirga qadar ham o'zining bus-butun echimini topgan emas.

Homer eposlarida tasvirlangan jamiyat urug' – jamoa tuzumi bo'lib, unda odamlar qabilalarga birikib yashaydilar. Qabila tepasida podshohlar – qabila oqsoqollari turib, ular harbiy sarkarda, kohin, hakam bo'lib ham hisoblanadilar. Biroq ularning hokimiyati chegaralangan va bu "Iliada"ning birinchi qo'shig'idan ham anglashinib turadi. Unda Xriseidani o'z otasiga qaytarish masalasi xalq majlisida hal etiladi. Bu va boshqa bir qator belgilardan kelib chiqib, jamiyat o'z taraqqiyotida quldorlik tuzumiga o'tib borayotganligini sezib olish mumkin.

"Iliada" Yunoncha "Ilionnoma" yoki "Ilion jangnomasi" ma'nolarini bildiradi. Ilion (yoki Troya) Kichik Osiyoda, Dardanel' bo'g'ozining janubiy qirg'og'ida joylashgan shaharning nomidir. U mil.av.gi 3 – ming yillikda mislsiz yuksalib, mil.av.gi 2 – ming yillikda turli falokatlar ta'sirida vayronaga aylanadi. "Iliada"da mana shu tarixiy – mifologik materialni mavzu sifatida tanlagan Homer 10 yillik urushning so'nggi 10 – yilidan 51 kunnigina tasvir etadi. Oq she'r shaklida, gekzometr vaznida yozilgan "Iliada" asari 15000 misradan iborat. Bu ulkan eposni III asrda Aleksandriya adabiyotshunoslari 24 kitob –qo'shiqqa bo'lganlar. Bunda Yunon alifbosidagi harflar soni asos qilib olinadi. Homerning o'zi "Iliada" dostonida uning bosh obrazi – Fessaliya podshohi Axill (yoki Axilles)ning g'azabini kuylashni maqsad qilib olgani haqida so'zlaydi. Uning g'azabiga sabab bo'lgan konfliktning ikkinchi tomonida umumYunon qo'shinining yo'l boshchisi Agamemnon turadi va uning Axillga tegishli bo'lgan asira Bresiadani tortib olishi ana shunday oqibatga olib keladi. SHa'ni erga urilgan Axill g'azab alangasida jangda qatnashishdan qat'iyan bosh tortadi va bir orolga bosh olib ketadi. U eng yaqin do'sti Patrokl o'limidan so'nggina yana qo'shin safiga qaytadi. U Patrokl qasosi uchun Troya lashkarchisi Hektor bilan yakka – yakka olishuvga kirishadi va o'z do'stining qotili bo'lgan Hektorni mahv etadi. Homer "Iliada" dostoni orqali Yunoniston va Yunon xalqining harbiy shon-shavkatini madh etdi, uning jangovor qahramonliklarini tarannum qildi.

harflar soni asos qilib olinadi.

“Iliada” mashhur tarjimon Qodir Mirmuhamedov tomonidan oʻzbekchaga oʻgirildi va alohida kitob holida nashr qilindi.

“Odisseya” dostoni esa Troya urushining yana bir qahramoni, Itaka podshohi Odisseyning oʻz vataniga qaytish paytida boshdan kechirgan sarguzashtlari tasviriga bagʻishlanadi. Uning ashaddiy gʻanimiga aylangan dengiz maʼbudi Poseydonning urinishlari bilan Odisseyning bu safari 10 yilga choʻzilib ketadi. Oʻz vataniga qaytib kelgan Odissey Itakada ham bir necha raqiblarini magʻlub etib, mamlakat boshqaruvini oʻz qoʻliga oladi. Bir soʻz bilan aytganda, sehrli elementlarga juda koʻplab murojaat etilgan bu asarda maishiy muammo oʻrtaga qoʻyiladi. Har ikkala asar tahlili ham shuni koʻrsatadi-ki, bu asarlar yaratilgan paytda badiiy tafakkur maʼlum darajada rivoj topgan edi. Bu, masalan, Homerning badiiy kompozitsiya yaratish mahoratida ham koʻrinadi. U “Odisseya”da jahon adabiy tajribasida birinchi boʻlib transpozitsiya usulini qoʻllaydi, yaʼni ilgari boʻlib oʻtgan voqea – hodisalarni Odisseyning hikoyasi tarzida bayon etadi. Homer poetikasini uning asarlarida til tasviriyiligi nuqtai nazaridan tekshirgan A.Alimuhammedov bir qator diqqatga molik xulosalar chiqaradi. Uning Homer asarlarini chogʻishtirish metodi asosida “Alpomish”dostoni bilan qiyosiy tahlili ham kutilgan samaralar beradi.

“Odisseya”dostonidan parchalar ham oʻzbek tiliga Qodir Mirmuhamedov tomonidan tarjima qilindi va «Jahon adabiyoti» jurnalida chop etildi.

Oʻsha davrlarda juda katta shon-shuhratga sazovor boʻlgan va V-IV asrlarning fojia-navis shoirlari uchun bitmas – tuganmas syujet manbai vazifasini oʻtagan Homer asarlaridan keyingi epik dostonlardan birortasi ham bizgacha etib kelgan emas. Biz ularning mazmuni haqida Proklning “Xrestomatiya”, Apollodorning “Kutubxona” asarlari orqaligina bilib olamiz, xolos. Bu epik dostonlarda Troya va Fiva kabi katta turkumlar mufassal qalamga olingan boʻlib, ular orasidan “Kipriya”, “Efiofiada”, “Ilionning halokati”, “Qaytish”, “Telegoniya” va boshqalarni misol qilib keltirish mumkin. Mil.av.gi VII asrda yashagan Hesiod ijodini ham Homerdan keyingi epos sirasiga kiritish maqsadga muvofiqdir. Anʼanaga koʻra uning nomi bilan ikki asarni – “Mehnat va kunlar” hamda “Teogoniya” (“Maʼbudlarning yaralishi”) asarlarini bogʻlaydilar. Bu asarlar Yunoniston adabiyotida VII-VI asrlarda etakchilik qilgan ikki yoʻnalish – didaktik va genealogik yoʻnalishni boshlab berdi. Ular orasida “Mehnat va kunlar” didaktik eposi oʻzining gʻoyaviy – badiiy qimmatini bilan alohida ajralib turadi. Hesiodning bevosita oʻz ukasi Persga oʻgitlari shaklida yozilgan bu asar aslida oʻsha davrning juda keng auditoriyasiga qaratilgan edi. Oʻzi ham oʻrta hol er egalari qatlamiga mansub boʻlgan Hesiod barcha kasblar ichida dehqonchilikni maʼqul, deb hisoblaydi. Shoir maʼmurchilik asosi sifatida mehnatni tavsiflar ekan, oʻz fikrlarini rivoyat va masallar bilan bezaydi. Homer oʻz dostonlarini jamiyatning zodagon tabaqasini hisobga olib yaratgan boʻlsa, Hesiod esa “Mehnat va kunlar” dostonida xalqqa murojaat etadi. Har qanday chogʻda ham beshafqat real voqelik bilan aloqani uzmagani Hesiod pessimizmini tushunish mumkin, albatta. Uning pessimizmi, chunonchi, insoniyatning besh asri haqidagi hikoyada, bulbul va qirgʻiy haqidagi masalda koʻzga yaqqol koʻrinadi. Asarning “Mehnat va kunlar” deb nomlanishining oʻziyoq uning kompozitsion jihatdan ikki qismdan tashkil topganligini anglatib turadi. U birinchi qismda dehqon mehnatini ulugʻlasa, ikkinchi qismda esa taqvimiy tartibda kunlarga tavsif beradi. Uning talqinicha, xoʻjalikni yuritishda ham, oilani tebratishda ham “xayrli” va “xayrsiz” kunlar mavjuddir.

Xullas, “Mehnat va kunlar” dostoni mil.av.gi VII-VI asrlar Yunonistonning turmush tarzi, axloqiy meʼyorlari haqida bir muncha taassurot beradi.

Mil.av.gi VII – VI asrlardagi mafkuraviy kurashlar natijasida jamoa va shaxs oʻrtasida keskinlashgan munosabatlar shaxsning oʻz – oʻzini ifoda etishi uchun imkon beruvchi tur – lirikaning adabiyotda etakchi mavqeini egallashiga olib keladi. Bu davr Yunon lirikasini uch janrga boʻlib oʻrganish taomilga kirgan boʻlib, bular elegiya, yamb va melikadir. Yunonistonda elegiyaning qaygʻuli ruh kasb etishi majburiy hisoblanmagan. Ular oʻz mazmuniga koʻra lirik subʼektning turli-tuman mavzulardagi oʻy-mulohazalarini ifodalagan. Bu janrda ijod qilgan shoirlardan Tirtey, Mimnarm, Solon, Feognid asarlari bizgacha etib kelgan boʻlib, ularda harbiy, siyosiy va boshqa mavzular kuylanadi. Hosildorlik maʼbudasi Demetra kulʼti bilan bogʻliq holda yuzaga kelgan yambilar uchun esa masxara qiluvchi va fosh etuvchi ruh xosdir. Bu janr imkoniyatlari ayniqsa Arxilox lirikasida butun boʻy-basti bilan namoyon boʻldi. Arxiloxdan tashqari Semonid, Gipponakt kabi yambnavislar ham ijod qilganligi haqida maʼlumotlar mavjud. elegiya va yamb oʻzining ilk kezlardagi musiqa bilan aloqasini sekin – asta yoʻqotib, sof adabiy janrga aylana borgan boʻlsa,

melika esa ulardan farqli o'laroq, faqat musiqa jo'rligidagina ijro etilardi. Yunonistonning VII-VI asrlar melik she'riyatini ikkiga: yakkaxon (monodik) hamda xor turlariga bo'lish qabul qilingan yakkaxon melika asosan Lesbos orolida rivojlangan bo'lib, uning eng yirik vakillari Alkey va Sapfolardir. Alkey ba'zi bir she'rlarida, chunonchi, "Kurash qo'shig'i" asarida Lesbosning bosh shahri bo'lgan Mitilenning siyosiy hayotini qalamga oladi. Uning ziyofat mavzuiga bag'ishlangan she'rlaridan parchalar ham bizgacha etib kelgan. Alkey bulardan tashqari sevgi mavzuida ham bir talay she'rlar ijod etgan, degan ma'lumot mavjud. Sapfo lirikasida esa Alkeydan farqli o'laroq siyosiy motivlar ko'zga tashlanmaydi. Ular asosan sevgi kechinmalarini ifoda etib, aksariyat shoiraning dugonalariga bag'ishlangandir. Sapfo tevarak-atrofdagi barcha narsalarda – tabiatda, odamlarda va hatto liboslarda ham go'zallikni sharaflaydi. Sapfo she'rlarida sevgi, xalq qo'shiqlarida bo'lgani kabi, asosan qayg'uli ruh kasb etadi. Bular ko'pincha javobsiz sevgi yoki beadad ayriliq tufayli yuzaga kelgani iztirobli kechinmalardir.

Yakkaxon melikaning uchinchi ulug' namoyandasi Anakreont asarlarida esa may va sevgi etakchi mavzulardir. Ular aksariyat o'zining qabrga qancha yaqinlashayotganini sezgani sayin hayot lazzatlaridan shunchalik ko'p tortinishga jazm etgan xushchaqchaq qariya tilidan hikoya qilinadi. Xor melikasi diniy bayram va marosimlar bilan juda yaqindan aloqada bo'lib, odatda tantanalar munosabati bilan yaratilgan. SHu sababli ham ular jimjimador va ko'tarinki uslubi bilan ajralib turgan. Xor lirikasiga ma'budlarni ulug'lovchi gimnlar, shuningdek, sport musobaqasining g'oliblarini sharaflovchi qo'shiqlar kiritilgan. Alkman, Pindar, Simonid, Vaxxilid kabi shoirlar bu janrning eng go'zal namunalarini yaratganlar. Ular orasida Pindar alohida o'rin tutgan va uning asarlari, ma'lumot berishlaricha, to'rt mingga yaqinlashib borgan. Pindar asarlari o'zining nutqiy qurilishiga ko'ra juda murakkab bo'lib, bu hodisa uning aristokratiya uchun ijod qilganligi bilan belgilanadi. U bag'oyat did bilan saralangan epitet, metafora, metonimiya, mubolag'a va badiiy-tasviriy vositalarga tez-tez murojaat etadi.

Mil.av.gi V asrga kelib, Yunoniston adabiyotining ibtidoiy davri o'rniga Attika davri keladi. Ikki asr davom etgan bu davr qadimgi Yunonistonning umumiy tarixida, chunonchi, uning adabiyoti tarixida ham eng yuksak taraqqiyot pallasi, ya'ni oltin asr bo'lib qoladi.

Tayanch so'z va iboralar:

Antik adabiyot tushunchasi, Yunoniston adabiyoti, Rim adabiyoti, mifologiya va antik adabiyot, fol'klor va antik adabiyot, Homer epopeyalari, Troya urushi haqida afsona, Homer jumbog'i, Hesiod dostonlari, mil.av. VII-VI asrlar Yunoniston lirikasi, gekzometr, transpozitsiya, elegiya, yamb, melika, epos, ma'bud va ma'budalar, gepoteza.

Savol va topshiriqlar:

1. Antik adabiyot tarkibini, uning davrlari va jug'rofiy chegaralarini ko'rsating.
2. Yunoniston adabiyoti qanday davrlarga bo'linadiq
3. Homerning "Iliada" va "Odissey" dostonlarining tarixiy – mifologik manbalarini ko'rsating.
4. Homer jumbog'i tushunchasi nimani anglatadi?
5. Analitik gipoteza va unitar gipoteza haqida so'zlang.
6. Hesiod ijodida didaktik va genealogik epos taraqqiyotini ta'riflang.
7. Yunonistonda lirik tur ravnaqi haqida gapiring.

Adabiyotlar:

1. I.Karimov "Barkamol avlod orzusi". T.: Sharq, NMK, 1999, -- 184 bet.
2. Chet el adabiyoti tarixi. Namunaviy dastur va Ishchi dastur. 2004, T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2004
3. Alimuhammedov A. Antik adabiyot tarixi. T.: O'qituvchi, 1976, -416 bet.
4. Komilov N. Tafakkur karvonlari. T., Ma'naviyat. 1997.
5. Homer. Iliada. T.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1988.
6. Homer. Odissey. Ikkinchi qo'shiq g'g' "Jahon adabiyoti" 2001, №8, 58 – 66 –bet.
7. F.Sulaymonova. Sharq va G'arb. T.: O'zbekiston, 1999.
8. F. Boynazarov. O'rta Osiyoning antik davri. –T.: O'kituvchi, 1991.
9. F.Boynazarov. Qadimgi davr tarixi . Jizzax, "Sangzor", 2002.

Mavzu: Yunon adabiyotining Attika davri

Reja:

1. Mil.av.gi V – IV asrlarda Yunoniston jamiyati.
2. Dramaning paydo bo'lishi. Teatrlar qurilmasi va dramaturglar musobaqasi.
3. Dramaning asosiy janrlari: tragediya va komediya. Ularning taraqqiyoti.
4. Mil.av.gi V – IV asrlar Yunon nasri.
5. Attika davri Yunon adabiyotining ahamiyati.

Yunoniston umumiy tarixining, shu jumladan, adabiyot tarixining mil.av.gi V – IV asrlari eng yuksak taraqqiyot bosqichi bo'lib, u Attika davri deb yuritiladi. Attika joylashgan va markazi Afina shahri bo'lgan viloyat nomidir. Miloddan ilgarigi 499 – 449 yillarda, ya'ni 50 yil davom etgan eron – Yunon urushida Yunonistonning 150 ga yaqin polis, ya'ni shahar – davlatlari orasida uning g'alabasiga eng ko'p hissa qo'shgan Afina bu davr hayotining barcha sohalarida etakchi rol o'ynaydi. Mana shu sababga ko'ra miloddan ilgarigi V – IV asrlar Yunonistonga nisbatan Attika davri atamasi qo'llaniladi. Afina eron – Yunon urushi natijalariga ko'ra bir tomondan behisob qullarga ega bo'lgan bo'lsa, boshqa tomondan esa egey dengizida hukmronlikni qo'lga kiritdi. Bu erda demokratik tartiblarning joriy etilishi ham iqtisodiy, siyosiy va madaniy yuksalish uchun qulay shart-sharoit vujudga keltirdi. Afina demokratiyasi haqida gap borar ekan, bu faqat erkin quldorlar doirasidagi demokratiya, ya'ni quldorlik demokratiyasi ekanligini unutmash zarur. Barcha erkin fuqarolar davlatni idora qilish ishlarida teng huquq va burchlarga ega edilar. Ayni paytda esa qullar va meteklar (boshqa shaharlardan ko'chib o'tganlar), ular esa ko'pchilik aholini tashkil etardi, demokratiya ne'matlaridan foydalanishdan bebahra edi. Afinaning siyosiy va iqtisodiy jihatdan eng kuch-quvvatga to'lgan vaqti miloddan avvaldi V asrning 50 – 30 – yillari bo'ldi. Bu davrda Afina davlati tepasida turgan Perikl Yunonlar nazarida davlat donishmandligining mujassami edi. Uning homiyligi ostida san'at, shu jumladan adabiyot beqiyos yuksaldi. Adabiy turlar orasida, ayniqsa, drama jadal rivojlanadi. Bu davrda dramaning uchta janri tarkib topgan bo'lib, bular: 1. Tragediya; 2. Komediya; 3. Satirlar dramasidir. Dramaning manbalari haqidagi ma'lumotlar asosan Aristotel hamda Herodot asarlarida mavjud bo'lib, bu haqda xulosalar chiqarishda ularning qarashlariga tayanamiz.

Aristotelning “Poetika” asarida qayd etishicha drama (Yunoncha harakat ma'nosini bildiradi) dastlab mil.av.gi VI asrda Peloponnesda yuzaga kelgan, biroq uning taraqqiyoti asosan Afina bilan bog'liqdir. Ulug' faylasufning kuzatishlariga ko'ra, dramaning kelib chiqishi may va shodlik ma'budi Dionis bayramlariga borib taqaladi. Tragediya (Yunoncha tragos – echki, oda – qo'shiq) difiramb peshtalqinlaridan, komediya (Yunoncha komos – hazil, kulguli, oda – qo'shiq) esa fall qo'shiqlari peshtalqinlaridan kelib chiqqan. esxilgacha bo'lgan tragediyanavislardan uchta – Fespid, Frinix, Pratin nomlari bizga ma'lum. Hatto birinchi tragik shoir bo'lmish Fespidning o'z tragediyasini ilk bor sahnalashtirgan sanasi – milod.av.gi 534 yil ham aniqlangan. Frinix esa “Miletning zabt etilishi” va “Finikiyalik ayollar” deb atalgan tragediyalar yozgani ham ma'lum. Ammo esxilgacha bo'lgan dramaturglar asarlari bizgacha etib kelgan emas. Antik tragediya ham, antik komediya ham o'z strukturasiga ega bo'lgan.

Barcha antik Yunon teatrlari bir xilda – ochiq osmon ostida va tog' yonbag'irlarida barpo etilgan. Yunonistonda birinchi teatr binosi Afinada qurilgan va u boshqa barcha teatrlar uchun namuna vazifasini o'tagan. Afina teatri Akropolning janubiy – Sharqiy yonbag'rida joylashgan bo'lib, uni tiklash mil.av.gi 500 – yillarda boshlangan. Tog' yonbag'ri tabiiy amfiteatr vazifasini o'tab, unda zinalar – tomoshabinlar uchun o'tirgichlar qilingandi. “Teatr” so'zi ham aslida Yunoncha bo'lib, ko'rish, tomosha qilish ma'nosini bildiradi.

Professor O.Nosirovning fikriga ko'ra teatrt so'zi ikki qismdan: teo – xudo va tr – uy so'zlaridan iborat bo'lib, “xudoning uyi” degan ma'noni ham bildirgan. Masalan, deb davom ettiradi O. Nosirov, - O'rta asrlarda Evropada karvonsaroy vazifasini o'taydigan joylarni trakrlar (trak – yo'l, tr – uy, ya'ni yo'l bo'yidagi uy ma'nosida) deyilgan.

Afina teatri olimlarning fikriga ko'ra 17000 dan 30000gacha tomoshabinni sig'dira olgan. Antik teatrning loyihasi A.Alimammedovning “Antik adabiyot tarixi” darsligida chizib ko'rsatilgan.

Antik Yunon teatrida faqat ekaklar va faqat erkin fuqarolargina sahnaga chiqqanlar. Ular u

yoki bu nomaqbul hatti-harakatlar bilan o'z sha'nini bulg'amagan kishilar bo'lishi ham talab etilgan. CHunki teatr Dionis sharafiga bag'ishlangan bo'lib, aktyor shu tariqa ma'bud xizmatidagi kishi hisoblangan. Aktyorlar va xor niqoblarda chiqqanlar. Bir aktyor niqoblarni almashtirib, bir necha rollarni, buning ustiga erkak va ayollar rollarini o'ynashi mumkin edi. Teatr tomoshalari asosan miflardan olingan epizodlarni gavdalandirgani uchun Yunonlarning tasavvuricha personajlar odatdagidan ulug'vorroq ko'rinishi zarur edi. SHuning uchun ular baland poshnali poyafzal – koturn kiyib sahnaga chiqqanlar. SHunga muvofiq tarzda ular ustiga kiygan liboslar ham juda uzunligi bilan ajralib turgan.

Teatr tomoshalari buyuk Dionis bayramlarining tarkibiy qismi hisoblanardi. Bu bayram bir yilda 6 kun, bahorning boshlanishida (taxminan mart – aprelda) nishonlanib, uning keyingi uch kuni teatr tomoshalariga ajratilar edi. Bayramdan ancha oldin Afina arxonti (yuqori mansabdor shaxslardan biri) tavsiya etilgan qo'lyozmalar bilan tanishib, ulardan uchta shoirni ajratib olardi. Bu shoirlarning har biri o'sha davr talabiga ko'ra tetralogiya (3 ta tragediya va 1 ta satirlar dramasi) topshirar edi. Uchta shoirga uchta xor birkitilar, tomosha juda katta sarf – xarajatlar talab qilgani uchun ularni ko'tarish uchta boy-badavlat fuqaro xoregga topshirilardi. Har uch shoir o'z tetralogiyasini teatr tomoshalariga ajratilgan uch kunda, bir kundan namoyish etardi. Tragediyalar namoyishi erta tongdan boshlanar, kechalari esa komediyalar ijro etilardi. Komediyanavislar musobaqasi tragediyanavislar musobaqasidan o'zining ba'zi tomonlari bilan farq qilgan. Komediyanavislar bu musobaqada ishtirok etish uchun bittadan komediya tavsiya etsalar kifoya edi. Teatr tomoshalari tugab bo'lgach, Afinaning 10 ta dahasidan saylab olingan hay'at tragediyanavislar va komediyanavislar orasidan birinchi o'rinni egallaganlarning nomlarini aniqlab, ularga mukofotlar topshirganlar. SHOirlar bilan birga protagonista, ya'ni bosh rol' ijrochisi va xoreg, ya'ni xor rahbari ham mukofotlar bilan taqdirlanganlar.

Esxil (mil.av.gi 525 – 456 yillar)ni qadimgi Yunonlar tragediyaning otasi deb ulug'laganlar. esxil tragediyaning Fespiddan keyingi buyuk islohotchisi hisoblanadi. Uning piesalari o'z davrining dolzarb muammolari bilan bog'langan va – hatto ba'zi hollarda ularga to'g'ridan – to'g'ri bag'ishlangandir. Uning asarlarida Dionis kul'ti bilan aloqadorlik asosan satirlar dramalarida omuxtalashtirilgan. esxil ibtidoiy kontatani dramatik asarga aylantirdi va bunga xorning rolini cheklash ikkinchi aktyor harakatini joriy etish evaziga muvaffaq bo'ldi. Tragediyanavislar musobaqalarida 13 marta g'olib chiqqan esxil 90 ga yaqin asarlar yaratgan bo'lib, ulardan faqat 7 tasi bizgacha etib kelgan. Bular “Eroniylar”, “Fivaning etti dushmani”, “Iltijogo'ylar”, “Zanjirband Prometey”, “Agamemnon”, “Xoeforlar”, “Evmenidalar” tragediyalaridir. Ulardan keyingi 3 tasi “Oresteya” trilogiyasini tashkil etadi. Bu asarlarning dastlabkisi “Eroniylar”gina zamonaviy mavzuga bag'ishlangan bo'lib, qolganlari esa mifologik mavzu asosida yaratilgandir. esxil Afina demokratik polis tizimining yuzaga kelish va shakllanish davrida yashadi. SHu sababli ham u davlatni idora qilishning demokratik usulini yoqlab asarlar yaratdi. esxilning “Zanjirband Prometey” tragediyasida ham mana shu g'oya ishlangan bo'lib, u Prometey va Zevs o'rtasidagi kurash jarayonida juda ta'sirchan ko'rsatib beriladi. Buyuk insonsevar titan Prometeyning Olimp tog'idan muqaddas olovni odamlarga o'g'irlab olib kelishi haqidagi voqealar asar syujetini tashkil etadi. esxil Zevs qiyofasida tipik mustabidni tasvirlasa, Prometey mustabidlikka dushman bo'lgan ozodlik va insonparvarlik pafosini mujassamlaydi.

Esxilning “Zanjirband Prometey” asari iste'dodli shoir Asqar Qosimov tomonidan o'zbekchaga tarjima qilingan va alohida kitob holida nashr etilgan.

Sofokl (mil.av.gi 496 – 406 yillar) V asr Yunon tomoshabinlarining eng sevimli tragik shoiri bo'lgan. U fojyanavislar musobaqasida 24 marta birinchi o'rinni egallashga muvaffaq bo'lgan. Sofokl – Afina demokratik polis tuzumining gullab-yashnagan davri shoiri. Uning, zamondoshlari nazdida, juda katta shon-shuhrat topishi, badiiy mahorati bilangina emas, balki qarashlari V asr Afina jamiyati qarashlariga hamohangligi bilan ham belgilanadi. U Afina fuqaroligining kuychisi sifatida maydonga chiqadi va g'oyat dolzarb muammolarni o'rta qo'yadi. Bular hokimiyatni oqilona boshqarish, insonning jamoa oldidagi burchi, odamning jamiyatdagi to'g'ri xulq-atvori va boshqalardir. U esxil singari islohotchi bo'lmasada, dramatik mahorat sohasida kamolotga erishdi. Uning tomonidan yaratilgan 123 ta tragediya va satirlar dramasidan bizgacha 7 tasi etib kelgan. Bular “SHoh edip”, “Edip Kolonda”, “Antigona”, “Ayaks”, “Elektra”, “Filoktet”, “Traxinalik ayollar” tragediyalaridir. Sofokl asarlarining dastlabki uchasi Fiva turkumi, keyingi uchasi esa Troya turkumi, va nihoyat oxirgisi Herakl turkumi afsonalari asosida yaratilgan. Sofoklning “SHoh edip”,

“Edip Kolonda”, “Antigona” tragediyalari oʻzaro birikib, trilogiyani tashkil etadilar. Antik dunyoda hech bir tragediya “SHoh edip”chalik chuqur iz qoldirgan emas. Bu asarda Sofokl edip tevarigidagi voqealar orqali maʼbudlarning qodir irodasi va insonlarning erkinligi masalasini oʻrtaga qoʻyadi. Asarda Sofoklning diniy eʼtiqodi bilan bogʻliq tarzda inson qismatga tobe ekanligi haqidagi gʻoya ilgari suriladi. edip nafaqat Layning nomaqbul qilmishi, balki oʻzining qusurlari tufayli ham dahshatli jazo oladi. Sofokl uqtiradiki, agar inson oqil boʻlsa, taqdirni tan olib, azob-uqubatlar orqali donolik kasb etadi. Sofoklning gʻoyasiga koʻra inson har qanday vaziyatda ham oʻz burchini ado etishi kerak. Buni nafaqat edip, balki Antigona nisbatan ham qoʻllash mumkin.

Sofoklning “Shoh Edip”asari Asqad Muxtor tomonidan oʻzbek tiliga tarjima qilingshan va alohida kitob holida nashr etilgan.

Afina demokratik polis tuzumi axloqining tanazzuli miloddan ilgari V asrning soʻnggi choragida, Peleponnes urushi (mil.av.gi 431 – 404 yillar) davrida koʻrinib qolgan iqtisodiy va siyosiy inqiroz bilan bir paytda kechdi. Yunoniston tragediyasining yana bir ulugʻ vakili evripidning ijodiy barkamollik davri ayni mana shu davrga toʻgʻri keladi. Peleponnes urushi davrining mafkuraviy inqirozi ayniqsa sofistika falsafiy oqimining yoyilishida yorqin namoyon boʻldi. Ular barcha haqiqatlarni nisbiy deb eʼlon qildilar, insonni esa barcha narsalarning mezoni deb hisobladilar. Sofistlarning uqtirishicha, notiqlik sanʼatini egallab, istalgan fikrni isbotlash mumkin, demak, obʼektiv haqiqat, obʼektiv axloqiy meʼyorlar yoʻq. Har bir inson oʻzining alohida nuqtai nazarini himoya qilishga haqli. SHu sababli inson odamlar tomonidan ishlab chiqilgan qonunlarga, odamlar oʻylab topgan dinlarga boʻysunishdan ham ozoddir.

Evripid (mil.avvalgi 480 – 406 yillar)ning dramatik merosi 92 ta piesadan iborat boʻlib, ulardan 17 ta tragediya va 1 ta satirlar dramasi bizgacha saqlanib qolgan. Biz bu asarlarning deyarli barchasida muallifning axloqiy – falsafiy izlanishlarini, ikkilanishlarini kuzatamiz. U Fespid va esxildan keyingi uchinchi buyuk islohotchidir. evripidning eng muhim badiiy yangiligi tragik qahramonlarning ruhiy kurashini tasvirlashidir. U insonning oʻzi bilan oʻzi oʻrtasidagi toʻqnashuvini, his-tuygʻu va aql-idrok, ehtiros va vijdon oʻrtasidagi murosasiz kurashni koʻrsatib beradi. Uning “Medeya” tragediyasidagi bosh obraz – Medeya mana shular oʻrtasidagi toʻqnashuvni his-tuygʻu va ehtiros foydasiga hal qiladi. evripid bu mifologik personaj vositasida oʻsha davr ayollarining haq-huquqlari, ularning Yunon jamiyatidagi nochor ahvoli haqida fikr yuritadi. Asarda YAson Afinaning yuqori tabaqa kishilari – boy-badavlat qatlamning umumlashma obrazidir. Uning Glavkaga uylanish sabablarini izohlab Medeyaga aytgan gaplarida sofistlarning qarashlariga munosabat oʻz ifodasini topadi.

Evripidning “Medeya” tragediyasi shoir Asqar Mahkam tomonidan oʻzbek tiliga tarjima qilingan va nashr etilgan.

Yunoniston komediyasi oʻz taraqqiyotida 3 ta bosqichni oʻtgan boʻlib, bular quyidagilardir: 1. Qadimgi Attika komediyasi. 2. Oʻrta Attika komediyasi. 3. YAngi Attika komediyasi. Qadimgi Attika komediyasi oʻz davrining gʻoyaviy-siyosiy kurashiga faol aralashgani bilan ham diqqatga sazovordir. Biz bunday xususiyatni na oʻrta va na yangi Attika komediyasida koʻra olamiz. Aristofan (mil.av.gi 445 – 385 yillar) qadimgi Attika komediyasining asarlari bizgacha etib kelgan birdan bir muallifdir. Unga 44 ta asarni nisbat berishadi va ulardan 11 tasi bizga qadar saqlanib qolgandir. Bular “Axarnliklar”, “Tinchlik”, “Suvoriylar”, “Arilar”, “Bulutlar”, “Qurbaqalar”, “Davlat” va boshqa asarlaridir. Aristofan hayoti va ijodi asosan 27 yillik Peleponnes urushi davrida kechdi. SHuning uchun uning har bir komediyasida urush va tinchlik masalasi u yoki bu darajada oʻrtaga qoʻyiladi. Ularda turli xarakterlar va ularning oʻzaro munosabatidan kelib chiqadigan voqealar orqali Afina – Sparta urushiga barham berish bilan bogʻliq gʻoyalar ilgari suriladi. Chunonchi, Aristofanning “Tinchlik” komediyasining bosh obrazi dehqon Trigey tinchlik maʼbudasi Irinani gʻordagi bandilikdan qutqarmoqchi boʻladi. Dastlab, u Irinani shaharliklar koʻmagida xalos etmoqqa jazm etadi. Biroq ular arqonni turli tomonga qarab tortadilar va yana ham toʻgʻrisi, ularning arqonni tortishga hollari ham yoʻq. Bu ishga dehqonlar jalb qilingach esa Irina darhol bandilikdan xalos boʻladi va Trigey u bilan birga erga tushadi. Asar Trigeyning dehqonlarga qarata jang qurollarini uloqtirib, dala ishlariga paysallamay yoʻl olish haqidagi chaqirigʻi bilan yakunlanadi. Aristofan ijodining soʻnggi davrida yaratilgan asarlarda oʻtkir siyosiy ruh soʻnib borayotgani seziladi. Bu esa qadimgi Attika komediyasi oʻrnini oʻrta Attika komediyasi olayotganidan bir nishonadir.

Nasr Yunoniston adabiy tajribasida sheʼriyatdan keyin yuzaga keladi, lekin u oʻz mavqeini mustahkamlay borib, mil.av.gi V asr oxirlarida sheʼriyatni bir muncha cheklashga ham muvaffaq

bo'ladi. Bu davr Yunon prozasining eng muhim xususiyati unda fan va san'atning bir-biri bilan chatishib ketganligida ko'rinadi. Unda tarixiy ma'lumotlar, falsafiy g'oyalar va hokazolar badiiy shaklda ifodalanar edi. Antik adabiyot nazariyasi an'analardan kelib chiqib, milod.av.gi V-IV asrlar Yunoniston nasri uch turga bo'linadi. 1. Tarixiy proza. 2. Notiqlik san'ati. 3. Falsafiy proza.

Tarixiy nasrning asari bizgacha etib kelgan eng birinchi namoyandasi Herodot (mil.av.gi 485 – 425 yillar)dir. Herodot o'z ijod mahsulini "Tarix" deb nomlagan bo'lib, mil.av.gi III asrda Aleksandriya filologlari bu asarni Yunoniston mifologiyasidagi muzalar soniga muvofiq 9 kitob – bo'linga bo'lganlar. Ana shundan kelib chiqqan holda uni "Muzalar" nomi bilan yuritish ham odatga aylangan. Asar 499 – 449 yillarda bo'lib o'tgan eron – Yunon urushi voqealariga bag'ishlangan. Asarni keyingi besh bobi asosiy mavzu – eron-Yunon urushidan bahs etadi, dastlabki to'rt bobi esa forslar va Yunonlarning uzoq o'tmishlari, ularning harbiy yurishlari haqida ma'lumot beradi. Herodotning "Tarix" asari mil.av.gi 478 yil voqealari bilan nihoyalanadiki, asarning oxiriga etkazilmaganligi muallifning bevaqt vafoti bilan izohlansa kerak. Herodot o'z asarini yaratar ekan, uning oldida ellada erkin demokratik tuzumining mustabidlik asosiga qurilgan eron idora usulidan afzalligini ko'rsatish va umumYunoniston ozodligi yo'lida Afinaning alohida xizmatlarini tarannum etishdan iborat bo'lgan. Asar g'oyaviy mazmunini, A.Alimuhammedov fikriga tayanib, ana shunday belgilash mumkin.

Shuningdek bu davr tarixiy nasridan, Fukidid (mil.av.gi 470 – 400 yillar) qalamiga mansub "Tarix" deb nomlangan yana bir asar ham etib kelgan. Mil.av.gi 431 – 404 yillardagi Peleponnes urushiga bag'ishlangan bu asarni ham keyinchalik 8 bobga bo'lganlar. Asarning birinchi bobi Afina va Sparta polislari o'rtasida boshlanib, butun Yunon olamini o'z domiga tortgan bu urushning sabablari haqida bahs yuritadi. Ikkinchi bobdan esa Peleponnes urushi voqealari xronologik izchillikda yoritib boriladi. Urush voqealari tafsiloti 411 yil voqealari bilan tugallanadiki, bu Herodot singari Fukidid ham o'z maqsadini to'la amalga oshirolmaganini ko'rsatadi. Fukidid o'z salafidan farqli o'laroq tarixiy voqealar mohiyatiga chuqurroq kiradi va ularning sabablarini ob'ektivroq ochadi. U Peleponnes urushi sabablari eron-Yunon urushi natijalari bilan bog'lanishini to'g'ri qayd etadi.

Notiqlik san'atining ilk vatani Sitsiliya bo'lib, mil.av.gi V asr o'rtalarida bu erda mustabidlik tuzumining o'miga demokratiya usulining kelishi bu san'at turining paydo bo'lishi va shakllanishi uchun qulay shart-sharoit yuzaga keltirdi. Qadimgilar ritorikaning asoschilari deb shu orollik Korak va Tisiylar nomini tilga oladilar. Lekin bu notiqlik tomonidan yaratilgan asarlarning birortasi ham bizga qadar etib kelmagan. Milod.av.gi V - IV asrlarda Yunoniston notiqligi asosan uch tur doirasida rivojlangan. Bular: 1. Siyosiy notiqlik, ya'ni xalq majlislarida so'zlanadigan nutqlar. 2. Sud notiqligi, ya'ni sud yig'inlarida so'zlanadigan nutqlar. 3. epidektik notiqlik, ya'ni tantanali – marosimlarda so'zlanadigan nutqlar. Bu davrdan bizgacha asarlari etib kelgan notiqalar orasida uchta muallif alohida o'rin tutadi. Bular Gorgiy (mil.av.gi 483 – 376 yillar), Lisiy (mil.av.gi 459 – 380 yillar), shuningdek Demosfen (mil.av.gi 384 – 322 yillar)lardir. Notiqlik prozasi takomilida Gorgiyning roli beqiyos bo'lib, u notiqning vazifasini tinglovchilarda o'ziga nisbatan ishonch uyg'ota olishda deb belgilagan edi. Buning uchun u alohida notiqlik usullaridan foydalanishi zarur. Ular keyinchalik Gorgiy nomi bilan "Gorgiy figuralari" deb yuritiladi. Bular qatoriga metafora, tovush takrori, jumlani antiteza asosiga qurish va boshqalar kirar edi. Undan bizgacha etib kelgan ikkita nutq – "Elena" va "Polimed" orqali Gorgiy uslubi haqida bir muncha tasavvur hosil qilish mumkin. Lisiy esa uch yuzga yaqin yozma nutq yaratgan bo'lib, ulardan 34 tasi bizgacha saqlanib qolgan. Lisiy asosan sud notig'i hisoblanib, unga buyurtmalar bilan turli ijtimoiy tabaqa va ma'lumot egalari murojaat qilishardi. SHu boisdan ham u o'z buyurtmachilarining madaniy saviyasiga va ruhiy kayfiyatiga kirishga majbur edi. Lisiy nutqlari jonli so'zlashuv tiliga yaqin bo'lgan sodda tilda yozilgan bo'lib, ularda muallifning hayot haqiqatiga sodiq qolishga intilishi sezilib turadi. Plutarx o'zining "Qo'shaloq hayotnomalar" asarida bergan ma'lumotlarga ko'ra esa Demosfen bir talay jismoniy qusurlarga ega bo'lgan. Lekin u o'z ustida olib borgan tinimsiz va mashaqqatli mehnat tufayli antik dunyoning eng etuk notig'iga aylanadi. Uning nomi bilan bizgacha etib kelgan 61 ta nutq va oltita maktubdan ba'zilariga olimlar shubha bilan qaraydilar. Ularning fikriga ko'ra Demosfenga nisbat berilgan nutqlarning faqat 40 tasi unga tegishlidir. Demosfenning ritorik merosida Makedoniya podshohi Filippga qarshi yozilgan va "Filippikalar" deb atalgan siyosiy nutqlar alohida o'rin tutadi. Uning bu turkumga kiruvchi asarlari nafaqat o'zining mantiq kuchi, balki jo'shqin va mardona kurashchan ruhi bilan ham qalbni larzaga soladi.

Yunonistonda falsafa taraqqiyoti milod.av.gi VI asrlardan boshlanadi. Biroq bu erda yuzaga kelgan falsafiy qarashlar faqat V - IV asrlarga kelibgina badiiy shaklga solinadilar. Falsafiy proza uchun xarakterli bo'lgan shakl sifatida dialog qaror topadi. Unda muallifning qarashlari u yoki bu faylasufning o'z raqibi bilan bahs-munozarasi yoki suhbat tarzida ifodalanadi. Bu davr falsafiy tafakkuri asosan Aflotun - Platon (mil.av.gi 427 – 347 yillar) va Arastu - Aristotel' (mod.av.gi 384 – 322 yillar) qarashlarida o'z aksini topdi. Platon ob'ektiv idealizimning asoschisi hisoblanib, uning ta'limoti asosida ikki olam haqidagi ta'limot yotadi. Ulardan birinchisi ideyalar olami bo'lib, ikkinchisi esa moddiy olamdir. Uning ta'limotiga ko'ra moddiy olam haqiqiy bo'lmagan, illyuzolar olamidir. Binobarin, bu olamni tasvir ob'ekti qilib olgan san'at odamlarni haqiqatdan Chetga boshlaydi. SHu tariqa Platon san'at va, shu jumladan, adabiyotning ijtimoiy rolini inkor etadi. Platonning falsafiy asarlari orasidan sevgi haqida bahs yurituvchi “Fedr”, ruh haqidagi qarashlar ifodalanuvchi “Fedon” va boshqa asarlarni keltirish mumkin. Uning “Davlat” asariga o'sha davrlardanoq katta qiziqish bilan qarab kelinadi. Bu asarda davlat haqidagi Platon ideali o'zining ifodasini topgan.aristotel' esa garchi Platonning shogirdi bo'lsa - da, juda ko'p masalalarda unga qarama – qarshi pozitsiyada turadi. O'z ustozidan farqli o'laroq materialistik dunyoqarashga ega bo'lgan bu faylasuf ilm – fanning juda ko'p sohalariga bag'ishlangan traktatlar yaratdi. Ular orasida mantiq, falsafa, axloq, iqtisodiyot, davlat boshqaruvi masalalari va boshqalar bor. Adabiyot tarixi uchun uning “Poetika” asari ayniqsa qimmatlidir. Bizgacha asarning faqat bir qismi etib kelgan bo'lib, ularda ikki masala – adabiyotning san'at hodisasi sifatidagi tabiati va tragediya nazariyasi haqida mulohaza yuritiladi. U san'at va adabiyotning bilish va tarbiyalash bilan bog'liq funksiyalarini e'tirof etgani holda Platonning poeziya inson ruhiga susaytiruvchi ta'sir o'tkazadi, degan nuqtai nazariga qarama-qarshi o'laroq o'zining katarsis nazariyasini ilgari suradi.

Yunoniston adabiyotining Attika davri ikki asr davom etadi va milod.av.gi 338 yildan boshlab o'z o'rnini ellinizm davriga bo'shatib beradi. Xuddi shu yili Yunoniston Makedoniya tomonidan istilo qilinib, o'z mustaqilligini yo'qotadi va mustamlaka maqomini oladi.

Tayanch so'z va iboralar:

Mil.ilg. V-IV asrlarda Yunoniston jamiyati va madaniyati.Dramaning kelib chiqishi va asosiya janrlari.Antik Yunon teatrining qurilishi.Yunonistonda teatr tomoshalari.“Zanjirband Prometey” (Esxil).“SHoh edip” (Sofokl).“Medeya” (Evripid).Antik Yunon komediyasi davrlari.“Tinchlik” (Aristofan).Yunonistonda tarixiy nasr.Yunonistonda notiqlik san'ati.Yunonistonda falsafiy nasr.

Savol va topshiriqlar:

1. “Perikl asri” Yunon jamiyatining eng muhim siyosiy va madaniy voqealari haqida gapiring.
2. Aristotelning drama haqidagi ta'limoti xususida so'zlang.
3. Yunonistonda teatr tomoshalari qay tarzda o'tkazilar ediq
4. Antik Yunon tragediyasining taraqqiyot yo'li haqida gapiring.
5. Antik Yunon komediyasi ravnaqining uch davrini bilasizmi?
6. Mil.ilg. V - IV asrlarda Yunonistonda nasriy adabiyotning qanday turlari mavjud edi?.

Adabiyotlar:

1. I.Karimov “Barkamol avlod orzusi”. T.: Sharq, NMK, 1999, -- 184 bet.
2. Chet el adabiyoti tarixi.Namunaviy dastur va Ishchi dastur.2004, T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2004
3. Alimuhammedov A. Antik adabiyot tarixi. T.: O'qituvchi, 1976, - 416 bet.
4. Komilov N. Tafakkur karvonlari. T., Ma'naviyat. 1997.
5. Homer. Iliada. T.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1988.
6. Homer. Odissey. Ikkinchi qo'shiq g'g' “Jahon adabiyoti” 2001,№8, 58 – 66 –bet.
7. F.Sulaymonova. Sharq va G'arb. T.: O'zbekiston, 1997.
8. Esxil. Zanjirband Prometey. – T.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1978.
9. Sofokl. Shoh edip. T.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1979.

Mavzu: Rim adabiyoti. Respublika davri Rim adabiyoti

Reja:

1. Mil.av.gi III – II asrlarda Rim jamiyati.
2. Dastlabka Rim shoirlari.Plavt va Terentsiya komediografyasi
3. Notqlik san`ati va tarixiy proza taraqqiyoti.
4. Lukretsiyning “Buyumlar xislati” falsafiy dostoni.
5. Neoteriklar va Katull lirikasi.

Rim adabiyoti antik adabiyot tarixidagi yangi bosqich hisoblanadi. Rim asosiy belgilariga ko`ra qadimgi Yunoniston qanday taraqqiyot yo`lini bosib o`tgan bo`lsa, ana shunday yo`lni bosib o`tdi. Bu yo`l ibtidoiy urug`chilik tuzumidan quldorlik, shahar – davlatiga, undan so`ng esa keyinchalik ichki qarama-qarshiliklar tufayli emirilib, o`z o`rnini yangi ijtimoiy-iqtisodiy, formatsiya – feodalizmga bo`shatib bergan ulkan imperiya tuzilmasigacha bo`lgan yo`ldir. Yunoniston va Rim ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotidagi bunday bir xillik ular mafkurasidagi umumiylikni ham belgilab berdi. Yunon madaniyati Rim madaniyatiga din, falsafa, san`at va adabiyot sohasida juda katta ta`sir ko`rsatdi. SHunga muvofiq Rimda adabiyot nisbatan keyinroq – milod.av.gi III asrda, uning o`rtalarida rivojlana boshladi. Xolbuki, bu paytda Yunoniston uchun tanazzul chuqurlashayotgan bir payt edi. Bu tadrijiylik rimliklar uchun o`tmish Yunon adabiyotida yutuqlaridan keng foydalanish imkoniyatini berdi, biroq bu narsa Rim adabiyotining o`ziga xosligiga va badiiy qimmatiga putur etkazmadi. CHunki, Yunon adabiyoti an`analari Rimning milliy zaminiga, g`oyaviy talablariga, tarixiy sharoitlariga moslashtirib qabul qilindi. Tekshirishlar shuni ko`rsatmoqdaki, ayni chog`da bir qator adabiy janrlar va badiiy usullar rimliklarda Yunon manbalariga bog`liq bo`lmagan holda yuzaga kelgan.

Rim adabiyoti Evropa xalqlarining keyingi adabiy rivojida juda katta rol o`ynaydi. Bu adabiyot uchun XVII asrga qadar antik madaniyatdan bahramand etuvchi asosiy manbaa bo`lib qoladi. Bunga sabab, birinchidan, - G`arbiy Evropa madaniyati bevosita Rim madaniyatining vorisi, ikkinchidan, lotin tili katolik cherkovining rasmiy tili bo`lib, u jiddiy o`rgatilar va har bir ma`lumotli odam uchun tanish edi. Vaholanki, ayni paytda Yunon tili unutilib qo`yilgan bo`lib, bu jarayon Renessans, ya`ni XVI asrgacha davom etadi. Mana shu davrga kelibgina antik Yunon madaniyati insoniyat oldida qayta yuz ko`rsatadi va Yunon tilini o`rganish mayli qayta tiklanadi. SHunday qilib, Renessans klassitsizm adabiyotiga Yunoniston adabiyoti ta`siri Rim adabiyoti ta`siridan kuchliroq bo`lgan.

Rim adabiyotini tushunishda shak-shubhasiz uning mifologiyasi muhim o`rin tutadi. Bu o`rinda ham qadimgi Yunon mifologiyasidan, o`z ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda idrok etilib, foydalanildi. Vaqtlar o`tdiyu asosiy Yunon xudolari Rim tuprog`ida quyidagi nomlar bilan qaror topib qoladilar: Yupiter (Zeus), Yunona (Hera), Neptun (Poseydon), Pluton (Aid), TSetsera (Demetra), Minerva (Afina), Venera (Afrodita), Kupidon yoki Amur (Erot), Vulkan (Hefest), Mars (Ares), Apollon yoki Feb (Apollon), Diana (Artemida), Merkuriy (Hermes), Vakx yoki Liber (Dionis), Favn (Pan, Satir) va hokazolar.

Shuni alohida ta`kidlash kerakki, Rim shoirlari uchun Yunon mifologiyasida birinchi planga xuddi Yunon adabiyotining ibtidoiy va mumtoz davridagidek uning dunyoqarash funktsiyasi emas, balki yozuvchining g`oyaviy maqsadidan kelib chiqib, mifologik obraz va rivoyatlarni badiiy – estetik talqin qilish chiqadi.

Rim adabiyoti quyidagicha davrlashtiriladi: 1. Yozma adabiyotgacha bo`lgan (fol`klor) davr. Bu davr quldorlik tuzumining yuzaga kelishi – milod.av.gi VIII asr o`rtalaridan III asr o`rtalarigacha bo`lgan davrni qamrab oladi. 2. Respublika davri adabiyoti. a) Ilk Rim adabiyoti (Rimning Italiya janubiga va O`rta er dengizi havzasiga bosqinchilik yurishi, quldorlik respublikasining yuksalishi) – mil.av.gi III asr o`rtalaridan II asr o`rtalarigacha. b) fuqarolar urushi va respublika halokati bosqichi – mil.av.gi II asr o`rtalaridan I asrning 40 – yillarigacha. 3. Avgust imperiyasi va printsiptat davri adabiyoti – mil.av.gi I asrning 40 - yillaridan milodiy 14 yilgacha. 4. Imperiya davri adabiyoti. a) Kumush asr — I asr va II asr boshlari adabiyoti. b) So`nggi Rim adabiyoti – II asr o`rtalaridan V asrgacha.

Mil.av.gi III – II asrlar Rim tarixi Rim tomonidan dastlab Italiyaning, so`ngra avval O`rta er

dengizi havzasining g'arbiy, keyin Sharqiy katta qismi, shu jumladan, Yunonistonning istilo etilishi bilan bog'liqdir. Uzlüksiz yurishlar natijasida Rim madaniyatining nisbatan yuksak taraqqiy etgan Yunon madaniyati bilan to'qnash kelishi yuz beradi. Natijada Rim va Yunoniston madaniyati elementlarining bir-biriga munosabati masalasida ikki yo'nalish tarkib topadi: 1. ellinlashtirishni yoqlovchilar. 2. ellinlashtirishga qarshilar.

Dastlabki rim shoirlari. Liviy Andronik (mil.a. 284-204) yunonistonlik birinchi rim shoiri, tarjimon, Rim mastaolarida yunon va lotin tilidan dars beradi. Qadimgi saturn vaznida «Odissey» ni lotin tiliga tarjima qilgan. Ko'p o'rinlarda misralarni qisqartirib, ma'budlarning nomlari bilan almashtiradi. Lotin «Odissey» si qariyb 2 asr davomida Rim maktablarida asosiy o'quv kitobi bo'lib xizmat qiladi. Liviy Andronik lotin tilida komediya va tragediyalar ham yozgan. SHoir o'z tragediyalari mavzusini evripid asarlaridan, komediya mavzularini esa Meneandr, Filemon hamda Difilning asarlaridan olgan. Liviy Andronik Rim adabiyotini boshlab bergan birinchi qaldirg'ochdir.

Geniy Neviy (taxm. m.o. 270-200 y) tragediya va komediyalar ijodkori. Neviy ham Andronik singari tragik asarlari mavzusini yunon yozuvchilari asarlaridan olgan, lekin shu bilan birga, o'z vatani hayotidan olingan mavzularda tragediyalar yaratish mavzusini birinchi bo'lib boshlab bergan. Tragediyalarning qahramonlari sahnaga senatorlar kiyadigan alvon xoshiyali ustki libos, ya'ni protekt kiyib chiqadilar. SHu sababli asarlarni protektstata deb ataydilar.

Neviy birinchi marta Rim adabiyoti tarixida kontaminatsiya, ya'ni 2 ta yunon komediyasidan bitta Rim komediyasini yarata boshlaydi. Komediylarda o'tkir siyosiy satira, zamonasining zo'rvonlarini masxara qilishdan cho'chimaydi. Xullas, Neviy komediyalarida Rim hayotining milliy nafasi sezilib turadi. «Pun urishi» dostoni Neviy istedodining cho'qqisi hisoblanadi. Bu dostonda Rim xalqining troyaliklardan tarqalganligi haqidagi rivoyatga Neviy birinchi badiiy tus beradi. Doston Karfagen urushi voqealariga bag'ishlangan. Asarda o't ichida qolgan Troya shahri tasvirlangan. Troya urushi qahramoni eney ma'budalarning amri bilan shaharni tashlab ketishga majbur bo'ladi. Mashaqqatlarni engib Karfanen shahriga malika Didona xuzuriga etib keladi. SHundan so'ng troyaliklar Italiya qirg'oqlariga qarab yo'l oladi. eneyning avlodi Romul tomonidan Rimning barpo etilishi tasvirlanadi.

Kvint enney shoirlari orasidagi eng yirigi (m.o.239-169) Italiyaning janubidagi Klambriya viloyatida tug'iladi. Rimga ko'chib kelib, Pun urushida ishtirok etadi. Keyinchalik lotin va yunon tillaridan dars beradi. Uning tragediyalari teatr sohasida uzoq umr ko'rdi. («Gekuba», «Ifegeniya», «Aleksandr», «Medeya» va boshq.) enniy o'zining «Annallar» («Solnomalar») dostoni bilan shuhrat qozonadi. 60 ming misradan iborat 18 bobli bu asar butun Rim tarixini o'z ichiga oladi. Shoir epitet, o'xshatishlar va boshqa poetik vositalardan ustalik bilan foydalanadi. Lotin she'riyati qurilishini o'zgartirib, eski saturn vaznini yunon gekzometri bilan almashtiradi. «Annalar» dostoni esa imperiya davrlariga qadar lotin tilidagi yakkayu yagona ulug' doston bo'lib qoladi. enniy rimliklarni yunon falsafasini namunalar bilan tushuntiradi; masal, latifa, kulguli kichik asarlar, ya'ni «satiralar» (ko'rama) to'plami yaratadi.

Tit Makk Plavt (mil.o. 250-184) Italiyaning Umriya viloyatida tug'ilgan. Rimning komediyanaivisi hisoblanadi. Plavt Andronik, Neviy, enniy usullarini davom ettirib yunon komediyalarini rim sahnasiga moslashtirish bilan shug'ullangan. Plavt ijodining asosiy hususiyati – Rim madaniyati original ruhiga singdirib yuboradi. Plavt kontaminatsiya usullaridan ham keng foyalangan va o'zidan qiziq-qiziq iboralar, maroqli hodisalar kiritgan. Plavtning «Maqtanchoq jangchi» komediyasi, eng o'tkir va maroqli asarlaridan hisoblanadi. Asarda Pirgopolinik degan shaxs hech qanday janglarda bo'lmasa ham o'zini jang maydonlarida ko'rsatgan baxodirliklarini, surgan ayshu-ishratlarini tasvirlaydi.

Shoir ham o'z qahramoniga monand dabdabali nom beradi: Pirgopolinik, ya'ni «shaharlar va minoralar zavoli» demakdir.

Asardan ana shu xotinbozning ishqiy sarguzashtlari ham o'rin olgan. Bu asar yunon tilidan ko'chirilib, Pirgopolinikning obrazi orqali og'ir urushlar paytida chetga qochib, urush tugagach, bo'lmag'ur bahodirliklari bilan maqtanib yurgan harbiylarning ustidan kuladi. Plavtning yana bir asari «Xumcha» komediyasi bo'lib, unda Rim jamiyati uchun muhim masala o'rin olgan, ya'ni

boylilik inson hulqini buzishi tasvirlanadi. Plavt asarida ellinizm zamonasida keng tarqalgan kinik va stoiklar falsafasidan foydalangan. Davlatmandlikning tashvishlariga qaraganda, betashvish kambag'allik yaxshi degan g'oyani ilgari surgan. Xuddi shu asar asosida keyinchalik e.Vohidovning «Oltin devor» asari dunyoga keldi. Plavtning yana bir katta asari - «Pseudol» («Aldamchi qul») hisoblanadi. Bu komediyada muhabbat mojarolari bayon qilinadi. Boshqa shoirlarda bo'lgani kabi, Plavt komediyalari qahramonlari: - keksa otalar, o'g'illari, ma'shuqa qizlar, sudxo'rlar, askarlar, qullardir. Shular ichida Plavt ko'proq qulga e'tibor beradi. Plavtning nodir poetik mahorati uning asarlarini kattakon tekis yo'ldan Evropa sahnasiga olib chiqdi. Shekspir, Mol'er, Gol'doni, Lope de Vega, Bomarshe, Lessing kabilar uning ijodiga murojaat qilganlar. «Mobodo muzalar lotin tilida so'zlashishni istasalar, ular muqarrar Plavt tilini tanlashar edi» – deb Rim olimlaridan biri bejiz aytmagan. Chunki shoir asarlarining boshidan to oxirgi sahifasigacha ajoyib xalq iboralari bizni o'ziga jalb qilib turibdi.

Rim kishisining axloqini ko'tarishda va hayotini yoritishda Terentsiy ijodi katta o'ringa ega. Publiy Terentsiy (mil.o. (195-159) Afrikaning Karfagen shahrida tug'ilgan. Uni bolaligida Rimga keltirib sotadilar. YAngi xo'jasi Trontsiy xushyor, serzehn bola ekanligini sezib qolib, unga yaxshi bilim beradi va keyinchalik qullikdan ozod qiladi.

Terentsiy zamondoshlar singari komediya yozish bilan cheklangan. SHoir adabiy faoliyati atigi 6 yil davom etadi. Uning «Qaynona», «Androslik qizlar», «Jafokash», «Og'a-ini», «Axta qul», «Formion» komediyalari muhim rol' o'ynaydi. Terentsiy o'zining ustoz Menandr izidan borib, barcha asarlarida gumanizm g'oyalarini talqin etadi. Terentsiy komediyalari adabiy tilning rivojida, oila munosabatlarini ko'tarishda muhim rol' o'ynaydi.

Ilk Rim shoirlari Liviy Andronik, Gney Nevii, Kvint enniylar asosan Yunon asarlari – tragediya, komediyalarni qayta ishlaganlar. Liviy Andronik (mil.av.gi 284 – 204 yillar) Rim fol'klori an'analari asosida Yunon namunasi yaratilgan tragediya va komediyalarni sahnaga qo'yadi. Ularda xor ishtirok etmas va lotin she'ring xususiyatlari hisobga olinardi. SHuningdek, Homer «Odisseya»sining Yunonchadan lotinchaga tarjimai ham Liviy Andronikka tegishlidir. U Homer eposini antik saturn vaznida tarjima qiladi. SHoir tarjimaga juda erkin yondashadi va bu tamoyil undan keyin ham bir muncha vaqt saqlanib qoladi. Milod.av.gi 240 yilda «Rim o'yinlari» chog'ida Liviy Andronik piesasining qo'yilishini Rim adabiyotining boshlanishi sifatida belgilash qabul qilingan. Uning «Lotin Odisseyasi» esa ikki asr mobaynida Rim maktablarida asosiy o'quv kitobi bo'lib xizmat qilgani bu tarjimaning Rim xalqi tarixida nechog'li muhim g'oyaviy hodisa bo'lganligini ko'rsatadi.

Ilk Rim shoirlaridan yana biri – Gney Nevii esa (mil.av.gi 270 – 200 yillar) Yunon manbalaridan foydalanibgina qolmay, o'z ijodiga Rim mavzusini ham olib kiradi. U milliy Rim tragediyasining asoschisi sifatida Rim adabiyoti tarixiga kirgandir. Bu asarlarning personajlari sahnaga Rim senatorlari kiyadigan qizil hoshiyali libos – proteksta kiyib chiqishgani sababli ularni protekstata deb atash taomilga kirgan. Gney Nevii protekstataridan faqat ikkitasining nomigina bizgacha etib kelgan. Bular «Romul» va «Klastidiy» asarlaridir. U komediya janriga ham murojaat etadi va bu sohada birinchi marta kontaminatsiya – ikkita Yunon komediyasidan bitta Rim komediyasining yaratish usulini boshlab berdi. So'ngra bu usulni Plavt va Terentsiy davom ettirgani haqida bir muncha ma'lumotlarga egamiz. Gney Nevii komediya sohasida asosan yangi Attika komediyasi vakillariga ergashsa-da, qadimgi Attika komediyasi elementlaridan ham foydalanadi. U o'zi yashagan davr Rim tuzumini siyosiy jihatdan juda qattiq masxara qiladi. Gney Neviiyning «Pun urushi» eposi ayniqsa mashhur bo'lib, unda Rimning paydo bo'lishi haqidagi eney afsonasi ishlanadi. Bu asardan bizgacha ba'zi parchalargina etib kelgan. Bu davrning uchinchi yirik shoiri Kvint enniy(mil.av.gi 239 – 169 yillar) ham o'z ijodining ilk bosqichida Yunon dramasini Rim sahnasiga moslashtiradi. Uni tragediya sohasida komediya sohasiga nisbatan mohirroq bo'lgan, deb hisoblaydilar. Kvint enniy ayniqsa evripid asarlariga qiziqish bilan qaragani ma'lum. U evripidning «Hekuba», «Medeya», «Ifigeniya» asarlarini Rim tomoshabiniga tanishtiradi. SHoirning «Annallar» («Solnomalar») asari 18 kitobdan iborat bo'lib, eneyning Troyani tark etishidan tortib, to shoir zamonasigacha bo'lgan Rim tarixini batafsil yoritgan. Biroq, bu asardan bizgacha 600 misra saqlanib qolgan, xolos. «Annallar» milliy Rim eposining shakllanishida muhim bosqich hisoblanadi. Kvint enniy lotin gekzometri asoschisi bo'lib, u bu vaznni lotin tili me'yorlariga moslashtirgan. Binobarin,

Rim she'riy adabiyotining saturn an'alaridan gekzametrga o'tish bevosita uning nomi bilan aloqadordir. Rim adabiy tanqidchiligi garchi keyinroq bo'lsa ham Kvint enniy xizmatlarini e'tirof etgan va Horatsiy uni haqli ravishda ikkinchi Homer deb atagan.

Bu davr komediografiyasining eng etuk namoyondalari Plavt va Terentsiyalar ijodini tavsiflashdan oldin Rim komediyasining o'ziga xos xususiyatlari haqida to'xtalib o'tish zarur. Rimda komediya ikki janrda namoyish etilgan bo'lib, bular palliata va togata atamallari bilan yuritiladi. Palliata Yunon syujeti asosidagi komediya bo'lib, uning personajlari Yunon libosida sahnaga chiqishar va o'zlari ham Yunoncha nom bilan atalishardi. Palliata Yunoncha "Pallium" so'zidan olingan bo'lib, Yunon yopinchig'i degan ma'noni bildiradi. Rim teatri hayoti beistisno mana shu janr, ya'ni palliata bilan boshlanadi. Biz quyida komediyalarni tahlil etishni mo'ljallaganimiz – Plavt va Terentsiyalar ham mana shu janr namoyandalaridir. Togata esa mahalliy Rim syujet asosidagi komediya bo'lib, uning personajlari Rim hunarmandlari – to'quvchilar, etikdo'zlar, tegirmonchilar va boshqalardir. Toga ustidan kiyiladigan Rim libosining nomi bo'lib, Rim mavzuidagi komediyalar ana shunga muvofiq togatalar deb yuritilgan. Bu janrlardagi asarlardan arzimas parchalargina etib kelgan, xolos. Biz togata ijodkorlaridan Titiniy, Afranit va Atta nomlarini qayd etish bilan cheklanamiz.

Tit Maktsiy Plavt (mil.av.gi 250 – 184 yillar)ga 120 dan ortiq komediyalarni nisbat beradilar. Lekin Varron (mil.av.gi I asr) ulardan faqat 21 tasi Plavtga tegishli ekanligini qayd etgan. Bu asarlar bizga aksariyat to'liq holda etib kelgan bo'lib, ulardan "Maqtanchiq jangchi", "Psevdol", "Xumcha" asarlari ayniqsa e'tiborga molikdir. "Xumcha" komediyasi boylikning inson xulqiga salbiy ta'siri masalasiga bag'ishlangan va bu muammo o'sha davr Rim hayoti uchun juda dolzarb hisoblanardi. Plavt bu g'oyani bir xum oltin topib olinishi bilan bog'liq voqealar asosida evklion xarakterini ochish orqali g'oyat ta'sirchan ifodalaydi. Plavt bu motivni Menandrdan o'zlashtirgan bo'lib undan ham keyingi bir qator shoirlar oladilar. CHunonchi, Mol'erning "Xasis" komediyasi ana shunday ta'sir samarasidir. Plavt ta'sirini o'zbek adabiyotida ham uchratish mumkin. Masalan, e.Vohidov "Oltin devor" komediyasida mana shu syujetni yangi milliy – tarixiy zaminga ko'chirib tasvirlaydi.

Publiy Terentsiy (mil.av.gi 195 – 159 yillar) qalamiga esa 6 ta komediya mansub deb qaraladi va ulardan barchasi bizgacha etib kelgan. Plavt asarlari asosan Rim aholisining quyi tabaqa kishilari talabiga moslab yozilgan bo'lsa, Terentsiy asarlarida aksincha aristokrat tabaqalar ehtiyojlari ko'zda tutiladi. U aksariyat yangi Attika komediyasi vakili Menandrning jiddiy, boadab komediyalariga ergashadi. Terentsiy komediyalari – "Qaynona", "Og'a-inilar", "Androslik qizlar", "Jafokash", "Axta-qul", "Formion"da gumanistik g'oyalar

ilgari suriladi, odamlarga shafqat, ayollarga himmat, gumrohlarga esa muruvvat qilishga chaqiriladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, respublika davri Rim adabiyotining yuzaga kelish davri bo'ldi. Uning o'rniga keladigan ichki urushlar davrida esa Rim adabiyoti juda murakkab ijtimoiy sharoitda rivojlanadi.

Rim tarixining milod.av.gi II asr o'rtalaridan I asrning 40 – yillarigacha bo'lgan davri ijtimoiy ziddiyatlarning kuchayishi, Rim quldorilik jamiyati tabaqalanishining chuqurlashishi, ikki partiya – senat partiyasi (optimatlar) hamda xalq partiyasi (populyarlar)ning yuzaga kelishi bilan siyosiy kurashning keskinlashishi davridir. Polis sistemasining inqirozi va respublika tuzumining yaqinlashib kelayotgan halokati sharoitida Rimning mafkuraviy hayoti ham murakkablashadi.

"Rimning jahon miqyosida qudratli bir davlatga aylanib borishi natijasida uning eski idora usuli, ya'ni polis sistemasidagi aristokratik respublika tuzumi ortiqcha qo'l kelmay qoladi. Bu ahvol hokimiyatni o'z qo'lga olish uchun intilgan ayrim sarkardalar o'rtasida dahshatli fuqaro urushining boshlanishiga sabab bo'ladi. endigi urushlarga ilgariidek harbiy xizmatga safarbar qilingan Rim dehqonlari emas, balki fuqaroning turli tabaqalaridan, hattoki har xil millatlardan pul baravariga yollangan qo'shinlar qatnashadi", - deb yozadi A.Alimuhammedov. Milod.av.gi 82 yilda Sulla hokimiyatni o'z qo'lga oladi va uch yil demokratlarga qarshi diktatura yurgizadi. Uning o'rnatgan tartiblari Sullaning milod.av.gi 78 yildagi vafotidan keyin 18 yil uning tarafdorlari tomonidan davom ettiriladi. Biroq milod.av.gi 60 yilda bu tartiblarga xotima berilib, Pompey, TSezar va Krass o'rtasida uchlik ittifoqi – triumvirat tuziladi. Ko'p o'tmay yakkahukmronlikka intilgan Pompey va TSezar o'rtasida jang boshlanadi. Bu grajdan urushi milod.av.gi 49 yilda TSezar g'alabasi bilan tugaydi va uning o'ldirilishigacha, ya'ni 44 yilgacha davom etadi. endi Tsezar o'rniga uning o'g'li Oktavianlar da'vo qilib chiqadilar. Ular o'rtasidagi janglar esa milod.av.gi 31 yilda Oktavianning g'alabasi bilan yakunlanadi. SHu tariqa Rimda respublika tuzumi emirilib, uning o'rniga imperatorlik idora usuli

keladi.

Bu davr adabiy hayotining eng muhim xususiyatlaridan biri siyosiy kurashlar sharoitida notiqlik san'atining gurillab rivojlanishidir. Unda mashhur Rim siyosiy namoyondasi TSitseronning notiqlik faoliyati alohida o'rin tutadi.

Mark Tulliy TSitseron (mil.av.gi 106 – 43 yillar) 58 ta nutq, bir qator traktatlar va 800 dan ziyod maktubdan iborat juda katta meros qoldirgandir. TSitseron o'z ijodini Sullaning dahshatli hukmronligi davrida – 81 yilda boshlaydi. Uning notiqlik salohiyati Verresga qarshi qoatilgan 7 ta, Katalinaga qarshi qaratilgan 4 ta va Antoniylarga qarshi qaratilgan 14 ta nutqida yaqqol ko'zga tashlanadi. TSitseron nutqlari o'zining keng qamrovli mazmuni va yuksak mahorati bilan ajralib turadi. Uning ham sud, ham siyosiy nutqlarida yuksak axloqiy tamoyillar himoya qilinadi, manfaatparastlik, badbinlik shafqatsizlik qoralanadi.

Ichki urushlar davrida tarixiy proza ham TSezar' va Sallyustiylar ijodi timsolida rivojlanadi. Gay Yuliy Tsezar' (mil.av.gi 100 – 44 yillar)dan bizga 2 ta tarixiy – memuar asar meros qolgan. Ulardan birinchisi "Galliya urushi xotiralari" deb nomlanib, unda TSezarining milod.av.gi 58 – 52 yillarda olib borgan harbiy yurishlari, ikkinchisi esa "Fuqaro urushi xotiralari" deb nomlanib, Rimda 49 – 48 yillarda Pompeyga qarshi olib borgan janglariga bag'ishlanadi. Bu har ikki asar ham muallifning siyosiy maqsadlari taqozosi bilan yozilgan. Ular orqali TSezar' Rim ahli oldida o'z xatti – harakatlarining to'g'riligiga ishonitirishni ko'zlagan. Xotiralarning uslubi aniq va lo'ndaligi, tili esa engil va ravonligi bilan ajralib tursa, uning mazmuni tarixan qimmatligi bilan e'tiborni tortadi. Gay Sallyustiy Krisp (milod.av.gi 86 – 35 yillar)dan ham bizgacha 2 ta asar to'liq etib kelgan bo'lib, bular "Katalina fitnasi" va "Yugurta urushi" asarlaridir. Uning uchinchi asari "Tarix"dan esa bizgacha arziyas parchalar saqlanib qolgan. Sallyustiy obraz yaratish ustasi bo'lib, uning asarlarida Katalina, TSezar', YUgurta, Mariy va boshqalarning siymolarini uchratamiz. U Rim voqeligini tasviriy vositalar orqali qayta yaratadi. SHuningdek, Afrika, Italiya kabi mamlakatlarning hamda livanliklar, forslar va boshqa xalqlarning koloritli tavsifi chiziladi.

Mil.av.gi I asrning o'rtalarida bir qator Yunon falsafiy ta'limotlari, chunonchi epikurchilar nazariyasi yoyiladi. Rim aristokratiyasini bu falsafiy oqimlarning axloqiy tomoni o'ziga ko'proq jalb etadi. Binobarin, epikurchilar falsafasida ham epikur axloqi keng ommalashgan edi. Tit Lukretsiy Karning "Buyumlar xislati" dostoni ana shunday ma'naviy iqlimda yuzaga keldi. Shoirning o'z e'tirofiga ko'ra, bu asar epikur falsafasining lotin tilidagi she'riy bayonidir. epikur ta'limoti o'z galida Demokritning atom nazariyasiga asoslangan bo'lib, unga ko'ra borliq faqatgina atomlardan va bepoyon bo'shliqdan iboratdir. Mangu atomlar hech qachon butunlay yo'qolib ketmaydi va yangitdan paydo bo'lmaydi. Asar 6 bobdan iborat va ularda shoir bu ta'limotni tadrijiy yoritadi.

Bu davr adabiyotining yana bir muhim hodisasi neoteriklar, ya'ni yangi shoirlar ijodidir. Ularning she'riyati uchun xuddi Yunon adabiyotining ellinizm davri singari ijtimoiy hayotdan Chetlanish, individual olamga intilish mayli va shu bilan bog'liq tor shaxsiy tematika xos hisoblanadi. Ular o'z ijodida shakliy – uslubiy izlanishlarga juda katta e'tibor beradilar. Bu oqimga mansub bo'lgan Valeriy Katon, Litsiniy Kalv, Gelviy TSinna va boshqalar safida Valeriy Katull ijodi alohida mavqe kasb etadi. Katull (mil.av.gi 87 – 54 yillar) asarlarida neoteriklar oqimining barcha xususiyatlarini ko'rish mumkin. Aleksandriya shoiri Kallimaxga ergashgan Katull lirik she'rlari asosan Klodiya ismli go'zal ayolga bag'ishlanadi. U Klodiyning singlisi va Metellning rafiqasi bo'lgan va Katull bilan bir davrda Rimda yashagan. Katull o'z ma'shuqasining ismini ochiq aytmasdan, Sapfo vatani Lesbosga qiyosan Lesbiya deb ataydi. Bu she'rlarda lirik sub'ektning rang-barang, goh shod, goh mayus kechinmalari o'z ifodasini topadi.

Ichki urushlar davri Rim adabiyotining yuzaga kelish pallasi – Respublika davri bilan uning gullab yashnashi davri – Avgust asrini bir-biri bilan bog'laydi.

Tayanch so'z va iboralar:

Mil.ilg. III - II asrlarda Rim jamiyati va madaniyati.Dastlabki Rim shoirlari."Lotin Odisseyasi" (Liviy Andronik)."Pun urushi" (Gney Neviy).

Savol va topshiriqlar:

1. Rim adabiyotining davrlashtirilishi haqida gapiring.
2. Rim adabiyotining yuzaga kelishida Yunon adabiy tajribasining rolini ko'rsating.
3. Dastlabki Rim shoirlari haqida ma'lumot bering.
4. Plavt va Terentsiyni palliata namoyondalari sifatida tavsiflang

Adabiyotlar:

1. Alimuhammedov A. Antik adabiyot tarixi. T.: O'qituvchi, 1970
2. Homer. Iliada. T., 1988.

Mavzu: Avgust davri Rim adabiyoti

Reja:

1. Avgust asrida Rimda ijtimoiy–siyosiy hayot.
2. Vergiliy va Horatsiy Metsenat to'garagi vakillari sifatida.
3. Avgustga muxolifotdagi adabiyot va unda Ovidiyning tutgan o'rni.
4. Mil.iy I–V asrlarda Rim jamiyati Stoya falsafasi va uning Seneka tragediyalardagi ifodasi.
5. Petroniyning «Satirikon», Apuleyning «Metamorfozalar» asarida Rim hayoti tasviri.

Avgust asri Rim adabiyotining xronologiyasi Yuliy TSezar' vafotidan (mil..av.gi 44 yil) Oktavian Avgust vafotigacha (mil.iy 14 yil) bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bu davr Rim siyosiy tarixida yangi davlat qurilmasi – Avgust printsiptatining o'rnatilishi va mustahkamlanishi davridir. Printsiptat davrida respublika muassasalari saqlanib qoldi, biroq ular o'z ahamiyatini yo'qotdi. CHunki senatda Oktavian tarafdorlari asosiy ko'pchilikni tashkil etar, uning o'zi esa senat ro'yxatining 1 – raqamida (printsips) qayd etilgandi. Bundan tashqari, Oktavian imperator unvonini olgan, yana bir qator unvonlar bilan birga senat tomonidan “Avgust” (ma'budvash) deb elon qilingan. Keyinchalik Oktavian Avgustni “xalq otasi” deb ham ulug'lay boshlashadi. SHu tariqa respublika tashqaridagina saqlab qolingani holda amalda monarxik davlat o'rnatilgandi. Oktavian xokimiyati armiyaga tayanardi senatda respublika kayfiyatidagi unga muxolif aristokratiya mavjud edi. Mana shunga muvofiq tarzda adabiyotda ham ikki oqim yuzaga keladi. 1. Rasmiy, Avgust siyosatini yoqlovchi oqim. 2. Unga muxolifotda turuvchi oqim. Printsiptatning rasmiy mafkurasiga yaqin turgan shoirlar asosan Oktavian Avgustning yaqin safdoshi Metsenat to'garagiga birikkan edi. Uning asosiy vakillari esa Vergiliy va Horatsiydardir. Rimning rasmiy siyosatiga muxolifotdagi adabiy kuchlar orasida esa Tibull, Proportsiy va Ovidiylarni keltirish mumkin. Biz quyida ularning eng muhimlariga to'xtalib o'tamiz.

Publiy Vergiliy Maron (mil..av.gi 70 – 19 yillar) 3 ta yirik asar yaratgan bo'lib, bular “Bukolikalar” she'rlar majmuasi, “Georgikalar” didaktik dostoni va “Eneida” epik dostonlaridir. “Bukolikalar” yoki “CHo'pon she'rlari” 10 ta eklogadan iborat bo'lib, ularda Vergiliy Yunon shoiri Feokrit (mil..av.gi III asr)ning cho'pon idilliyalariga ergashadi. “Georgikalar” yoki “Dehqonchilik haqida” asari esa 4 ta kitobdan iborat. Ulardan dastlabkisi g'allakorlik, ikkinchisi bog'dorchilik va tokchilik, uchinchisi chorvachilik, to'rtinchisi esa asalarichilik haqida bahs yuritadi. Asarda Vergiliy insoniyat taraqqiyotida mehnatning roli haqidagi kontseptsiasini ifodalaydi va shu munosabat bilan uning asosiy tezisini “Mehnat har narsadan g'olibdir”, deb belgilaydi. Vergiliyning eng yirik asari uning “Eneida” dostonidir. Bu asar Troya pahlavoni eney sarguzashtlariga bag'ishlanadi. Yunon ma'budlari amriga ko'ra u Troya halokatidan so'ng omon qolishi, Italiyaga kelib, bu erda Rim davlatiga asos solishi lozim edi.

“Eneida” dostoni har biri 6 bobdan iborat bo'lgan ikki qismga bo'linadi. Ulardan dastlabkisida eneyning Troyadan chiqib Italiyaga etib kelgunga qadar boshdan kechirgan sarguzashtlari hikoya qilinadi. Keyingi qismda esa uning Italiya tuprog'ida olib borgan janglari haqida gap boradi. Umummilliy epos yaratishni niyat qilgan Vergiliy o'z maqsadini oxiriga etkaza olmagan ko'rinadi. CHunki, u eneyning Laviniyaga uylanishi, undan Iulning tug'ilishi, Iul naslidan bo'lgan Romul va Rem tomonidan esa Rimning barpo etilishi va nihoyat Rim podshohlarining tarqalishi haqidagi afsonalar ham o'rin olishi kerak edi.

Eneida'ning bosh g'oyasi Rimning ulug'ligini, Oktavianning ma'budvashligini madh etishdan iboratdir.

Kvint Horatsiy Flakk (mil..av.gi 65 – 8 yillar)ning adabiy merosi quyidagilardan iborat: 1. “Epodlar” (17 she'rdan iborat 1 ta to'plam). 2. “Satiralar” (18 she'rdan iborat 2 ta to'plam). 3. “Qasidalar” (103 she'rdan iborat 4 ta to'plam). 4. “Nomalar” (23 ta she'rdan iborat 2 ta to'plam). Shuningdek, “Bayram gimni” deb atalgan alohida she'r ham saqlanib qolgan. SHoirga uning qasidolari ayniqsa ko'proq shon-shuhrat keltirgan. O'z qasidalarida mil..av.gi VII – VI asrlar Yunon shoirlariga ergashgan Horatsiy fikricha, farog'atni axtargan odam baxtiyor kunlarda quturmasdan bir me'yorda yashamog'i, musibatli damlarda ortiqcha fig'on chekmasdan qanoat qilmog'i, o'zini tetik tutmog'i darkor. Baxt – saodatning asl manbai “oltin mo'tadillik”da, hayotni o'rtacha o'tkazishdadir. Uning “Nomalar” asaridan esa “Pizonlarga maktub” yoki “SHe'riyat ilmi”ni alohida ajratib

ko'rsatish mumkin. Horatsiyning bu nomasida keyinchalik N.Bualo "She'riy san'at" asarida klassitsizmga nisbatan me'yoriy deb belgilagan juda ko'p nazariy xulosalar ilgari suriladi. Horatsiyning tafakkuri san'atning mazmundorligi, ommaga ta'sir o'tkazishning vositalari, she'riyatning ijtimoiy qimmati va shoirning roli masalalari tadqiqiga qaratiladi.

Publiy Ovidiy Nazon (mil..av.gi 43 – mil.iy 18 yillar) Avgustga muxolifotda turgan adabiy oqim vakili o'laroq mil.iy 8 yilda Oktavian Avgust tomonidan Rimdan surgun qilinadi. SHu tariqa u umrining qolgan 10 yilini olis Toma shahrida muhojirlikda o'tkazadi. SHoidan bizgacha bir talay asarlar etib kelgan bo'lib, bular "Sevgi qo'shiqlari", "Qahramon ayollar yoxud maktublar", "Ayollar uchun pardoz malhamlari", "Sevgi san'ati", "Sevgi da'vosi", "Metamorfozalar", "Fasta", "G'amgin qo'shiqlar" va "Plontdan maktublar"dir. Ovidiy ijodining cho'qqisi uning "Metamorfozalar", ya'ni "Turlanishlar" dostonidir. "Metamorfozalar" 15 ta kitob, 12 ming misradan iborat bo'lgan yirik asar. Unda Yunoniston va Rim mifologiyasidagi afsonaviy turlanishlar ma'budlar, suv va o'rmon parilari, shuningdek, insonlarning jonivorlarga, o'simliklar va hatto yulduzlarga aylanib qolishi haqidagi 250ga yaqin rivoyatlar epilliya, ya'ni kichik she'riy qissalar shaklida yoritilgan. Asarning falsafiy asosi bo'lib Lukretsiyning hamma narsa o'zgaradi, biroq hech narsa yo'qolmaydi, degan qarashi va Pifagorning ruhning ko'chib o'tishi haqida nazariyasi xizmat qilgan. Asarda ifodalanishicha, turlanishlar stixiyali tarzda ro'y bermaydi, balki u yoki bu personajning ma'naviy xislatlari sabab bo'ladi.

Rim adabiyotining biror bir davri Avgust asri kabi o'lmas adabiy obidalarga boy bo'lgan emas edi. Bu davrning 3 ulug' shoiri – Vergiliy, Horatsiy, Ovidiy asarlari keyingi barcha davrlarda ham etuklik namunasi bo'lib qoladi.

Rimda Avgust printsipti mil.iy 14 yilgacha, ya'ni Oktavian Avgust vafotigacha davom etadi. Rimning bundan keyingi tarixi imperiya davri bo'lib, u yakkahokimlik idora usuliga tayanadi. Bu hokimiyat qudratli harbiy qo'shinga tayanar va ochiqdan-ochiq istibdod saltanati edi. Imperator hokimiyatiga nisbatan senat aristokratiyasi muxolifoti mavjud bo'lib, ular o'rtasida stoyachilar falsafasi keng yoyilgan edi. Bu ta'limot orqali ular shaxsning ma'naviy kamolotini targ'ib va tashviq qiladilar. Umuman olganda, mil.iy I – V asrlarda Rim jamiyatida orqaga ketish kuzatiladi va bu holat adabiy hayotda ham ko'rinadi.

Lutsiy Anney Seneka (mil..av.gi 4 mil.iy 65 yillar) falsafaning stoyachilar maktabi vakili bo'lib, uning asarlari ana shu oqim ta'limotini yoyishga qaratilgandir. Seneka merosi asosan ikkiga bo'linadi. 1.Falsafiy asarlar. 2.Badiiy asarlar. Seneka badiiy asarlari va ayniqsa tragediyalarida ham hayot ustidan mana shu nuqtai nazardan hukm chiqaradi. A.Alimuhammedovning fikriga ko'ra: "Dramaturg... oddiy faqirona hayotning betashvish sokinligin, badavlat hayotning g'am-kulfatlarini, taqdiming bevafoqligini, baxt va saodatning beqarorligini, ehtiroslarning fojiaiy oqibatlarini... tarannum etadi».seneka dramaturgiyasining o'ziga xos xususiyatlarini uning "Medeya" tragediyasi orqali, bu mifologik rivoyatning evripid talqini bilan qiyosiy tahlil qilish vositasida bilib olish mumkin. evripid Medeya fojiasi sabablarini Afina demokratik polis tizimining tanazzulida ko'rgan bo'lsa, Seneka esa bunga sabab deb Medeyaning betizgin ehtiroslarini ko'rsatadi.

Gay Petroniy Arbitr (mil.iy I asr) bu davr adabiyotining eng salmoqdor asarlaridan biri muallifidir. Bu asar "Satirikon" deb nomlanib, 20 ta kitobdan iborat bo'lgan. Ammo uning 15- va 16-kitoblaridan parchalargina bizgacha etib kelgan. "Satirikon" yoki "Satirlar kitobi" menipp satirasi deb yuritiladigan janr asosida yaratilgan bo'lib, unda Petroniy o'z davrining turli-tuman ijtimoiy guruhlarini mahorat bilan tasvirlay olgan. "Satirikon"ning asosiy obrazlari – daydilar (Enkolpiy, Askilt, Giton) bo'lib, ular butun Italiya bo'ylab sarson-sargardon kezadilar. Petroniy o'z qahramonlarini turli sharoitlarda olib tahlil etadi. "Satirikon" asari syujetining asosini ishqiy motivlar tashkil qiladi va ular orasida "Effeslik xonim" qissasini alohida qayd etish mumkin.

Imperiya davri adabiyotida jamiyat illatlaridan kulish asosiy pafoslardan hisoblanadi. Fedr (mil.iy 15 – 60 yillar) Rim adabiyotiga masal janrini olib kiradi. U bu boradagi ijodini mil..av.gi VI asrda yashagan Yunon masalnavisi ezop asarlarini lotinlashtirishdan boshlaydi. Fedrning merosi 5 to'plamga jamlangan 135 ta masaldan iboratdir. Fedr asarlarining uchdan biri ezop masallari bilan bog'liq bo'lib, lekin ular tarjima emas, balki qayta ishlashdir. Fedr u yoki bu syujetni o'zlashtirgach, unga yangi ma'no yuklaydi va boshqacha «qissadan hissa» bilan tugallaydi. Uning bir qator masallari uchun siyosiy satira etakchi mavzu hisoblanib, ularda asosan "kuch-qudratli"lar nishonga olinadi. Fedrning "Bo'ri bilan qo'zichoq", "Sigir, echki va sher", "Burgut va qarg'a" kabi misollarida shu

bilan bog'liq g'oyalar ilgari suriladi.

Mark Valeriy Martsial (mil.iy 42 – 104 yillar) 15 kitobga jamlangan epigrammalar muallifidir. Uning ijodida epigramma o'tkir zaharxanda qurolga aylandi. Martsial epigrammalarining bir qismida Rim jamiyatining ma'naviy tanazzuli o'z ifodasini topadi. CHunonchi, u behad ko'p mol-davlatga ega bo'lgan boylarning xasisligi ustidan kuladi. Umuman olganda, Martsial epigrammalarining ko'pchiligi satirik bo'lib, ularning shon-shuhrat qozonishiga ham eng avvalo mana shu jihat sabab bo'lgandir. Uning asarlarining badiiy fazilatlarini sifatida hozirjavoblik, favqulodda tugullanmalar, qisqalik va boshqalarni keltirish mumkin.

Detsim Yuniy Yuvenal (mil.iy 60 – 140 yillar) ham mashhur Rim satirigidir. Uning qalamiga mansub satiralardan 16 tasi bizgacha etib kelgan. Ularni o'z xarakteriga ko'ra 2 guruhga ajratish mumkin. 1. 1-9

satiralar. Ularda o'tkir fosh etuvchi xarakterga ega bo'lib, ularda shoir Rim jamiyati yuqori doiralarning illatlarini keskin tanqid ostiga oladi. 2. 10-16 satiralar. Ularda shoir stoyachilar falsafasi ruhida axloqiy mavzularda mulohaza yuritadi. Rim adabiyoti tarixida Yuvenal o'zining fosh etuvchi satiralari bilan qadrlidir.

Umumiy tanazzul fonida Apuley (mil.av.gi 124 – 180 yillar) ijodi kishi diqqat-e'tiborini o'ziga jalb etadi. Apuley ham Yunon, ham lotin tilida bab-baravar qalam tebratgan ijodkordir. Uning Yunon tilidagi asarlari unutilgan, lotin tilidagi asarlari esa etib kelgan. Bular "Gulzor", "Apologiya" va "Metamorfozalar" asarlaridir. Apuley "Metamorfozalar" romani tufayli shon-shuhrat qozongan. Bu asar keyinchalik "Oltin eshak" nomi bilan yuritila boshlagan. Roman syujeti asarning bosh obrazi Lutsiyning fantastik tarzda eshakka aylanib qolishiga asoslanadi. U turli xo'jayinlar qo'liga tushib, odamlarning turli-tuman badkirdorliklariga guvoh bo'ladi. mana shu qoliplovchi hikoya ichida yana bir necha mustaqil hikoyalar mavjud bo'lib, ular orasida Amur va Psixeya haqidagi qissa ayniqsa dilbardir. Unda juda musaffo bir sevgi tarixi bayon qilinadi. Apuley o'z romanida shu davr Rim hayotini g'oyat bo'yoqdor tasvirlaydi. U mayda er egalarining haq-huquqsiz hayotini, boylar va imperator gumashtalarining jabr-zulmini qalamga oladi.

Apuley qadimgi Evropa adabiyotining eng so'nggi vakilidir. Mil.iy V asrda Rim imperiyasi qulaydi va u

bilan birga quldorlik tuzumi ham yakunlanadi. endi tarix sahnasiga feodalizm tuzumi va unga asoslangan O'rta asrlar pallasi chiqadi.

Tayanch so'z va iboralar:

I asrda Rim jamiyati va madaniyati. Metsenat to'garagi. "Bukolikalar" (Vergiliy). "Georgikalar" (Vergiliy). "Eneida" (Vergiliy). "Maktublar" (Horatsiy). "Metamorfozalar" (Ovidiy). I – V asrlarda Rim jamiyati va madaniyati. Seneka stoitsizmi. "Medeya" (Seneka). "Satirikon" (Petroniy). Fedr masalalari. Martsial epigrammalari. Yuvinal satirlari. "Metamorfozalar" (Apuley).

Savol va topshiriqlar:

1. "Avgust asri" tushunchasiga izoh bering.
2. Metsenat to'garagi va unga uyushgan shoirlar ijodi haqida so'zlang.
3. "Eneida"ni umumrim milliy epopeyasi sifatida tavsiflang.
4. Stoya falsafasi va uning Seneka tragediyalarida ifoda etilishi haqida so'zlang.
5. Medeya obrazining evripid va Seneka talqinini bir-biriga qiyoslang.
6. Fedr masallariga ezop ta'siri haqida so'zlang.

Adabiyotlar:

1. Alimhammedov A. Antik adabiyot tarixi. T., O'qituvchi, 1976.
2. Ezop. Masallar
3. V.Tenderyakov. Ezopning sarguzashtlari... Jahon adabiyoti. 1998

Mavzu: O'rta asrlar va Uyg'onish davri adabiyoti. O'rta asrlarda Evropa adabiyoti

Reja:

1. VI – XVII asrlar Evropa adabiyotining davrlashtirilishi.
2. Ilk o'rta asrlarda qahramonlik eposi.
3. Diniy-cherkov adabiyotining g'oyaviy yo'nalishi.
4. Ritsar-kurtuaz adabiyoti va uning janrlari.
5. Uyg'onish davri Evropa adabiyotining ahamiyati.

Mil.iy V asrda qullar va kolonlarning qo'zg'olonlari hamda ularga xayrixoh bo'lgan varvarlarning Rimga bosqini natijasida Rim imperiyasi qulab, quldorlik tuzumi emiriladi. Uning o'rniga yangi ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya – feodalizm vujudga keladi. U IV – V asrlarda tarkib topa boshlab, XI – XV asrlarda yuqori bosqichga ko'tariladi va XVI – XVII asrlarda inqirozga yuz tutib, emirila boshlaydi. Shu tariqa yerga xususiy mulkchilikka asoslangan feodalizm o'rnini kapitalistik ishlab chiqarish munosabatlari egallaydi. Shuning uchun qadimgi dunyo tarixining oxiri VI asrdan yangi zamon kapitalizmning boshlanishi – XVII asrgacha bo'lgan davr O'rta asrlar nomi bilan yuritiladi. O'rta asrlar adabiyoti ikki davrga bo'linadi: 1. Ilk o'rta asrlar adabiyoti. 2. Uyg'onish davri adabiyoti. Ilk o'rta asrlar adabiyoti 10 asrdan ziyod davrni qamrab oladi va o'z ichida ikki bosqichga bo'linadi: 1. Qabila tuzumining emirilishi va feodalizmning barpo bo'lishi davri adabiyoti (V – X asrlar). 2. Rivojlangan feodalizm davri adabiyoti (XI – XV asrlar). Ilk o'rta asrlar davri adabiyotining taraqqiyotiga uch omil barakali ta'sir ko'rsatdi: 1. Xalq og'zaki ijodi. 2. Antik san'at. 3. Xristianlik dini.

Ilk o'rta asrlar adabiyotining ikkinchi bosqichi g'oyaviy-badiiy jihatdan bir muncha yuksak bo'lib, asosan u bilan bog'liq masalalarga to'xtalamiz. Bu bosqich adabiyotida uchta yo'nalish mavjud edi va ular quyidagilardir: 1. Xalq adabiyoti. 2. Diniy – cherkov adabiyoti. 3. Feodal – ritsar' adabiyoti.

Xalq adabiyotining eng etuk namunalari Frantsiya qahramonlik eposi “Roland haqida qo'shiq”, Ispaniya qahramonlik eposi “Sid haqida qo'shiq”, Germaniya qahramonlik eposi “Nibelunglar haqida qo'shiq” dostonlaridir. Dastlabki ikki asarda ham G'arbiy Evropa feodallarining Salb yurishlari o'z aksini topgan. Ulardan keyingisi “Sid haqida qo'shiq”ning markazida turuvchi bosh obraz tarixiy shaxs bo'lib, uning asl ism-sharifi Rodrigo Dias, Sid, to'g'rirog'i Said (arabcha “janob”) esa uning laqabidir. Rodrigo Dias 1040 – 1099 yillarda yashagan va ispaniyani arab istilochilaridan ozod qilish milliy harakati – rekonkistaning yirik arbobi sifatida shon-shuhrat qozongan. 1140 yilda yaratilgan bu asar o'z tuzilishiga kura uch qismdan iborat: 1. Quvilish haqida qo'shiq. 2. To'y haqida qo'shiq. 3. Korpes haqida qo'shiq. Kastiliya qiroli Al'fons buyrug'i bilan vatanidan quvilgan Sidning harbiy drujina to'plashi va u bilan Valensiya viloyatini ozod etishi va boshqa voqealar asar asosiga qo'yilgandir. “Nibelunglar haqida qo'shiq” dostoni esa biz yuqorida qayd etgan asarlardan bir muncha farq qiladi. 1200 yilda yaratilgan bu asarda ko'chmanchilik davridagi nemis hayoti, qahramonlik va jangovor yurishlari o'z aksini topgan. “Nibelunglar haqida qo'shiq” dostonida fantastik elementlarga ancha keng o'rin beriladi.

Ilk o'rta asrlar G'arbiy Evropasining asosiy mafkurasi xristianlik dini edi. Bu mafkura bir muncha shakllangan strukturaga ega diniy tashkilotlar – cherkovlar tomonidan olib borilardi. Uning g'oyalarini o'zida obrazli tarzda aks ettiruvchi adabiyot ham yuzaga kelgan bo'lib, uning ommaga ta'siri ham kuchli bo'lganligini faraz qilish mumkin. Bunday deyayotganligimizning boisi shundaki, sobiq sho'ro tuzumi sharoitida bu davr G'arbiy Evropasi diniy-cherkov adabiyoti namunalari chop etish va tadqiq qilishdan ongli suratda Chetlab o'tildi. Bu adabiyot haqida ma'lumot beradigan asarlar juda kam bo'lib, ular sirasiga XI asrda Frantsiyada yaratilgan “Avliyo Aleksiyning umrguzaronligi” asarini kiritish mumkin. Unda o'z taqvodorligi tufayli oxir-oqibat avliyo darajasiga ko'tarilgan Aleksiyning riyozat to'la hayoti hikoya qilinadi.

O'rta asrlar sharoitida ritsarlik feodal zodagonlarning o'ziga xos muhim xususiyati edi. Ayni mana shu ijtimoiy hodisa XII-XIII asrlarda ritsarlik adabiyotining yuzaga kelishi uchun sabab bo'ladi. Bu adabiyot dastlab Frantsiyada tug'ilib, so'ng boshqa Evropa mamlakatlariga tarqaladi. Ilk ritsarlik uchun mardlikning o'zi kifoya qilgan bo'lsa, so'ngra u kurtuazcha nozik didli, ko'rkam, g'oyat sezgir va xushmuomala bo'lishi ham lozim, degan talablar o'rta qo'yiladi. SHuningdek, insoniy his-tuyg'ularni qadrlash, ayollarga nozik iltifot, romantik sevgi kechinmalarini madh etish rasm bo'lib qoladi. Ritsar'-kurtuaz adabiyoti lirika sohasida trubadurlar lirikasi degan nom bilan yuritiladi. Bu atama frantsuzcha “truver” so'zidan olinib, “topmoq”, “ijod qilmoq” ma'nolarini anglatadi. Ayollar kul'ti, ayollarni ulug'lash trubadurlar lirikasining asosiy g'oyaviy yo'nalishidir. Uning kantsona, sirventa, tentsona, al'ba, pastorela kabi janrlaridan har biri o'ziga xos mavzu doirasiga egadir. Masalan, al'ba tong qo'shig'i bo'lib, tunda o'z ma'shuqasi bilan visol qurgani kelgan ritsarni uning do'sti qo'shiq kuylab, tong otganidan xabardor qiladi. Trubadurlar lirikasining Frantsiyadagi eng etuk vakillari Bernard de Ventadorn (1142 – 1195 yillar) va Bertran de Born (1140 – 1215 yillar) edilar. Germaniyada esa ritsarlar lirikasi “Minnezeitung” deb atalgan va Vol'fram fon eshenbax (1170 – 1220 yillar) uning eng go'zal namunalari yaratgan.

Ritsar' – kurtuaz adabiyoti. XII-XIII asrlarga kelib Frantsiya va boshqa G'arbiy Evropa davlatlarida feodallashish jarayonini asosan tugallanadi. Davlat tepasidagi qirol boshqa feodallar uchun sin'or (syuzern) hisoblanar edi. Katta er egalari bo'lgan graf, gertsog, episkoplar va o'z grafliklari doirasida mustaqil hukmron edilar.

Kichikroq baronlar yirik graf va gertsoglarni sin'or deb atashgan. Baronlarga esa kichikroq feodal va ritsarlar bo'ysunganlar.

Ritsar o'z xo'jayiniga sodiq, uning mol-mulki va manfaatlarini himoya qiluvchi jangchi edi. Dabdabali ritsarlik qoidalarini yaratishda XII-XIII asrlarda paydo bo'lgan ritsar' adabiyoti muhim rol' o'ynaydi. Biroq ritsarlik ideallari real turmush faktlariga zid edi. X asr boshlarida Provans viloyati alohida davlat edi. Janubiy Frantsiyadagi ushbu viloyat iqtisodiy va ma'naviy sohada rivoj topadi. Bu erda frantsuz adabiy tilga asos solinadi.

Dastlab Provansda feodal sin'orlari dunyoviy ritsar' madaniyatining ifodasi bo'lgan Kurtuaz poeziyasi dunyoga keldi. Provans shoirlarini trubadurlar deb atashgan. Trubadur frantsuzchadan «topmoq», «ijod etmoq» degan ma'noni anglatadi. Bu adabiyot saoroyga xos nafislik, odob-tavoze, xonimlarga nisbatan xushmuomalalikni talab qiladi. Ayollarni ulug'lash – trubadurlar ijodida asosiy o'rin egallaydi. Provans shoirlari muhabbat oshiqni yaxshi fazilati etib tarbiyalaydi., qalbini poktantiradi deb tushuntiradi. Ularning fikricha, oshiq odam hech qachon yomon niyatlar, yomon ishlarni qilmaydi, aksincha hamma vaqt oliyhimmat bo'lishga intiladi. Shoir Arnaut de Maruel provans shoirlariga xos fikrni bayon qilib:

“Muhabbatsiz odam hurmatga sazovor bo'la oliydi” deb yozadi. Ishqqa bunday munosabatda bo'lish hamma provans shoirlariga xos fazilatdir.

Provans trubadurlarining ishq fazilatlari haqidagi fikrlari Sharq faylasuflarining qarashlariga hamohangdir. endilikda provans trubadurlari ishqiy lirikasining mazmuni, shakli uslubi asosida Sharq she'riyati yotganligi haqidagi fikrlar hech kimda shubha qoldirmadi.

Sharq va G'arb aloqalari markazi bo'lmish Provansda shakllangan saroy she'riyatning asosiy mavzui mahbuba go'zalligini maqtash, oshiqning azob-uqbatlarini izhor qilishdan iborat. Ritsar ishqiy she'riyati keyinchalik boshqa Evropa mamlakatlari, ayniqsa Italiyada YOqimli yangi uslub va Olmoniyada minnezanglar she'riyati sifatida keng tarqaladi. Mahbuba qiyofasining go'zalligi ritsar shoirlari uchun (Sharqda ham shunday) birinchi shart edi. Ritsar muhabattida jismoniy yaqinlikka intilish mutloq uchramaydi.

Trubadurlar she'rning shakliga, qofiyalanishiga ortiqcha e'tibor berar edilar. Ikki uslub: yorqin uslub (munozara, bahs) tumanli uslub (kinoyali so'zlar, murakkab, mavhum iboralar.) Oddiy xalq tushuna olmaydi.

Trubadurlar o'rta asr poeziyasini yangi bosqichga olib chiqdilar. Biroq ularda sun'iylik va shaklbozlikka (formalizm) berilish kuchli bo'lgan. Muhabbat mavzusi ritsarlik lirikasida murakkab sevgi qoidalarini yuzaga keltirib chiqaradi (30 ga yaqin qo'shiqchi trubadur ayollar ham bo'lgan).

Trubadurlar lirikasining eng gullagan davri - XII asr oxirlariga to'g'ri keladi. SHu davrda ijod etgan yirik trubadurlardan biri Bernard de Ventadorndir (taxminan 1140-1195).

Ёдда тутинг! Трубадурлар шеърятининг асосий жанрлари:

1. Кансона – севги кўшиғи бўлиб, унда муҳаббат ва диний мавзу ёритилади.
2. Сирвента - сиёсий ва шахсий масалаларга бағишланган мунозара руҳидаги кўшиқ.
3. Тенцона - севги, адабий-фалсафий мавзуларда икки шоир ўртасидаги шехрий диалог.
4. Алрба ёки тонг кўшиғида рицарр ўз дўстининг кузатуви остида тунда севгани (бировнинг хотини) билан учрашгани бориши куйланади. Тонг ёриша бошлаши билан дўсти «Тонг кўшиғи» ни айтади ва рицарни огоҳлантиради.
5. Пасторела - мавзуси жихатидан алрба каби алоҳида воқеани акс эттирган лирик кўшиқ бўлиб, кўпинча суҳбат-диалогдан ташкил топган кичик пресани эслатади (рицар ва чўпон қиз учрашуви, уни ташлаб кетиши ва бошқалар).
6. Мотам кўшиғи - обрўли синёр вафотига ёзилган марсия.

U dastlabki sheʼrlarini oʻz sinʼorining xotiniga, soʻngra Angliya qirolichasi elenoraga bagʻishlagan (uning xizmatida boʻlgan). Uning sheʼrlari nafis va ohangdor. Ventadorn sheʼriyati sevgi ruhi bilan sugʻorilgan. U sheʼrlaridan birida “*Qalbingda sevgi boʻlmasa bu dunyoda yashashni hojati yoʻq*” – deydi. Xonimga: “*Men sizni mulkingizman*” – deb xitob qiladi. Uning qoʻshiqlarini boshqa qoʻshiqlardan farqi haqida “Chin qalbdan chiqqan poeziyagina mening uchun qimmatlidir. Lekin bu faqat haqiqiy sevgi xukmronlik qilgan qalbdagina boʻlishi mumkin. Mening butun borligʻimda sevgi hukumron” – deydi.

Bertran de Born esa aksincha asosan siyosiy mavzuda ijod qilgan. (taxminan 1140-1215 yillar). U oʻzining sirventalari bilan mashhur boʻlib, ularda tajavuzkorlik, jang lavhalari, ritsarlar urushlarini tasvirlagan. U qishda bahorni qumsaydi, chunki bahor sevgi fasligina emas, balki harbiy erishlar fasli hamdir.

Uning poeziyasida kurtuazcha nafis tuygʻular zoʻravonlikka asoslangan eski, dagʻal ritsarʼ ideallari bilan qoʻshilib ketadi. SHuning uchun u oddiy xalqni “surbet”, “yalqov” deb atab, ularni iskanjada saqlashni targʻib etadi.

U keyinchalik oʻz otasiga qarshi bosh koʻtargan shahzoda Genrixni qoʻllab quvatlaydi. (Goʻyoki de Born ota-bolani urushtirib qoʻygan degan gaplar tarqalgan. Shuning uchun boʻlsa kerak, Gyote de Bornni “Faust” asarida doʻzaxda tasvirlaydi).

Shahzoda Genrix bezgak kasali bilan ogʻrib vafot etadi. Born unga bagʻishlangan mashhur marsiyalarini yozadi. U bir qancha sevgi qoʻshiqlari ham ijod qilgan.

XIII asr – provans lirikasining soʻnish davridir. CHunki bu davrda yangi shahar adabiyoti paydo boʻldi. SHu bilan birga, 1209 yilda shimolliklar Simon de Monfor boshchiligida janubga xujum qildilar (20 yillik urush) va gʻalaba qozongan. Trubadurlarning koʻpchiligi qoʻshni Italiya, Piriney yarim oroli, hatto Germaniyaga oʻtib ketadi.

Minnezang. Nemis ritsarʼ madaniyati va adabiyoti. XII-XIII asrlarda Frantsiya taʼsiri ostida rivojlangan. Ritsarʼ lirikasi minnezang («sevgi qoʻshigʻi» Minne – «sevgi») deb ataladi. Uning birinchi namunalari 1170 yillarga toʻgʻri keladi.

Ritsarʼ - sevgi poeziyasi 2 oqimdan iborat edi. Ulardan biri oʻz uslubi bilan arxaik xalq qoʻshigʻiga yaqin poeziya boʻlib, unda hali ayolni ulugʻlash gʻoyalari sezilmaydi. (Kyurenberg va Ditmar fon Aystlar ijodi).

Ikkinchi oqim – provans trubadurlarining bevosita taʼsiri ostida yuzaga keladi (Gʻarbiy viloyatlarda). Ditmar va Kyurenberglarning lirikasi erli ayollarga emas, koʻproq qizlarga qaratilgan. Ularning sheʼrlarida sevgi iztiroblari koʻpincha ayollarning qismati boʻlib qoladi. Ditmar fon Aystning «Ayol qoʻshigʻi» dagi ayol uchib ketayotgan lochinni koʻrib qoladi. Unga qarab: «Sen baxtlisan, hoxlagan tomoninga uchib borasan, istagan daraxtinga qoʻnasan. Men ham shunday qildim. Koʻnglimdagi yorimni topdim. Biroq ayollar rashk qilib azob chekmoqdalar», deydi. Koʻp sheʼrlar xalq qoʻshiqlari singari tabiat manzarasini tasvirlash (bahor yoki kuz kelishi) bilan boshlanadi va qahramonlar ruhiy xolatlariga mos keladi.

Ikkinchi oqim vakillari ijodi shaklning ancha murakkabligi ritsarʼ urf-odatlarining kiritilishi bilan izohlanadi. endi tabiat tasviri, dramatik situatsiya koʻrinmaydi. Visolga eta olmaslik iztiroblari boʻrttirib bayon etiladi.

Valʼter fon Fogelʼveyde (taxminan 1160-1230 yillar) – oʻrta asr nemis lirikasining asosiy oqimlarini oʻz ijodida birlashtirgan shoirdir. Uning qahramoni oliy tabaqadan chiqqan ayol emas, oshiqning iltijolariga samimiy javob beruvchi kamtar qizdir. U xalq poeziyasidagi tabiat tasviridan foydalanadi.

Bavariyalik shoir Neydxart fon Reyental (taxminan 1180-1240 yillar). U ham «oddiy», «real sevgini» tasvirlash tarafdori, ammo uni maishiy naturalizm ruhida rivojlantirgan (Feodal-aristokrat nuqtai nazaridan krestyan qoʻshiq va laparlarini parodiyaga oladi).

Shoir Volfram fon eshenbarx (taxminan 1170-1220 yillar) – oʻrta arsdagi nemis sevgi lirikasini yanada boyitdi. Uning alʼba (tong qoʻshiq) lari juda ham goʻzal.

Bulutlarning quyuq jomasin
Tirnoqlari bilan yorgancha,
Tong adirlar ortidan vazmin
Qudrati-la ko`kka o`rlaydi.
Huzurimga o`zim chorlagan
Kimsaning shod daqiqalarin
Uzaytirmas endi tong ortiq.

(A.Oripov tarjimasi)

XIII asrning ikkinchi yarmida minnezangda tushkunlik boshlandi.

Ritsarlik romani. Ritsarlik lirikasi kabi ritsarlik ham Frantsiyada vujudga kelib, keyin boshqa erlarga tarqaldi. Ritsarlik lirikasida bo`lgani kabi romanda ham sevgi, turmush quvonchlari asosiy mavzu edi. Sevgi ko`tarinki ruhda, fantastik bo`yoqlarda aks ettirilgan. SHuningdek, qahramonlar psixologik kechinmalarini tasvirlashga ham katta e`tibor berilgan. Ritsar` xonimga bo`lgan sevgisi tufayli jangovar sarguzashtlarga (aventyura) o`tlanadi, lekin endi ritsar` vatan manfaatlarini emas, balki o`z shaxsiy manfaatlarini ko`zlab safarga chiqadi.

Ritsar` romanlari syujetlariga ko`ra 3 ta asosiy turkumga bo`linadi: antik, breton va vizantiya turkumlari. Dastlabki ritsarlik romanlari yartilgani uchun antik adabiyot asarlari qayta ishlangan. Ana shunday asarlardan biri «Aleksandr haqida roman»dir.

Aleksandr Makedonskiy ham o`z yurishlari davrida ritsarga xos sarguzashtlarni boshidan kechiradi. Lekin bu asar tom ma`noda ritsar` romani bo`la olmaydi, chunki unda muhabbat mavzusi va xonimga ritsarcha xizmat etish aks ettirilmagan edi.

Roman Aleksandr Makedonskiyning hayoti va qahramonliklari haqida hikoya qilinadi. XII asr oxirlarida paydo bo`lgan bu romanning mualliflari Lamber Le Tor (Lambert Le Tort) va Aleksandr de Berne (parijlik) (Alexandre de Raris) lardir. Bu roman yozilgan she`riy o`lchov keyinchalik asar nomi bilan aleksandr vazni deb atala boshlandi.

Antik turkumga kiruvchi romanlardan yana biri «Eney haqida roman» (Roman d`Eneas» XII asr) hisoblanadi. Noma`lum avtor Vergiliyning «Eneida» dostonining sevgi va romantik lahzalarini tasvirlagan.

Breton turkumidagi romanlarda esa V yoki VI asrlarda yashagan qirol Artur asosiy qahramon hisoblanadi. Kurtuaz shoirlari kel`t din arbobi Gol`frid Momutskiyning «Britaniya qirollari» kitobi syujetlarini qayta ishlaydilar. Qirol Artur saroyi ritsarlar olamining markaziga, qirolning o`zi ritsarlarning barcha ishlarida odil xakam bo`lib gavdalanadi. Artur saroyida 12 ta mashhur ritsar` bo`lib, ularni «yumaloq stol» ritsarlari deb atalgan. Bu stol atrofida gilarlarning barchasi barobar mavqega ega bo`lgan. Keyinchalik Qirol Artur haqidagi voqealarga boshqa voqealar ham qo`shiladi.

Shundaylardan biri «Tristan va Izol`da» haqidagi romanlardir. Kel`t rivoyatlari asosida yaratilgan Tristan va Izol`da haqidagi syujet XII asr o`rtalarida juda ko`p arablar tomonidan ishlangan. Ammo bizga etib kelmagan. Bizgacha etib kelgan parchalar, syujetlar, tarjimalarni jamlash orqali XII asr o`rtalaridagi frantsuz romanining fabulasini tiklash mumkin bo`ladi.

Ritsar-kurtuaz adabiyotining etakchi janri roman hisoblanib, uning manbalari quyidagicha ko`rsatiladi: 1. Antik turkum. – “Aleksandr haqida roman”, “Eney haqida roman”, “Troya haqida roman”. 2. Breton turkumi. Uning tarkibiga kiruvchi romanlar asosa buyuk qirol Artur haqida bo`lib, ular “Yumaloq stol romanlari” nomi bilan ham yuritiladi. U ritsarlar o`zini teng his qilishlari uchun yumaloq stol yasatgan edi. Buyuk qirol Artur qahramonligi haqidagi roman ustasi sifatida Kret`en de Trua (XII asr) keng shuhrat qozongandir. 1175 yilda yaratilgan “Ivan yoki Yulbars ritsar” romani shu turdagi romanlar uchun xos bo`lgan xususiyatlarni juda yorqin ifodalaydi.

Tayanch soʻz va iboralar:

Oʻrta asrlar adabiyoti va uning rivojlanishi bosqichlari. Oʻrta asrlar adabiyotining davrlashtirilishi. Diniy – klerikal adabiyot. Xalqchil ruhdagi adabiyot. “Roland haqida qoʻshiq”. “Sid haqida qoʻshiq”. “Nibelunglar haqida qoʻshiq”. Ritsar’ – kurtuaz adabiyoti. “YUmaloq stol” romanlari.

Savol va topshiriqlar:

1. Oʻrta asrlar adabiyotidagi uch yoʻnalish haqida soʻzlang.
2. Oʻrta asrlar adabiyotining qanday etakchi xususiyatlarini bilasizq
3. Ritsar’ – kurtuaz adabiyotining janrlari haqida gapiring.
4. Oʻrta asrlar ritsarlik romanining qanday manbalarini bilasizq.
5. Oʻrta asrlar Evropa qahramonlik eposlarining ahamiyatini gapiring.

Adabiyotlar:

1. Chet el adabiyoti tarixi. Namunaviy va Ishchi dasturlar, - T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2004
2. Alimuhammedov A. Antik adabiyot tarixi. T., Oʻqituvchi, 1976.
3. Komilov N. Tafakkur karvonlari. T., Maʼnaviyat 1997.
4. Oybek. Mukammal asarlar toʻplami 20 tomlik, XV tom.

II semestr

Mavzu: Italiyada uygʻonish adabiyoti

Reja:

1. Italiya – Gʻarb uygʻonishining ilk vatani.
2. Dante Aligʻeri va Oʻrta asrlardan Renessansga oʻtish.
3. Franchesko Petrarka lirikasida dunyoviy sevgi tarannumi.
4. Jovanni Bokkaechoning «Dekameron» asari va uning gumanistik ruhi.
5. Italiya uygʻonish davri adabiyotining tarixiy ahamiyati.

XIV asrning 2-choragidan dastlab Italiyada kapitalistik munosabatlarning kurtaklari koʻzga tashlana boshlaydi. Ayni shu davrdan uning mafkurasi sifatida Renessans harakati ham yuzaga keladi. “Renessans” frantsuzcha soʻz boʻlib, “uygʻonish” degan maʼnoni bildiradi. Bu harakat feodalizm tuzumi va katolik cherkoviga muxolifatda boʻlib, ular bilan gʻoyaviy kurash jarayonida rivojlandi. Renessans Evropaning boshqa mamlakatlarida XV asrning oʻrtalarida yuzaga keldi va XVII asrga qadar davom etdi. Bu harakat shaxs erki, uning ozodligini bosh maqsad qilib olgani, sababli uning vakillari oʻzlarini gumanistlar deb atadilar. Maʼlumki, lotincha, “gumanist”- soʻzi “insoniy” degan maʼnoni ifodalaydi. Shu tariqa Renessansning ilk vatani Italiya, uning ilk shoiri esa Dante Aligʻeri boʻldi. Dante Aligʻeri ijodi bilan Oʻrta asrlar adabiyoti yakunlanadi va Renessans adabiyoti boshlanadi.

Yodda tuting! Evropa Uygʻonish adabiyoti quyidagi davrlarga boʻlinadi:

XIV-asr-birinchi davri.

XV-asr-ikkinchi (gumanizmning gullab yashnagan davri.)

XVI-asr-Renessanning soʻnish davri.

Italiya Uygʻonish davri adabiyotini oʻrganish Florentsiyalik mashhur adib Dant’e Aligʻeri (1265-1321) ijodidan boshlandi. U ikki katta davr oraliqida yashab ijod qildi. «... U oʻrta asrning eng oxirgi va shu bilan birga yangi zamonning eng avvalgi shoiri edi».

Dante XIII-XIV asrlarda Italiyaning asosiy madaniy markazi boʻlgan Florentsiyada tugʻildi. U poeziyaga erta berilib, lirik sheʼrlarini Provans shoirlarining Italiyadagi izdoshlari taʼsirida yaratdi.

Shoirning sevgilisi Beatrichega bagʻishlangan sheʼriy toʻplami «Yangi hayot» deb ataladi (1283-1292) va 30 ta sheʼrni oʻz ichiga oladi. Sheʼrlar xronologik tartibda joylashgan. Sheʼrlarning mazmuni nasriy xikoyalar, falsafiy izohlar bilan sharhlanadi.

Shoir 9 yoshga kirganda oʻziga tengdosh Beatricheni uchratadi va uni sevib qoladi. Toʻqqiz yildan soʻng ular yana uchrashadilar. Qizning ochiq chehra bilan taʼzim qilishi shoirni hayajonga soladi. Oʻsha kuni shoir tush koʻradi va bu tushni birinchi sonetida tasvirlaydi. Beatrice obrazi shoirni doimo ilhomlantiradi. «Yangi xayot» Gʻarbiy Evropa adabiyotidagi birinchi avtobiografik qissa hisoblanadi. Bunda Dante sevgan qalbnining nozik ruhiy kechilmalarini ustalik bilan tahlil qila olgan.

Dante Beatriche vafotidan so'ng ilmiy-falsafiy masalalar bilan shug'ullanadi. 1307-1308 yillari o'zining mashhur «Ziyorat» traktatini yaratadi. 1305 yil roman tilshunosligi bo'yicha dastlabki tadqiqot - «Xalq nutqi haqida» degan risolani yozadi.

«Iloxiy komediya» – Dantenin dunyoga mashxur qilgan asari. U o'z asarini «Komediya» deb atagan. O'rta asrlarda qayg'u, g'am bilan boshlanuvchi va yaxshilik, xursandchilik bilan yakunlovchi har qanday asarni «Komediya» deb atashgan. Asar o'rta asr diniy-cherkov adabiyoti ta'siridan ham xoli emas, (allegoriya) simbolika. Asarda uchraydigan 9 raqami (9 kun, 9-osmon) shoir hayotidagi muhim voqealar bilan bog'liqdir.

Asarga yozuvchi vafotidan so'ng Bokachcho tomonidan «Ilohiy» so'zi qo'shilgan (Badiiy jihatdan yuksak degan ma'noda).

Dante Alig'eri (1265 – 1321 yillar) ijodiy merosi ikki guruhga bo'lib tasniflanadi: 1. Siyosiy – falsafiy asarlar. 2. Adabiy – badiiy asarlar. Uning siyosiy-falsafiy asarlari “Xalq nutqi haqida” (1305 yil), “Ziyofat” (1308 yil), “Monarxiya” (1313 yil) traktatlaridan iboratdir. Dante Alig'eri adabiy-badiiy asarlari esa “YAngi hayot” to'plami hamda “Ilohiy komediya” dostonlaridan tashkil topadi. Bizni muallifning badiiy asarlari qiziqtirgani bois, quyida ularni alohida-alohida olib tahlil etamiz.

“Yangi hayot” to'plami Dante Alig'eri tomonidan 1292 yoki 1293 yillarda yaratilgan, deb taxmin qilinadi. Kitobning asosini shoirning 1283 – 1291 yillar lirikasidan saralab olingan she'rlar tashkil etadi. Bular 25 ta sonet, 3 ta kantsona, 1 ta ballada va 2 ta fragmentdir. Asarning she'riy o'zagi nasriy bo'laklar bilan bir-biriga chambarchas bog'langan. Nasriy matn asosan she'rlarning yozilish sabablarini izohlaydi, ular o'rtasidagi mantiqiy bog'liqlikni dalillaydi; shuningdek, uning o'z hayotida ro'y bergan voqealar tadrijiyligini ko'rsatib beradi. “YAngi hayot” to'plami muqaddima va xotimadan tashqari to'rt qismdan iborat. Bu asar Dante Alig'erining Beatriche Portinariga bo'lgan sevgisi kechinmalariga bag'ishlanadi. Beatriche Portinari Simon dei Bardining javzasi bo'lib, 1290 – yilda 25 yoshida dafatan vafot etadi. Mana shu bilan bog'liq tarzda lirik sub'ektning ishqiy kechinmalari ham ikki xil xarakter kasb etadi. Beatriche hali hayotligi chog'ida uni bashariy xilqat sifatida idrok etgan shoir uning vafotidan so'ng esa ilohiy xilqat sifatida ulug'laydi. 4 – qismda “Yangi hayot”ning asosiy poetik obrazlari – Shoir va Beatriche qatoriga Iztirobli xonim obrazi ham qo'shiladi. SHoir va bu ayol o'rtasida dastlab xayrixohlik ko'rinishida yuzaga kelgan munosabatlar sekin-asta sevgiga o'sib chiqadi. Iztirobli xonim siymosida Beatrichega bo'lgan sevgini tushungan muallif keyinchalik bu boshqa sevgi ekanligini anglab etadi. Biroq ko'ngil talpinishlariga aql barqarorligi qarama-qarshi chiqadi va oxir-oqibat uning Beatriche xotirasini saqlashdan iborat talabi g'olib chiqadi. Asar sarlavhasi to'plamning bosh g'oyasini o'zida muxtasar ifodalaydi, uni aslo tor, shaxsiy ma'noda tushunmaslik kerak. CHunki bu davrda butun G'arb dunyosi ijtimoiy taraqqiyotda yangi yo'llarni qidirayotgan edi. O'z ijtimoiy qarashlari markaziga insonni, uning manfaatlarini qo'ygan Dante Alig'eri shu asno jamiyat va insonni bir-biri bilan aloqadorlikda o'rganadi. SHoirning “Ilohiy komediya” asarini esa haqli ravishda O'rta asrlarning badiiy qomusi deb atash mumkin. Aslida Dante Alig'eri o'z asarini “Komediya” deb atagan. CHunki bu davrlarda fojia bilan tugovchi asarlarning barchasini tragediya deb yuritishgani kabi xayrli yakunlanuvchi har qanday asarlarga nisbatan komediya atamasi ham qo'llanavergan. Unga ilohiy sifatlashi keyinchalik qo'shilgan bo'lib, bunga uning ilohiy mavzuda yozilganidan ko'ra ham juda yuksak badiiy mahorat bilan yaratilgani ko'proq sabab bo'lgan. “Ilohiy komediya” asarida oxirat dunyosi manzaralari chiziladi. Bunda muallif ungacha qalam tebratgan salaflar – Homer va Vergiliy tajribalaridan foydalanadi. “Ilohiy komediya” bizni eng avvalo uning mukammal kompozitsiyasi bilan hayratga soladi. Butun asar qurilishi xristianlik simbolikasida markaziy o'rin tutgan muqaddas uchlikka muvofiq uch raqami va uning o'ziga ko'paytmasi 9 raqami asosiga quriladi. “Ilohiy komediya” 3 qismdan iborat bo'lib, bular “Do'xaz”, “Atrof” va “Jannat”dir. Asarning har bir qismi 33 qo'shiqdan tarkib topgan. Unga yana bir qo'shiq – muqaddima ham qo'shiladi va va qo'shiqlar soni 100taga etadi. “Ilohiy komediya” matni trtsina, ya'ni uchlik bandleridan tashkil topgan. Dante Alig'erining bu shoh asarida uning siyosiy va axloqiy kontseptsiyasi o'z ifodasini topgan. SHu sababli undagi barcha obrazlarni majoz sifatida talqin qilish va ularni siyosiy va axloqiy aspektda olib tahlil etish zarur. Asar markazida turuvchi asosiy obrazlar ham uchta bo'lib, bular Dante, Vergiliy va Beatrichelardir. Ular o'zlarida Insoniyat, Dunyoviy Aql va Ilohiy Aql kabi tushunchalarni ifodalaydi. “Ilohiy komediya” syujeti

qop-qorong'u o'rmonda adashgan SHoirning tepalik tomon yurishi va uning oldidan 3 ta hayvon: epchil bars, yo'lbars va bo'ri to'sib chiqishi bilan boshlanadi. Dante Alig'erining badiiy falsafasiga ko'ra tepalik ham, unda makon tutgan uch hayvon ham siyosiy va axloqiy ravishda o'ziga xos ma'noga egadir. CHorasiz yana qop-qorong'u vodiya qaytgan shoir bu erda Vergiliyning ko'radi va unga hozircha yangi yo'l tanlashi zarurligini bildiradi. Bu aylanma yo'l bo'lib, u Do'zax, A'rof hamda Jannatdan o'tadi. Do'zax va A'rofnı Verigiliy rahnamoligida bosib o'tgan Dante Jannat qopqasi oldida Beatrichega ro'baro' keladi. Ayni choqda Vergiliy ko'zdan g'oyib bo'ladi. Chunki xristianlik e'tiqodiga ko'ra ma'jusiy bo'lgan Vergiliyning jannatga kirishi ta'qiqlangan edi. SHoir oxirat dunyosining bu uch makonini tasvirlar ekan, ayniqsa Do'zax tasvirida yuksak mahorat namoyon etadi. Bir so'z bilan aytganda, Dante Alig'eri "Ilohiy komediya"da o'z zamonasining ruhiy hayotini to'la va o'sha zamon xalqlariga muvofiq ravishda aks ettiradi, uning nuqsonlarini ayamay fosh etadi.

Franchesko Petrarka (1304-1374) yirik olim notiq va shoir. U butun hayoti davomida qadimiy (antik) adabiyot yodgorliklarini o'rgandi.

Tsitseronning xatlari va 2 ta ma'ruzasini topdi. Qadimiy avtorlardan TSitseronni «o'z otam» asar Vergiliyning o'z og'am deb atadi. YUnon tili bilan shug'ullanadi. Agar Dante o'z asarlarini ital'yan tilida yozgan bo'lsa, Petrarka asosan lotin tilida ijod qildi. CHunki lotinni u asosiy adabiy til hisoblar edi. Petrarkaning lotin tilida yozgan asarlarini 2 guruhga: Poetik va ahloqiy-falsafiy asarlarga bo'lish mumkin. Lotin tilida yozilgan «Afrika» dostoni (1338-1342) Rim yozuvchisi Vergiliyning «Eneida» dostoniga taqlid qilish asosida dunyoga kelgan. 9 qo'shiqdan iborat ushbu asar tugallanmagan. Dostonda Afrikani zabt etgan Rim milliy qahramoni Stsipionning g'alabalari tasvirlanadi.

Petrarkaning «Mashhur kishilar haqida», «Unitilmaydigan narsalar haqida» nomli tarixiy asarlari ham bor. Birinchi kitobda Rimning mashhur kishilari (Aleksandr Makedonskiy, Gannibal') biografiyasi tasvirlanadi. Ikkinchisida ilgari yashagan avtorlarning asarlaridan parchalar, misollar va hikmatli so'zlar keltirilgan.

Petrarka uchun ital'yan tilida yozilgan asarlari unchalik katta ahamiyat kasb etmagan bo'lsada, u keyinchalik ital'yan tilidagi she'rlari bilan shuhrat qozondi. SHoir nafaqat Italiya adabiyotida balki butun Evropa she'riyatida o'ziga xos yangi yo'l, uslub yaratadi.

Provans, ital'yan shoirlari va Dant'e singari u ham sevgi lirikasi bilan shug'ullanadi. Petrarka o'z sevgilisini Laura deb ataydi. U haqida faqatgina 1327 yil 6 aprelda uchratib qolganini va oradan yigirma yil o'tgandan so'ng Laura vafot etishiganini ma'lum qiladi xolos. Unga bag'ishlangan she'rlarini «Kantson'eri» («Qo'shiqlar kitobi») deb ataydi.

Keyinchalik «Madonna Lauraning hayoti» va «Madonna Lauraning vafoti» degan ikki qismga bo'lgan. To'plamda 317 sonet va yigirma to'qqiz kantson (she'r) bor.

Masalan, shoirning SHukur Qurbon tomonidan tarjima qilingan «Madonn Laura hayoti»ga bag'ishlangan quyidagi sonetini keltirish mumkin:

O, bu bol takallum, o, qarash qiyg'och,
Kurgummi sizni bot, eshitgummi botq
Kuyida xuniga cho'mgan Muhabbat,
Taqqidiridan rozi o bu sumbul soch!
O, bu, ajib chehra, qahri boshda toj,
Zormanu ko'rgani, cho'chirman, hayhot!
O, bu ishq choyshabi va'da qilgan tot!
YOtsam yondiradir, hohlasang-da, qoch!
Navozish va sehru jodu ko'rsatib,
Qiyo boqur ahyon-ahyonda bir-bir,

Ma`no qorishadir bor hayotimga
Va shu on hasad-la olay, deb tortib –
Shu zarra haqqim bor, fortuna-taqdir
Bemon g`animday shoshar oldimga

Sevgi mavzusidan tashqari siyosiy falsafiy mavzularda ham she`rlar bor. Ko`pchilik Petrarka biograflari Laurani to`qima obraz deb ta`kidlaydilar.

Laura haqida quyidagi ma`lumotlarni keltirish mumkin xolos: Laura 1307 yilda tug`ilgan, 1325 yilda dvoryanin Poganga turmushga chiqqan va 11 farzandning onasi bo`lgan. 1348 yilda o`lat kasalidan vafot etgan.

Lauraga bag`ishlangan birinchi she`r 1330 yilda yozilgan. SHoir Dante ta`siri ostida o`z sevganini sahovatli, borliqqa ijobiy ta`sir etuvchi qilib ko`rsatsa ham, go`zallikni sahovat bilan teng deb bilmaydi. Uning sevgilisi Lauraning xususiyatlari real. Laura oshiqqa beilifot ayoldir. SHuning uchun shoirni sevgisi hayoliy bo`lib qoladi. Asarda shoir qalbidagi ikki xil sevgi - yuksak ruhiy muhabbat bilan real xissiy muhabbat o`rtasidagi qarama-qarshilik o`z ifodasini topadi. To`plam oxirida Petrarka Bibi Maryamdan «gunoh»lari uchun kechirim so`raydi.

Petrarka lirikasining ahamiyati katta bo`lib, u Italiya lirikasini mistika, allegorizmlardan tozaladi. Petrarkada ishqiy lirika ilk bor real dunyo extirolarni kuylashga yo`naltirildi.

Franchesko Petrarka (1304 – 1374 yillar) asarlarida ham Renessans g`oyalari juda yuksak badiiy shakllarda kuylanadi. Uning bosh asari sifatida “Kantson`ere”, ya`ni “qo`shiqlar kitobi”ni qayd etish zarur. Dante Alig`erining “YAngi hayot” asari kabi u ham sevgi mavzuiga bag`ishlangandir. SHoir 1327 yilda Avliyo Klara ibodatxonasida yosh va go`zal bir juvonnini uchratib uni sevib qoladi. U 1346 yilda vafot etsa-da muallif unga bag`ishlab she`rlar yozishdan to`xtamaydi. Petrarka bu ayolni o`z she`rlarida Laura nomi bilan yuritadi. Keyinchalik asar ikki qismga bo`linadi, ulardan dastlabkisi “Madonna Lauraning hayoti”, keyingisi esa “Madonna Lauraning vafoti” deb ataladi. Kitob “Kantson`ere” deb nomlangan bo`lsa-da, unda kantsonalardan ko`ra sonetlar ko`proqdir. To`plamga kirgan sonetlar soni 317 tani tashkil etgani holda kantsonalar soni esa 29 tadan ortmaydi. “Kantson`ere”ning lirik syujeti shoirning ko`tarinki ruhiy muhabbat bilan real hissiy muhabbat o`rtasidagi konflikt asosiga qurilgandir. Asarda sevgi mavzuidan tashqari siyosiy va falsafiy mazmundagi she`rlar ham uchraydi. Masalan, “Mening Vatanim”, “Oliy ruh” kabi she`rlarda vatanparvarlik g`oyalari bilan birga papa hokimiyati nuqsonlari, ma`naviy buzg`unchiliklar fosh etiladi. Petrarkaning lotin tilida yozilgan “Afrika” dostoni (1336 – 1342 yillar) esa Vergiliyning “Eneida” dostoni ta`sirida yaratilgandir. SHoir tugallanmagan bu asarida Afrikani zabt etgan Rim milliy qahramoni Stsipion g`alabalarini madh etadi. Rim tarixchisi Tit Liviydan olingan material asar syujeti uchun manba bo`lib xizmat qilgan.

Djovani Bokkachcho (1313-1375) Uyg`onish davrining etuk olimi va adibidir. Bokkachcho Florentsiyalik savdogar va frantsuz ayolining nikohsiz farzandi bo`lib, Parijda tug`ilgan. Onasi vafotidan so`ng Florentsiya va Neapolda o`sib ulg`aydi.

1338 yili «Filokolo» romani yaratildi. 1339 yilda esa antik syujetga asoslangan «Tezeida» dostoni yozib tugallandi. 1348 yilda Evropa adabiyotidagi ilk psixologik asarlardan bo`lgan prozada yozilgan «F`yametta» qissasini tugatdi. YOzuvchi unda sevgilisi tashlab ketgan ma`shuqani xis-tuyg`u va ruhiy azoblarini ustalik bilan tasvirlaydi.

«**Dekameron**» (1352-1354). Xalq og`zaki ijodining eng yaxshi namunalari va antik adabiy meroslarini o`rganish, ulardan ijodiy foydalanish natijasida Bokkachcho novella janrini yangi, yuqori bosqichga ko`tardi.

U novella janriga yangi, gumanistik mazmun, realistik xarakter kiritishi bilan, uni «tuban» janrdan «yuqori» janrlar qatoriga ko`tardi. YOzuvchi hikoyalarning maqsadi o`quvchining ovutish va qiziqtirishgina bo`lmay, balki kishilarga yangi ong, madaniyat va go`zallik idealini singdirishdan iborat bo`lmog`i ham kerak, deb biladi.

1348 yili Florentsiyada o`lat kasali tarqalib, epidemiya sog` qolgan kishilarni xulq-atvoriga

ham ta'sir etmay qolmadi. O'rta asr diniy urf-odatlar, narigi dunyo azoblari haqida uydirmalar yanada avjiga chiqdi. SHunday og'ir sharoitda Bokachcho «Dekameron» asarini yaratdi.

Asarda 100 ta novella bor. Novellalarning biri ikkinchisiga maxsus ulovchi hikoyalar vositasida bog'lanadi. Asar o'lat kasali tarqalishini tasvirlashdan boshlangan. Florentsiyalik yigit va qizlar (7 ta qiz va 3 ta yigit) shahardan chiqib ketib, bog'i eramga borishib, o'lat va vahimani aql-idrok bilan engishga intiladilar. («Dekameron» - yunon tilidan o'n kunlik degan ma'noni anglatadi). 10 kunda 100 novella eshitiladi. Har kungi o'tirishni boshqarish uchun qirol yoki qirolicha saylanadi.

Chin sevgini kuylash, feodal-dvoryan tabaqalari urf-odatlarini qoralash, ko'plab ruhoniylarni buzg'unchiliklarini ochib tashlash, oddiy kishilarni xarakterini ma'qullash novellalarning asosiy mavzusidir. Novellalarda ishq-muhabbat mavzusi katta o'rin egallaydi. Masalan, beshinchi kunning, 1-novellasida sevgining ijodkor, ilohiy kuchi haqida hikoya qilinadi. Novellaning syujeti quyidagicha: Kipr orolida Aristipp degan kishi yashagan. Uning o'g'illaridan biri Golezo baland bo'yli qomati kelishgan, ammo tentaksimon yigit bo'ladi. Mullimlarning nasihatlar ham, otasining kaltaklari ham unga ta'sir qilmaydi. Kishilar uni CHimone («hayvon») deb ataydilar. U otasining buyrug'i bilan qishloqdagi xizmatkorlar orasida yashaydi. Bahor kunlarining birida CHimone chashma yonida uxlab yotgan efigoniyaning ismli qizni ko'rib, unga maftun bo'lib qoladi. U otasi oldiga borib, unga ham akalari kabi kiyim qilib berishini so'raydi. Visolga erishish istagi tez orada uni savodli va odobli yigit bo'lishga majbur etadi. Musiqa va ashula, harbiy mashqlarni o'rganadi va nihoyat efigoniyaning visoliga etishadi.

Muhabbat - insonlarni hayvoniy dag'allikdan holi qiluvchi, g'aflat uyg'usi bosayotgan aqlarni hushyor etuvchi kuch ekanligini tasvirlash Uyg'onish davrini asosiy belgisidir.

Asardagi asosiy g'oyalar antiklerikal yo'nalishdadir, ya'ni eski diniy urf-odatlardan erkin muhabbat ustun chiqadi. 6 kunning 10-novellasida cherkovdan chiqqan Chipollaning kirdikorlari fosh qilinadi. CHipolla odamlarni laqillatib yuradi. Bir kuni u dehqonlarga farishtaning patlarini ko'rsatmoqchi bo'ladi. Ikki masxaraboz, qutidagi to'tining patlarini olib, o'rniga ko'mir solib qo'yadi. CHipolla xalqqa patni ko'rsatmoqchi bo'ladi ammo qutidan ko'mir chiqadi, lekin u o'zini yo'qotmaydi, bu avliyo Lavrentiy kuydirilganidan so'ng qolgan, «ko'miri» deb, odamlarning kiyimlariga xoj solib, ularni laqillatib, yanada ko'proq sadaqa yig'ib oladi.

Bokachcho kichik xajmdagi xikoyalari orqali o'sha davr hayotining turli manzaralarini realistlik aks ettirishi bilan qadrlidir. U novellalar tiliga katta e'tibor bergan bo'lib, ular qisqa va yorqin obrazlidir. XIV, XV, XVI asr Italiya novellistlari Bokachcho asarlarining tilidan o'rganadilar.

Jovanni Bokkachcho (1313 – 1375 yillar) Dante va Petrarkalarni o'z ustozlari deb bilardi. U garchi Dante va Petrarka darajasida shon-shuhrat topolmagan bo'lsa-da, novella janrini shakllantirgan adib sifatida tarixga kirdi. Xuddi shu orqali Bokkachcho ijodida Italiyan uyg'onishining birinchi, demokratik davri uning chuqur xalqona ildizlari bilan bevosita va to'la aks etdi. Bokkachchoning g'oyaviy va ijodiy taraqqiyotini uning ilk roman va dostonlarisiz anglab olish mumkin emas. Bular «Filakolo» (1338), «Filostrato» (1338), «Tezeida» (1339), «Ameto» (1341), «F'ezalon parilari» (1345 – 1346), «F'yametta» (1348) asarlaridir. Bu asarlar Jovanni Bokkachchoning shoh asari bo'lgan «Dekameron» novellalar to'plami (1352 – 1354)ni nafaqat g'oyaviy mazmun, balki badiiy shakl jihatidan ham tayyorladi. Masalan, Bokkachcho «Filakolo»dayoq kiritma hikoyalar usuliga murojaat qilgandi. «Dekameron» Yunoncha 10 kunlik degan ma'noni bildirib, adib darhaqiqat 10 kunlik voqealarni qalamga oladi. Asar tarixiy asosga ega bo'lib, 1348 yilda Florentsiyada dahshatli o'lat kasali tarqaladi. Juda ko'p kishilar yostig'ini quritgan bu ofat kishilar ruhiyatiga ham ta'sir o'tkazmay qolmaydi. O'rta asr diniy urf-odatlar, narigi dunyo azoblari haqidagi tasavvurlar yana avjiga chiqadi. Shunday vaziyatda Bokkachcho yangi fikrlarni targ'ib qiladigan kitob yaratishni mo'ljallaydi va «Dekameron» timsolida bu ijodiy niyatini amalga oshiradi. Asar syujeti o'latning tarqalishi ekspozitsiya bilan boshlanadi. Mana shunday bir sharoitda 7 nafar yosh qiz va 3 nafar yigit Florentsiya yaqinidagi eram bog'iga chiqib ketadilar. Ular har kuni o'z ichlaridan bir kishini qirol yoki qirolicha qilib saylab o'z vaqtlarini xushchaqchqlik bilan o'tkazadilar. Bir kunda o'n kishi o'nta hikoya aytadi va bu erda o'tkazilgan 10 kun mobaynida ular soni 100 taga etadi. Bu hikoyalar novellalar shaklida qoliplovchi hikoya ichiga kiritilib, Apuleyning «Metamorfozalar» romani tipidagi asar yuzaga keladi. N.Komilovning «Tafakkur

karvonlari” asarida bu novellalardan 87 tasi syujetining Sharqona ildizlari haqida ma’lumot beriladi. Bokkachcho bu asarga kirgan novellalarda Renessans ruhiga mos tarzda real hayotdan zavqlanish g’oyasini ilgari suradi.

Renessans harakati dastlab Italiyada kurtak yoygani kabi Renessans adabiyoti ham dastlab Italiyada yuzaga keldi va shakllandi. Uning boshqa Evropa xalqlari Renessans adabiyotiga ta’sirini boshqa biror bir adabiyot bilan qiyoslab bo’lmaydi.

Tayanch soʻz va iboralar:

Renessans harakati. Renessans adabiyoti.

“Yangi hayot” (Dante Alig’eri). “Ilohiy komediya” (Dante Alig’eri).

“Kantson’ere” (F.Petrarka). J.Bokkachcho novellistikasi.

Savol va topshiriqlar:

1. Italiya Uyg’onish harakatining ilk vatani deb atalishiga sabab nimaq
2. “Ilohiy komediya”da Dante Alig’erining inson kontseptsiyasi haqida gapiring.
3. F.Petrarkaning “Kantson’ere” she’rlar majmuasida ijtimoiy-siyosiy mavzu haqida so’zlang.
4. “Dekameron” novellalar to’plamida J.Bokkachcho gumanizmi haqida gapiring.

Adabiyotlar:

1. Chet el adabiyoti tarixi. Namunaviy va Ishchi dasturlar, - T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2004
2. Alimuhammedov A. Antik adabiyot tarixi. T., “O’qituvchi”, 1976.
3. Qayumov O. Chet el adabiyoti tarixi. T., 1979.
4. Alig’eri D. Ilohiy komediya. T., 1975.
5. Bokkachcho J. Dekameron. T., 1978.

Mavzu: Angliyada uyg’onish adabiyoti

Reja:

1. XV-XVI asrlarda Angliya jamiyati. Ingliz gumanistik adabiyotining 3 bosqichi.
2. Uil’yam Shekspir o’tmishdoshlari haqida.
3. Uil’yam Shekspir lirikasi va dostonlari.
4. Renessans g’oyalarning ifodalanishi.
5. Angliya uyg’onish davri adabiyotining tarixiy ahamiyati.

XV-XVI asrlarda Evropa mamlakatlarida o’rta asr feodalizmidan kapitalizmga o’tish davri bo’ldi. Bu davr Uyg’onish yoki Renesans nomini oldi. Shaharlarning rivojlanishi, manfakturalarning paydo bo’lishi, keng savdo munosabatlarini o’rnatilishi natijasida o’rta asr feodal tartiblari inqirozga uchradi.

Bu davr buyuk geografik kashfiyotlarning ochilishi davri bo’lib tarixga kirdi (Amerikaning ochilishi, Xindistonga savdo yo’lining ochilishi). Bu davrda yangi milliy davlatlar paydo bo’ldi. Ilm-fan, san’at, madaniyat, adabiyot beqiyos darajada rivojlandi. Aql-idrokka, o’z kuchiga, yaxshilikka ishonch Uyg’onish davri odamlariga xos fazilatdir.

Angliyaning o’sha davr falsafiy qarashlari Frensis Bekon ta’limotida o’z aksini topdi (F.Bekon ingliz materializmning otasi 1561-1625).

Angliyada Uyg’onish davri Italiya, Frantsiya, Ispaniyadan kechroq boshlandi. XV-XVI asrlarda Angliyada qirol hokimiyati dvoryanlar qarshiligini sindirdi. Hokimiyatga intilgan juda ko’p feodal baronlar o’zaro urushlarda halok bo’ldilar.

Tyudorlar sulolasidan bo’lgan Genrix VII va Genrix VIII lar davrida mutloq xokimiyat kuchaydi. Genrix VIII ning islohatlari natijasida ko’plab monastirlar yo’qotildi. Mamlakat Rim papasiga tobelikdan qutuldi va qirolning o’zi ingliz cherkovini boshqara boshladi. Uil’yam Tindal «Injil» ingliz tiliga tarjima qildi. Mamlakatni qirolicha Elizaveta (1558-1603) boshqargan yillarda Angliya iqtisodiyati tez sur’atlar bilan rivojlandi. 1588 yili ispanlarning Buyuk armadasi tor-mor qilgan Angliya uchun dengiz yo’llarining barcha osonlik bilan ochila boshladi. Ko’plab dehqonlar o’z erlaridan mahrum bo’ldilar. (Jun sotish bu paytda katta foyda keltirar edi).

Angliyada Uyg’onish harakati Evropaning boshqa mamlakatlariga nisbatan bir muncha keyin, ya’ni XV asrning oxiri va XVI asrning boshlarida paydo bo’ldi. Bu davr Angliya gumanistlari

o'z g'oyalarini targ'ib qilishda eng avvalo san'at va adabiyotdan foydalandilar. Angliya Renessans adabiyotining tadrijiy taraqqiyot bosqichlari quyidagicha belgilanadi: 1-bosqich – XV asrning oxiri va XVI asrning 60-70 yillari. 2-bosqich – XVI asrning oxiri XVII asrning boshlari. 3-bosqich – XVII asrning boshlari (aniqrog'i 1616 yildan) shu asrning 40-yillarigacha. Bu bosqichlarning har biri o'ziga xos xususiyatlarga egadir. Birinchi bosqichda gumanistlar antik dunyo madaniyatini qiziqib o'rganadilar, uning hayotbaxsh taraqqiyparvar g'oyalarini targ'ib qiladilar, shuningdek, o'rta asrlar moralitesidan foydalanib tragediya va komediya janrini yaratadilar. Ikkinchi bosqichda Angliya gumanistik adabiyoti gullab yashnaydi, uning ulug' namoyandalari etishadi va ular davrning muhim ijtimoiy muammolarini ko'taradilar. Uchinchi bosqich teatrlarning yopilishi va Renessans g'oyalarining tanazzuli bilan tavsiflanadi. Angliya Uyg'onish adabiyoti uchun eng xarakterli bo'lgan adabiy tur, bu – dramatik turdir. Biroq XV-XVII asrlarda epik turda ham bir qator salmoqdor asarlar yaratildiki, bular, eng avvalo, Tomas Mor (1478 – 1535)ning "Utopiya"(1516), Frensis Bekon (1561 – 1626)ning "YAngi Organon" (1620) romanlaridir. Ularda mualliflarning shu davr Angliya jamiyatiga tanqidiy munosabatlarigina aks etib qolmay, balki ularning ijtimoiy ideallari ham ifodalanadi.

Uyg'onish davrining teatri XVI asrning 2-yarmidan boshlab rivojlandi. Bu davrda ingliz gumanist dramaturglari xalq teatri va antik teatr elementlarini sintezlashtirgan Angliya milliy dramaturgiyasini yaratdilar. XVI asrning 60-70 yillariga qadar Angliyada teatr tomoshalari sayyor bo'lib, 1576-ilda dastlabki doimiy teatr binosi barpo etiladi. XVI asrning oxiriga borib birgina Londonning o'zida bunday teatrlar soni 9 taga etadi. Bu o'sha davr sharoitida teatrning ijimoiy roli naqadar yuqori bo'lganligini ko'rsatadi.

V.Shekspir Markaziy Angliyaning Streford shaharchasida tug'ildi. Otasi charm qo'lqop tayyorlovchi usta bo'lib, shahar kengashiga va shahar xokimligiga saylangan. Shekspir mahalliy «Grammatika» maktabida o'qiydi (lotin, grek tililari o'qitilgan). 18 yoshida uylanib 1587-il Londonga ko'chib keladi va teatrga xizmatga kiradi. Avval suferlar yordamchisi, so'ngra aktyor, keyinroq rejissyor bo'lib ishlagani ma'lum. Teatr uchun p'esalar yoza boshlaydi.

1599-il yangi ochilgan «Globus» teatriga ishga o'tadi.

1612-il o'z ona shahri Strefordga ko'chib ketadi va boshqa ijod bilan shug'illanmaydi.

Ёдда тутинг! Шекспирнинг адабий фаолияти 3 та даврга бўлинади.
Ижодининг биринчи даври: (1590-1601)

Иккинчи даври (1601-1608)

Учинчи даври (1608-1612)

Ҳаммаси бўлиб Шекспир иккита дoston 154 та сонет ва 37 та песа яратган.

Shekspir hayotiga oid ma'lumotlar etarli emasligi uning avtorligiga shubha soluvchi ko'plab farazlarni keltirib chiqardi. Ayniqsa (XIX asr o'rtalarida) masalan, 1772-ili Gerbert Lorens pe'salarni faylasuf Frensis Bekon yozgan degan fikrni aytadi.

V.Shekspir o'z ijodini «Venera va Adonis», «Lukretsiya» dostonlari va qator sonetlar yozishdan boshlagan. Har ikki dostonning syujeti antik davr tarixi va mifologiyasidan olingan. Ammo «Venera va Adonis» (1593) dostonida kishining xis-tuyg'ulari va tabiat manzaralari Uyg'onish davri ruhida real tasvirlangan. Doston syujeti quyidagicha: Go'zallik ma'budasi Venera ko'rkam ovchi yigit Adonisni sevib qoladi. Biroq yigit Venera sevgisiga e'tibor bermaydi. Adonis Venerani ogohlantirishlariga quloq solmaydi va ov paytida yovvoyi to'ng'iz yorib haloq bo'ladi.

Asardagi Venera tabiatning ramzi sifatida tasvirlangan.

Shekspir 1609-yili 154 sonetdan iborat to'plamini nashr ettirdi.

Sonet (ital. *Soneto*) band qurilishi murakkab bo'lgan she'r shakllaridan biri bo'lib o'rta

asrlarda Italiyada shakllangan qoidaga muvofiq, 14 misradan tashkil topgan bo'lishi kerak. Sonetning birinchi qismi - ikki to'rtlik (katren): ikkinchi qismi uchlik (tertset) dan tuziladi.

U.Nosirning «Yana she`rimga» deb ataluvchi she`ri o`zbek adabiyotidagi sonet janrining namunasi hisoblanadi.

She`rim! Yana o`zing yaxshisan,
Boqqa kirsang gullar sharmanda
Bir men emas hayot naqshisan
Jonim kabi yashaysan tanda

V.Shekspirning 25-soneti M.SHayxzoda tarjimasida quyidagicha jaranglaydi:

Kim qulay soatda tug'ilgan ekan,
SHuhratu davlatdan baland dimog'i,
Menga iltifotni tole kam qilgan
Menga muhabbatdir baxtlar bulog'i.
Shahzoda mahrami bekning ulfati
Vallomat lutfidan sharob ichadi.
Qachonki oftob botib ketadi,
Kungaboqarning ham zari uchadi.
Zafarlar erkasi mashhur sarkarda
Oxirgi urushda engilsa bir kun,
Burun xizmatlari kuch bo`lar birdan,
Uning qismati shu: inqiroz surgun.
Mening unvonimga yo`v zavol kuni
Sevdimu, sevaman, sevarlar meni.

Bu sonet - qabohat, sotqinlik va buzilgan muhitdan azob chekayotgan kishining fig'onini eslatadi (Hamlet ruhiga mos tushadi).

Biz bu erda Italiya, aniqrog'i, petrarkizmning kuchli ta'sirini ko`ramiz. Shekspir an'anaviy sonet shaklini yangicha mazmun, bilan boyitdi. Uning sonetlari zamondoshlari Sidney va Spenser sonetlaridan farq qiladi. Chunki ularning lirik ijodida umumlashtiruvchi holat yo`q edi.

To`plamda sonetlarning ishq, do`stlik, rashk azobi, o`z taqdiri haqida qayg'urish singari bir qancha turkumlarga bo`lish mumkin. To`plamning markaziy obrazi - qorasoch go`zalning shoirmi do`sti ham sezadi. Ichki qarama-qarshiliklardan so`ng shoir qalbida do`stlik g'olib chiqadi.

Boshqa sonetlarda esa do`stining olijanobligini sharaflaydi, unga maslahat beradi va qabohat, sotqinlik, buzilgan muhitda azob chekayotganligini qayg'u bilan yozadi. Shu o`rinda 66-sonet xarakterlidir.

Shoir lirikasidagi bir qancha obraz va motivlar uning dramatik asarlarida ham o`z aksini topdi.

Shekspir p'esalarining uslub, janr, mavzu va xarakterlari ular yozilagan davrga qarab o`zgarib bordi.

Ijodining birinchi davrida Shekspir o`zining eng sara komediyalarini yaratdi: «Qiyiq qizning quyilishi» (1593), «Veronalik ikki yigit» (1594), «YOz kechasidagi tush» (1595), «O`n ikkinchi kecha» (1600) va boshq.

Shekspir komediyalarining syujetlari jozibador va go`zal bo`lib, ular har-xil voqea, tasodif,

anglashmovchiliklar bilan to'la. Komediylarda taqdir g'oyasi asosiy g'oyadir. Bu ayniqsa «Yoz kechasidagi tush» va «O'n ikkinchi kecha»da yaqqol namoyon bo'ladi. Bu oldindan belgilangan (insonni barcha xarakatlarini foydasizga chiqaruvchi) taqdir (rok) emas.

Taqdir Shekspir tomonidan omad (fortuna) ma'nosida tushuniladi. «Omad» g'oyasi insonni passivlikka emas, aksincha aktivlikka chorlaydi. Unda o'z baxtini sinab ko'rish istagini tug'diradi.

Shekspir komediylarida tasvirlanishicha, eng oddiy xarakatlar iste'dodli va hayotni sevguvchi insonlar tomonidan sodir etilsa, albatta, yutuqqa erishadi.

Shekspirning tarixiy xronikalar deb nomlangan dramalari mavjud bo'lib, ularning asosiy mavzusi XIV-XV asr feodal Angliya dinastik kelishmovchiliklaridir. «Richard III» (1592) «Genrix V» (1599) asarlari bo'yicha misol bo'la oladi. Bu dramalar syujeti Xolinshedning «Angliya, SHotlandiya va Irlandiya xronikalari» (1577) asaridan olingan

Shekspir ijodining birichi davrida «Romeo va Jul'etta» (1595) va «Yuliy Tsezar» (1599) kabi tragediyalarni ham yozgan.

Ikkinchi davrda yaratilgan tragediyalarda Shekspir inson hayotining eng dolzarb, murakkab masalalariga javob beradi.

Shekspir tragizmi doimo insonpavarlik va pastkashlik, egoistlik va sahiylik kabi hislar to'qnashuvi asosiga quriladi. Zamonining ilg'or, aqlli, olijanob, iste'dodli kishilari qora kuchlar ta'sirida halok bo'lishini ustalik bilan tasvirlanadi. (Hamlet, Lir obrazlari)

«Hamlet» (1601) «Otello» (1604), «Qirol Lir» (1605) «Makbet» (1605) y.

«Otello» dragediyasida emirilib borayotgan absolyutizm va tug'ilib kelayotgan burjua tuzumi sharoitida ahloq, shaxs va uni o'rab olgan muhit o'rtasidagi ziddiyatlarni aks ettiradi. Tragediya syujeti Italiya novellistikasidan olingan.

Asar qahramonlari Otello va Dezdemonani ota-ona xohishi, bir-biriga bo'lgan stixiyali intilish (Romeo va Jul'etta kabi) emas, ularning bir-birlarini tushinishlari, qalban yaqinliklari birlashtiradi. Lekin bu sevgi Yago timsolidagi mansabparastlik va razillik dunyosi bilan to'qnashib halok bo'ladi.

Otelloni qiynalish va azoblarining sababi rashk o'ti emas, balki Dezdemonani sofligiga bo'lgan ishonchini yo'qolishi va shu bilan birga butun er yuzida poklikka bo'lgan ishonchini yo'qolishidir. Yagoning hiylasi fosh bo'lgandan so'ng Dezdemonaning pokligiga bo'lgan ishonchi yana qaytadi va o'z ma'nosini yo'qotgan hayotdan xotirjam ko'z yumadi.

Dezdemona go'zal hulqi va chuqur insoniy fazilatlar bilan yorqin gavalangan obrazlardan biridir. U «Hamlet» dagi itoatgo'y Ofeliyaga o'xshamaydi.

Yago jahon adabiyotida ustamon va makkor shaxsning eng mukammal tipik vakilidir. Yagoning xotini emiliya ham Dezdemonaga singari gunohsiz halok bo'ladi.

1605 yilda yaratilgan «Qirol Lir» tragediyasida oila aloqalari muammolari ijtimoiy va siyosiy muammolar bilan uyg'unlashib ketgan. Mana shu uchta planda sof insoniylikni mehrsizlik, g'arazgo'ylik va shuhratparastlik bilan to'qnashuvi aks ettirilgan.

Tragediya syujeti Xolinshedning «Xronikalari» dan olingan. Lekin Shekspir unga Gloster tarixini ham kiritadi.

Qirol Lir xonadonida bo'lgan voqealar Gloster xonadonida ham sodir bo'ladi. Agar Lir ixlos qo'yan katta qizlari unga qarshi chiqishsa, Gloster esa o'gay o'g'li edmund tomonidan quviladi. U tuxmat bilan akasi edgarining quvilishiga erishadi.

Ko'r bo'lb qogan Gloster tentak qiyofasida yurgan o'g'li edgarga duch keladi.

«Zamona shunday: So'qirlarni tentak etaklar» deydi istehzo bilan Gloster. Uning bu so'zlari ostida chuqur ma'no yashiringan.

Lirninl Glosterga qarata aytgan: Sen o'zingga shisha ko'zlar sotib olaqol, keyin jirkanch

siyosatdon kishilar kabi ko'rmasang ham ko'ryapman deb riyo qilasan» degan so'zlari davlat tepasiga chiqib olib o'z manfaatidan boshqa narsani ko'ra olmaydigan «jirkanch siyosatdon» larni fosh etish bilan birga, o'z o'tmishiga tanqidiy nazar tashlash va uni qoralashdan ham iborat edi.

Tragediya personajlari bir-biriga qarama-qarshi turgan ikki lager vakillaridir. Goneril'ya, Regana, Korneul', edmund-salbiy obrazlar bo'lsa, Kardeliya, Kent, edgar, masxaraboz, keyinchalik Lir, Gloster - o'zida yuksak insoniy fazilatlarni mujassamlashtirgan obrazlar hisoblanadi.

Shekspirning «Yuliy Tsezar», Antoniy va Kleopatra», «Korialan», «Afinalik Timon» tragediyalari «Rim tragediyalari» turkumini tashkil etadi.

Shekspir ijodi ning uchinchi davrida xorg'inlik va xafsalasizlik (tushkunlik) alomatlari seziladi. Bu YAkov-I xukmdorligidagi uyg'onish kayfiyatining tushishi va uning teatrga xomiylik qilishi tragikomediya janrini g'alaba qilishga olib keladi. endi fojiaviy, kishini hayajonga soluvchi, katta ijtimoiy-siyosiy voqealar aks ettirilgan tragediyalar emas, balki tomoshabinga engil ta'sir etadigan p'esalar yaratila boshlandi.

Shekspirning bu turdagi asarlarida real voqealar hayoliy ertaklar bilan qo'shilib ketadi va ularda kishining yaxshi fazilatlari yomon extirosalar ustidan g'alaba qozonadi. Bular «Tsimbelin» (1609) «Qishki ertak» (1610) va so'nggi asari «Bo'ron» (1612) dir.

«Bo'ron»da Milandan quvg'in qilingan gertsog olim Prosperto (ital. «Baxt» demakdir) qizi Miranda bilan bir orolga chiqib qoladi. U erda tabiat sirlarini o'rganadi, «Qora kuchlar» ni bo'ysundiradi va ularni inson foydasiga xizmat qildiradi. Bo'ron Prosperoning mansabini zo'ravonlik bilan qo'lga kiritgan akasi egoist va shuhratparast Antoniy tushgan kemani ham shu orolga chiqarib tashlaydi. Prospero «Qora kuchlar» yordamida yovuz niyatli kishilarni yaxshilikka moyil qilib Italiyag0 qaytishlariga yordam beradi. Asar so'ngida Prospero «Qora kuchlar» ni boshqarishdan bosh tortadi.

«Bo'ron» yozuvchining inson baxt-saodati haqidagi hayollarini mujassamlashtiradi. Shu bilan birga bu p'esa sheal voqelikka asosangan adabiy vasiyatnoma hamdir. Prospero tabiatning boshqa kuchlari kabi bo'ronni ham inson xizmatiga bo'ysundirmoqchi bo'lgan Faust tipidagi qahramon, uyg'onish davri g'oyalarini aks ettirgan mag'rur insondir.

Shekspir asarlari o'zbek tiliga G'.G'ulom («Otello», «Qirol Lir»), M.SHayxzoda («Hamlet», «Romeo va Jul'etta»), Uyg'un («Yuliy Tsezar»), B.Boyqobilov (sonetlar) va boshqalar tomonidan tarjima qilingan.

Uil'yam Shekspir ijodi Uyg'onish davri Angliya adabiyotining ko'zgusidir. Tadqiqotchilar fikriga ko'ra, shoir sonetlarida asosan ikki mavzu ishlanadi. Bular do'stlik va sevgi mavzularidir. Mana shunga muvofiq tarzda ulardagi asosiy poetik obrazlar ham 3 tadir. Bular SHoir, Do'st va Xafaqon ayoldir. Uil'yam Shekspir sonetlarining mundarijasi rang-barang kechinmalar silsilasidan iboratdir. Bu kechinmalar goh quvnoq, goh mahzun ruh kasb etadi. Uning sonetlaridan birida lirik sub'ekt o'z Yorini Do'stiga ishonib qoldirib ketgani ifodalanadi. Lekin uning yo'qligida Yor va Do'st o'rtasida yaqinlik paydo bo'ladi. shu tariqa ulardan biri Do'stiga, ikkinchisi esa Sevganiga bevafoqlik qiladi. Uil'yam Shekspirning dostonlari «Venera va Adonis» (1593 yil) hamda «Lukretsiya» (1594 yil) syujeti antik davr tarixi va mifologiyasidan olingan bo'lsa-da, ularda Uyonish davri ruhi aks etadi. Dastlabki dostonida sevgi va go'zallik ma'budasi Veneraning oddiy biroq ko'rkam yigit Adonisga bo'lgan sevgisi aks ettiriladi. «Lukretsiya»da esa bedaxl iffati tahqirlangan Lukretsiyaning o'z joniga suiqasd qilishi tasvirlanadi. Har ikki asarda ham inson shaxsi, uning qadr-qimmati masalasi o'rtaga qo'yiladi.

Uil'yam Shekspirning sahnaviy asarlari uch janrga mansub bo'lib, bular tragediya, komediya hamda tarixiy xronikalardir. Dramaturg o'z tarixiy xronikalarida ko'proq XVI asr ingliz muarrixi Xolinshedning «Angliya, SHotlandiya va Irlandiya xronikalari» asaridan manba sifatida foydalanadi. Uning tarixiy xronikalari 16 tadan iborat bo'lib, ularning aksariyati, ya'ni 8 tasida feodal urushlari, markazlashgan hokimiyat o'rnatish uchun kurash, davlat va xalq taqdiri masalalari tasvirlanadi. Uil'yam Shekspir o'zi yashab turgan davrning ijtimoiy tendentsiyalarini juda to'g'ri belgilaydi. Chunki bu davr uchun feodal tarqoqligiga barham berish va milliy davlat o'rnatish g'oyasi juda dolzarb edi. Uning «Richard III», «Genrix IV» asarlarida bu g'oyalar personajlarni realistlik mahorat

bilan individuallashtirish negizida hal qilinadi. Uil'yam Shekspir komediyalari o'zining Renessans ruhi va ko'p qirrali xarakterlari bilan tavsiflanadi. U kulgu asosiga qurilgan asarlarida pand-nasihat qabilidagi feodal axloqiga qarama-qarshi o'laroq kishilarning tabiiy his-tuyg'ularini kuyladi. Muallif "Qiyiq qizning quyilishi" (1593), "Veronalik ikki yigit" (1594), "Yoz kechasidagi tush" (1595), "O'n ikkinchi kecha" (1600), "Venetsiya savdogari" (1596) kabi komediyalarida bir qator badiiy tiplar yaratdiki, ular o'z iroda yo'nalishi, individual xususiyatlari bilan birga u yoki bu ijtimoiy guruh va qatlamlarga xos bo'lgan xususiyatlarni ham mujassamlaydi. Ayniqsa, u yaratgan SHeylok obrazi hali-hanuz barchani lol qoldiradi. A.S.Pushkin bu obrazning murakkabligini qayd qilib, "*SHeylok xasis, ziyrak, qasoschigina emas, u farzandsevar, hozirjavob kishi sifatida ham namoyon bo'ladi*", - deb yozgan edi.

Tragediya Uil'yam Shekspirga gumanistik g'oyalarni ifodalash uchun qolgan barcha janrlardan ham ko'proq qo'l keladi, deb aytish mumkin. Ulug' dramaturg o'lib borayotgan feodal olamining inqirozini ko'rsatish va tug'ilib kelayotgan burjuaniyning ochko'z, yirtqich vakillari obrazini yaratish uchun butunlay tragediya janriga o'tadi. Uning "Hamlet" (1601) tragediyasi Uyg'onish g'oyalarini chuqur falsafiy va badiiy umumlashmalarda ifodalab berdi. O'zi uchun yot bo'lgan razil muhitga tushib qolgan Hamletning ikkilanishlari uning "hayot yoki o'lim" monologida ochiq aks etadi:

"Tirik qolmoq yo o'lmoq. SHudir masala, qaysi biri bulardan bizga munosib. Shu dilozor falakiyot tahqirlariga. Shikoyatsiz-shikvasiz chidab turmoqmi. Yo'qsa, unga rad-badal berib qo'zg'almoq. Qurol olib yo engmoq yo mahv bo'lmoq". Hamlet shaxsi murakkab va ziddiyatli bo'lsa ham, lekin bu savolga javob berib, razolatga qarshi qo'zg'alish kerak, degan qarorga keladi. Binobarin, Hamlet uyg'onish ruhi bilan sug'orilgan, Uil'yam Shekspir dahosi yaratgan yangi tipdagi kishi – adolat uchun kurashuvchi gumanist obrazidir. Asarning asosiy g'oyasi Hamletning "Tabiatning naqadar ajoyib mo'jizasidir odamzod. Uning zehni naqadar olijanob, undagi qobiliyatlar naqadar bepoyon", - degan fikrlari bilan chambarchas bog'liqdir.

"Makbet" tragediyasi (1605) ham uyg'onish ruhiga mos g'oyalar bilan sug'orilgandir. Muallif unda Makbet fazilatlarini bilan ko'ringan Makbet ichki va tashqi yovuz kuchlar ta'sirida shaxs sifatida tanazzulga yuz tutadi.

Uil'yam Shekspir Makbet obrazini chuqur badiiy tahlil etish yo'lidan boradi. Unda zolimning qaror topishi qariyb qadam-baqadam tasvirlanadi. Makbetning zolimga xos munosib o'lim topishi Uil'yam Shekspir optimizmidan dalolat beradi. Asarda Makbet obraziga qarama-qarshi o'laroq adolatli monarx g'oyasi ham ilgari suriladi.

Uil'yam Shekspir gumanizmi "Otello" (1604), "Qirol Lir" (1605) asarlarida ham o'z davrining ilg'or g'oyalarini ifodalab, kuchli tragik va psixologik obrazlar yaratdi. Buyuk dramaturg gumanizmining chuqur xalqchilligi shundaki, u insonning kelajagi, aql-idroki, istak-orzulari tantanasiga ishonadi.

Tayanch so'z va iboralar:

Angliya Uyg'onish adabiyotining uch bosqichi. XVII asrlar Angliya utopik romani. Shekspir o'tmishdoshlari. Shekspir sonetlari. Shekspir dostonlari. Shekspir komediyalari. Shekspir tarixiy xronikalari. "Makbet".

Savol va topshiriqlar:

1. Angliya Uyg'onish adabiyotining uch bosqichi haqida so'zlang.
2. U.Shekspirning dramaturgiya bobidagi o'tmishdoshlaridan kimlarni bilasiz?
3. U.Shekspir tarixiy xronikalarining manbai haqida so'zlang.
4. U.Shekspir ijodining tarixiy va tarbiyaviy ahamiyati haqida gapiring.

Adabiyotlar:

1. Alimuhammedov A. Antik adabiyot tarixi. T., O'qituvchi, 1976.
2. Qayumov O. Chet el adabiyoti tarixi. T., 1979.
3. U.Shekspir. Sonetlar. T., 1978.
4. U.Shekspir. Tanlangan asarlar. 5 jildlik. T., 1981 – 1985.

Mavzu: Ispaniyada uyg'onish davri adabiyoti. M.Servantes ijodi

Reja:

1. Ispaniyada uyg'onish adabiyoti vakillari.

2. Servantes hayoti va ijodi.
3. “Don Kixot” romani.
4. “Don Kixot” romani qahramonlari:
 - a) ijobiy qahramonlar;
 - b) salbiy qahramonlar.
5. Servantes ijodining ahamiyati.

XV asrning ikkinchi yarmida Ispaniyada absolyut hokimiyat tashkil topa boshlaydi. Bu davrga kelganda mamlakat erlarini qayta qoʻlga kiritish harakati – Rekonkista asosan tugallanadi. Gʻarbiy Evropaning boshqa mamlakatlarida boʻlgani kabi Ispaniyada va oʻsha vaqtda unga qaram Portugaliyada ham savdo-sanoat rivojlanib, Kapitalistik munosabatlar tugildi. Gumanistik dunyokarashning shakllana borishi bilan feodal jamiyati va uning urf-odatlariga qarshi kurash kuchayadi. Lekin Ispaniya viloyatlarida burjua munosabatlarining sekinlik bilan oʻsishi, har bir oʻlkaning oʻz qonun-qoidalarini boʻlishi va shuningdek, rekonkistaning uzoqqa choʻzilganligi sababli absolyutizm butun mamlakatni bir milliy davlat tevaragiga birlashtira olmaydi. Qirollik hukumati shaharlar bilan ittifoq tuzib feodal tarqoqligiga chek qoʻya olmaydi. XV asrda Evropaning boshqa mamlakatlarida yirik monarxiyadan iborat davlatlar paydo boʻlib, ular “madaniylashtiruvchi markaz” sifatida xizmat qilgan bir vaqtda Ispaniyada bunday markazlashgan hokimiyat hali yoʻq edi. Savdo-sanoat ishlarida ham tushkinlik roʻy beradi. Amerikadan keltirilgan oltin mamlakat xoʻjaligini izdan chiqaradi. Chetdan mol sotib olish foydaliroq boʻlib chiqadi. Oqibatda dehqonlar xonavayron boʻladi. Mustamlaka xalqlarini talash va ezish kuchayadi, moddiy ishlab chiqarish haddan tashqari qisqarib ketadi. Oltin zapasi tugagach, xoʻjalik hayotida yana ogʻir vaziyat yuzaga keladi. Katolik cherkovi esa xalqni qullikda saqlash uchun qirol hukumatiga yordam beradi. XVII asr oʻrtalariga kelib Ispaniya oʻzining ilgarigi qudratidan mahrum boʻladi, keyinchalik u mustamlakalaridan ajralib, kuchsiz davlatga aylanib qoladi. XVI – XVII asrlar mobaynida davom etgan dehqon qoʻzgʻolonlari esa absolyutizm krizisini yana ham chuqurlashtirib yuboradi.

Ispan uygʻonish davri adabiyoti XV – XVI asrlarda yuz bergan ijtimoiy-siyosiy voqealar, mamlakat tarixiy taraqqiyotining oʻziga xos xususiyatlari bilan ravishda shakllanib, unda ilgʻor gumanistik gʻoyalar targʻib qilinadi. Bu adabiyotning dastlabki etapi – XVI asr oxiri, XVII asr birinchi yarmidagi yirik shoirlardan biri Fernando de Erreradir (1534 – 1597). Bu davrda lirik janrga nisbatan epik poeziya keng koʻlamda rivojlanadi. Tarixiy, taʼlimiy-didaktik afsonaviy-diniy va boshqa turdagi poemalar yuzaga keladi. CHunonchi, ersilʼya (1533 – 1594)ning katta epopeyasi “Araukana”da hind-ariukan qabilasidan boʻlgan chiliylarning Ispan hukmronligiga qarshi koʻtargan qoʻzgʻolonlari tasvirlanadi. Asarda qabila qahramoni Kaupalikaning mardona kurashi, ayollarning sevgi sarguzashtlari tasvirlanadi. XVI asrda yashagan yirik portugal yozuvchisi Luis de Kamoens (1524 – 1580) ijodida davr ruhi, muvaffaqiyatli gavdalanadi. Kamoens bir komediya, bir qator sheʼr, shu jumladan baxtsiz sevgini ifodalagan 350 dan ortiq sonet yozadi. Lekin u, asosan “Luziada” poemasi bilan mashhur. Asar Vasko de Gamaning Afrika orqali Hindistonga yoʻl topishi va portugallarning bu mashaqqatga kirib borishini tasvirlaydi. SHoir dostonida jamiyatdagi nuqsonlarni, saroy ahlining munofiqligini va hukmronlarning ogʻir soliqlari, sinfiy qarama-qarshiliklar, ritsarʼ sarguzashtlari, kalonnalarni bosib olishga intilish kabi davrning xarakterli xususiyatlari aks ettiriladi. Asarning ahamiyati shundaki u insonning tabiatni oʻrganishga qaratilgan faoliyati va urinishlarini qiziqarli qilib tasvirlash bilan birga poeziyada realistik uslubini rivojlanishga maʼlum darajada taʼsir kursatdi. ersilʼya va Komoens ijodiga Xomer, Vergiliy kabi shoirlarning taʼsiri bor edi. Bu taʼsir ularning poemalarida realistik epizodlar bilan birgalikda fantastikaga berishida koʻzga tashlanadi. XVI asr Ispan adabiyotida lirik va epik poeziyaga qaraganda romanchilik keng rivojlanadi. Ispan istak-orzulari, irodasi va kurashining yana ham toʻlaroq aks ettirilishi bilan bu janr alohida oʻrin tutadi.

XVI asrning oxiri va XVII asrning boshlarida ijod etgan uygʻonish davri adabiyotining yirik vakili, realistik romanchilikka asos solgan gumanistik yozuvchi Migelʼ de Servantes Saavedra 1547 yilning 29 sentyabrida Ispaniyaning Alʼkala de enares shaharchasida tugʻildi. Otasi Rodriga de Servantes Saavedra tabiblik bilan kun kechirar, shuning uchun ham u koʻp vaqt oilasi bilan shahar-mishahar kezib yurishga majbur boʻlardi. Migelʼ de Servantes (1567 – 1561) yillarda iezutlar maktabida oʻqiydi. 1561 yilda oilasi Madridga koʻchib borgandan soʻng oʻqishni shu erda davom ettiradi. Oʻspirin Migelda sheʼriyatga qiziqish tugʻiladi. Filipp II ning xotini malika Isabella vafotiga bagʻishlangan sonetlari yosh Servantesning sheʼriyat sohasidagi dastlabki mashqlari edi. 1569 yilda

Servantes Rimga borib, papaning vakili Akvavia huzurida ishlaydi, 1570 yilning ikkinchi yarmida Italiyada joylashgan ispan qo'shiniga xizmatga kiradi, chunki muhtojlik uni o'z vatanini tashlab ketishga majbur etadi. 1571 yilning 7 oktyabridan Lepanto ko'rfazi yaqinida turklar bilan bo'lgan shiddatli dengiz jangida qatnashgan Servantes uch eridan o'q eydi. 1572 yilning aprel' oyigacha Messina gospitalida davolanadi. 1574 yilning oxirigacha soldat sifatida yana bir qancha janglarda qatnashadi. 1575 yilda u harbiy xizmatdan bo'shab, ukasi Rodriga bilan o'z vataniga jo'naydi. SHu yilning 26 sentyabrida yo'lda qaroqchilar Servantesni asir qilib, Jazoirga olib ketadilar. Shu vaqtda uning Afrikadagi tutqunlik davri boshlanadi. Servantes 1580 yilning 19 sentyabridagina ozod etiladi va o'z vataniga qaytadi. Servantes biror harbiy mansabga erishish niyatida Ispaniyaga qo'shib olingan Portugaliyaga boradi (1581 yil). U erda ham huzur-halovat ko'rmagan Servantes Madraga qaytadi. 1584 yilning may oyida dvoryan oilasidan chiqqan Katalina ismli qizga uylanadi. Otasi o'lgach (1594 yil), ro'zg'or tebratish maqsadida turli moliya xo'jalik ishlari bilan shug'ullanishga majbur bo'ladi. natijada adabiy ishini uzoq vaqtgacha davom ettira olmaydi. 1592 yilda u to'plangan g'allani noto'g'ri sarflashda ayblanib, turmaga tashlanadi. Seviliya shahrining bankiri Madridga o'tkaziladigan pulni yubormaydi, buning ustiga u sinadi, o'tkaziladigan pulni, undirilmay qolgan mablag'lar uchun gunohkor deb hisoblangan. Servantes 1597 yilda yana qamaladi. Keyinroq bu voqeaga doir janjal ikkinchi marta ko'tarilib, Servantes 1602 yilda uchinchi marta qamoqqa olinadi. Servantesning "Don Kixot" romani ustida ishlay boshlashi hayotining shu og'ir mashaqqatli davriga to'g'ri keladi. 1604 yilda qirollikning yangi poytaxti deb atalgan Val'yadolidga kelganidan keyin uning adabiy faoliyati ravnaq topadi va shu erda "Don Kixot" romanining birinchi qismi nashr etiladi (1605 yil). So'ngra 14 hikoyani o'z ichiga olgan "Ibratli novellalar" to'plami (1613 yil), adabiy satira – "Parnasga sayohat" (1614 yil), poemasi bosiladi. 1615 yilda "Don Kixot"ning ikkinchi qismi bosilib chiqadi. Shu yili uning "Sakkiz komediya va sakkiz intermediya" nomli piesalar to'plami ham yuzaga keldi. Servantesning so'nggi asari "Persiles va Sixizmunda sayohati" romani yozuvchining o'limidan so'ng nashr qilinadi. Antik, klassik va uyg'onish davri adabiyoti bilan yaqindan tanishish, harbiy xizmat va urushlardan qatnashish, Jazoirdagi besh yillik tutqunlik hamda boshqa ko'p muhtojlik va mashaqqatlar Servantes dunyoqarashining gumanistik xarakterda shakllanishiga va uning yirik realist yozuvchi bo'lib etishishiga katta ta'sir qildi. Servantes adabiy dahosi "Don Kixot" asarida yorqin ifodalangan. "Don Kixot" romanining yaratilishi ispan madaniy hayotida juda katta voqea bo'ladi.

Asarning bosh qahramoni Lamanch qishlog'ida istiqomat qiluvchi kam erlik, yoshi elliklarga yaqinlashib qolgan baland bo'yli, baquvvat, lekin ozg'in, ovni yaxshi ko'radigan bir kambag'al dvoryan bo'lib, familiyasi Kexona edi. ertayu kech kitobdan bosh ko'tarmagani va uxlamagani uchun miyasi aynib qoladi. Uning ko'z oldidan ritsar' romanlarida o'qigan jodugarlar, devlar, jahongashta ritsarlar o'ta boshlaydi. Keyinchalik u o'ziga, tug'ilgan qishlog'ining ham nomini qo'shib, lamanchlik Don Kixot deb nom qo'yadi. Albatta, uni ham sevgisi va sevgilisi bo'lishi kerak. U Toboso qishlog'ilik cho'chqaboqar qiz Aldonso Lorensoni o'ziga munosib deb, Dul'sineya Toboso deb malikalarga qo'yiladigan dabdabali nom beradi. Uni do'sti Sancho Pansa bir sodda dehqon bo'ladi. Yana boshqa personaj, jiyani, xizmatchi ayol. Bular hammasi ijobiy qahramonlardir.

Don Kixot ritsarlikni orzu qilib 'ir necha marta "buyuk" safarga chiqadi. Uning "dushmani" bilan dastlabki to'qnashishi karvon saroy molxonasi yonida ro'y beradi. U saroyini "Muqaddas joy" deb bilib, kechasi bilan uxlamay qo'riqlab chiqadi. SHu vaqtda molini sug'ormoqchi bo'lib kelgan kishini "dushman" deb, unga qarshi hujum qiladi. Don Kixot zarar ko'rgan molboqar sheriklarining toshbo'roni ostida qoladi. Karvon saroy egasining Don Kixotning ritsarligiga "fatvo" berishga oshiqqanining sababi undan tez qutulish edi. endi "haqiqiy" ritsar' sifatida yo'lga chiqqan Don Kixot xo'jayini tomonidan kaltaklanayotgan podachi bolaga duch keladi va uni azobdan qutqarib yuboradi. Lekin bolaning bundan keyingi taqdiri uning hayoliga ham kelmaydi. Don Kixot bir guruh kishilarni uchratib qoladi, ularni jahongashta ritsarlar deb o'ylab, yo'lini to'sib, dunyodagi barcha malikalaridan ko'ra o'zining Dul'sineyasini go'zal malika deb tan olishga majbur etadi. O'jarlik bilan ularga hujum boshlagan va qattiq kaltaklanib o'rnidan turishga majoli qolmagan Don Kixot qayg'urmaydi, chunki jahongashta ritsar' bilan bunday voqealarning yuz berib turishi, uningcha, tabiiy bir hol edi. Servantesning asar muqaddimasida "ritsar'" romanlarining qulay deb turgan istehkomini ag'darish" ta'kidlangan asosiy fikri Don Kixotning birinchi safari tasvirlangan yuqoridagi epizodlardayoq ochiq ko'rinadi. Don Kixot ritsar' sarguzashtidan qaytgan va qattiq

shikastlanib yotgan vaqtida uning kutubxonasini ko`zdan kechirgan do`stlari, jiyani va xizmatchi ayol “quruq til bilan yozilgan dag’al va bema’ni”, zarardan boshqa narsa keltirmaydigan kitoblar haqida: “Bir to`da qilib yig’ib, kuydirib tashlash kerak”, “Ularni to`ppa-to`g’ri tashqariga uloqtirmoq zarur” deydilar. Don Kixot navbatdagi safarga chiqishi oldidan Sancho Pansa degan bir sodda dehqonni topib, o`ziga yordamchi – yarog’bardor qilib oladi va bu xizmatlari evaziga uni qo`lga kiritadigan orollardan biriga gubernator qilib tayinlamoqchi bo`ladi. Yo`lda uzoqdan ko`ringan shamol tegirmonlari unga dushman devlar bo`lib tuyuladi. Don Kixot birinchi duch kelgan tegirmonning parragiga nayza sanchadi. Harakatlangan parraklar uni oti bilan ilib ko`tarib ketadi, so`ngra erga uloqtirib tashlaydi. Sancho Pansa og’ir ahvolda yotgan xo`jayinga bu fojia uning so`zlariga ishonmaganligidan kelib chiqqanini afsus bilan bildiradi. Don Kixot esa kitoblari bilan birga uyini ham o`g’irlab ketgan ashaddiy dushmani jodugar Freston devlarni shamol tegirmonlariga aylantirib qo`yganini, lekin, baribir, uning makkorligi Don Kixot qilichi kuchiga bardosh berolmasiligini aytib, o`z fikridan qaytmaydi. Ikkinchi kuni Don Kixot va Sancho yo`lda ikki monax va ularning xizmatchilariga duch keladi. Ulardan orqaroqda kareta biskaylik ayol ham ketayotgan edi. Bu yo`lovchilar Don Kixotga “malika”ni olib qochib ketayotgan jodugarlar bo`lib ko`rinadi. U xonimni ozod etish uchun hujum qiladi. Sancho Pansani esa faqat bir narsa – erda cho`zilab yotgan, “engilmas” kishining narsalarini o`lja qilib olishgina qiziqtirar edi. Biroq har ikkala qahramon – ritsar’ va uning yarog’bardori ham yo`lovchilarning qattiq zarbasiga uchraydilar. SHu singari ko`ngilsiz voqealar Sancho Pansani umidsizlikka tushiradi va u qishlog’iga qaytib, xo`jalik ishlari bilan shug’ullanmoqchi bo`ladi. Biroq Don Kixot unga g’alaba kuni yaqinlashib qolganini, bardoshli bo`lish kerakligini uqtirgandan so`ng, u Don Kixotni tashlab keta olmaydi.

Yozuvchi ritsar’ romanlarida bo`lganidek o`z asarini yaxshilik bilan yakunlaydi: Don Kixot o`z orzularidan voz kechadi.

Servantes ijodining ahamiyati juda katta bo`lib, o`rta asr sharoitida yashagan dehqon ayolining turmushi va orzu- istaklarini real manzaralarda tasvirlab berdi. Baxtli bo`lish boylikda emas, balki tenglik va o`zaro hurmatda, deb ko`rsatdi u. O`rta asr poeziyasidan o`sib chiqqan va ritsar’ sarguzashtlari aks ettirilgan romanga pastki tabaqa vakillari obrazini kiritish, unda demokratik elementlarni targ’ib qilish bilan Servantes yangi romanchilikka asos soldi. Servantesning novella va dramatik asarlari, xususan, uning “Don Kixot”romani ispan xalqi badiiy dahosining in`ikosi bo`lishi bilan birga insoniyat madaniyati xazinasiga qo`shilgan buyuk durdona hamdir. Buyuk adib Servantesning ijodi o`tgan uch yarim asrdan ortiq vaqt davomida Evropa progressiv adabiyotida munosib baholandi. Uning realistik metodi, yaratgan obrazlari va ifodalash usuli jahon realistik

Tayanch so`z va iboralar:

Rekonkista, Uyg’onish harakati, Uyg’onish adabiyoti, ritsar’ adabiyoti, ritsar’ romani, novella, qahramonlik eposi, sonet, poema, parodiya.

Savol va topshiriqlar:

1. Servantes qachon va qaerda tug’ilgan?
2. Servantes qanday janglarda qatnashgan?
3. Yozuchi qanday asarlar yaratgan?
4. “Don Kixot” romanining etakchi g’oyalari haqida gapiring.
5. Romanning qanday ahamiyati bor?

Adabiyotlar:

1. I.Karimov. O`zbekiston XXI asrga intiloqda. T.: Sharq, 1999.
2. Qayumov O. Chet el adabiyoti tarixi. T., 1979.
3. M.Servantes. “Don Kixot” romani. T.: Adabiyot va san`at nashriyoti, 1984.
4. M.Servantes. “Don Kixot” romani. T.: Adabiyot va san`at nashriyoti, 1984.

Mavzu: Angliya va Germaniyada ma`rifatchilik adabiyoti

Reja:

1.Ma`rifatchilik adabiyoti haqida. Ma`rifatchilik adabiyotining asosiy xususiyatlari.

2.Angliya adabiyoti;

a) D.Defo ijodi;

b) J.Svift ijodi.

3.Nemis adabiyoti:

a) Shiller ijodi;

b) Gete ijodi.

XVIII asrga kelib G'arb, Evropa davlatlari turlicha siyosiy tuzimga ega edilar. Angliyada absolyutizm o'z umrini yashab bo'ldi. Qirollik hokimiyati siyosatiga ta'sir o'tkazmaydigan hokimiyatga aylandi. (1648-49 burjuaziya revoltsiyasi).

Frantsiyada hali absolyutizmi yashamoqda edi. Germaniya mayda knyazlik, geruochliklarga bo'linib ketgan edi. Italiyada ham Germaniya singari mayda davlatlarga bo'linish yuz bergan, shimoli esa Avstriya mustamlakachiligi azoblarini tortmoqda edi.

Evropa ilg'or kuchlarining siyosiy kurashlari asosan antifeodal xarakterda bo'lgani uchun , XVIII asr adabiyoti ham asosan antifeodal yoki ma`rifatchilik ruhda edi.

«**Ma`rifat**» so`zi, keng ma`noda xalqni bilimli, ma`rifatli qilish ma`nosida qo'llansa, tor ma`noda burjuaziyaning feodalizmiga qarshi kurashi avj olgan davrdagi aqliy harakatni ifoda etadi.Ma`rifatparvarlar uchun, aql-idrok bosh masaladir. Ular insonning aqliy faoliyatiga, odamiylik fazilatlariga yuqori boho berganlar. SHu bilan birga, ma`rifatparvarchilik g'oyasiga yuqori baho berishadi. (Davlat tepasida o`qimishli, odil podsho turishi kerak).

Ma`rifatparvar yozuvchilar adabiyoti tug'ilib kelayotgan yangi sinfning g'oyaviy kurash quroli deb biladilar. Ma`rifatparvarlar «tabiiy inson haqidagi» kontseptsiyasini ilgari surdilar. Ularning fikricha inson tabiatan go`zal va yaxshi xulqli, uni faqatgina hayot, yashash sharoiti buzadi.

Ёдда тутинг! Англия маърифатчилигини 3 та даврга бўлиш мумкин.

1) 1688-1730 йил - илк маорифатчилик. (Журналистика ривож, янги драматик жанрларни пуйдо бўлиши)

2) 1730-1750 йиллар маърифатчилик романининг пайдо бўлиши ва гуллаб-яшнаши.

3) 1750-1790 (89) – маърифатчилик мафкурасида тушкунлик аломатларини пайдо бўлиши, сентиментализм ва преромантизмини пайдо бўлиши.

Djon Lокk falsafasi ma`rifatchilarga katta ta'sir o'tkazdi. Uning «Inson aqli haqida tajriba» (1690) kitobi. Uning fikricha, inson olayotgan barcha bilimlar aql-idrok orqali keladi.

Daniel' Defo (1660-1731). Savdogar oilasida tug'ildi. Otasi uni puritan diniy akademiyasiga o`qishga berdi. Ammo Defo savdo ishiga qiziqib umrining oxirigacha yirik kommersant bo`lib qoldi. U jurnalist ham bo`lgan, satirik pamfletlar, romanlar, traktalar yozgan. Ko`p sonli maqola va pamfletlarida feodal-aristokratlar bilan cherkov reaksiyasini fosh qiladi.

«**Robinzo Kruzo**» romani (1719). Defo davri kitobxonlari adabiyotga, xususan, prozaga

shunday talablar qo'yadilar: hikoya ajabtovur narsalar haqida bo'lishi, boshqalardan ajralib turishi va shu bilan bir qatorda to'qilgan bo'lmasligi kerak. Defo birdaniga 2 talabni bajaradi.

Uning romani biz hozir xujjatli prozaga qo'shilgan bo'lur edik. Romanni hujjatligini shu narsa ham ta'kidlaydiki, Robinzonni proobrazi - real odam shotlandiyalik matros Sel'kosdir. U kimsasiz orolda 4 yilu 4 oy yashaydi.

Romaning I qismidan so'ng II va III qismlarini yozadi. Ammo eng mashhur I qismi. Romanning asosiy qismi yolg'iz insonning kimsasiz orolda yovuz tabiat kuchlari bilan yuzma-yuz olishuviga bag'ishlangan.

Adabiyotda birinchilardan bo'lib yaratuvchanlik mehnati mavzusini ko'tardi. Mehnat Robinzonni odam bo'lib qolishiga yordam berdi. Voqealarning sodda, qiziqarli tilda hikoya qilinishi asarning o'qimishli bo'lishini ta'minlagan.

Robinzon 28 yil kimsasiz orolda yashaydi. 25-yili Jumovoyini uchratadi.

Djonatan Swift (1667-1745). Irlandiya poytaxti - Dublinda ruhoniylar oilasida tug'ilgan. Yirik ingliz amaldori Vil'yam Templ' saroyida kotib bo'lib ishlagan. Vil'yam Boy kutubxonasidan foydalangan. Jurnalist sifatida tanilib «Kitoblar janggi», «Bochka haqida ertak» (1704) va boshqa hajviy asarlari bosilib chiqqan.

«Kitoblar janggi» pamfleti.

XVII asr oxirida Frantsiyada – 2 xil lager' – ya'ni eski antik adabiyoti tarafdorlari va yangi, zamonaviy adabiyot tarafdorlari o'rtasida katta tortishuvlar bo'lgan. Birinchi lagerdan Bualo ("Poeziya san'ati") - ikkinchi tomondan aka-uka Perrolar (3 aka-uka). Asosiy rol' - SHarl' Perro. ("Qizil shapkacha", "Zolushka", "Uyqudagi go'zal" va boshqalar) badiiy ertak asoschisi.

Templg' hali qadimiy adabiyot tarafdori edi. Kutubxonada yangi avtorlar kitobiga polkadan yaxshi joy, qadimiy avtorlar kitobiga - qorong'u, burchak. Xafa bo'lgan qadimiy avtorlar qo'zg'olon qilgan. Otiqlarni Gomer va Pindor, qurollilarni Aristotel' va Platon va boshqalar g'alaba qozongan.

Swift – asosan siysiy yozuvchi. Uni asosan ijtimoiy masalalar qiziqtiradi. Uni dunyo sirlari, go'zallik, chuqur psixologizm qiziqitirmaydi. Faqat jamiyat nuqsonlari qiziqtiradi.

“Gulliverning sayyohatlari” (1726). Roman qahramoni - afsonaviy mamlakatlarni Liliputimiyaga, ulkan odamlar mamlakatiga, Brobdingnegga, aqlli otlar mamlakatiga (Guinginiyaga) va boshqa erlarga sayyohat qilgan shaxs.

Sayyohatchining maqsadi – insonlarni ma'rifatli qilish (yaxshi va yomon misollar orqali) edi. Shuning uchun Swift fantaziyasi ostida falsafiy podteks yotadi. Roman 4 qismdan iborat.

1) liliputlar mamlakati haqida. Ular oddiy odamlardan 12 baravar kichik. (Bu Angliya). Amaldorlari ham halq manfaatidan ko'ra o'z foydasini ko'proq o'ylaydi. Angliya kabi bu erda 2 partiya bor: baland poshnalilar va vichilar partiyasi.

2 hildagi badiiy janr (Defo singari): sayyohat va utopiya janri uning romani yaratilishadi namuna rolini o'ynaydi. (Tomas Mor"Utopiya", Komponella "Quyosh shahri") Swift ironik holda hikoya qilish ustasi. Agar u "olijanob", "har narsaga qodir" deb aytsa, demak buning aksi.

Swift kitobi tendentsioz ruhda. Unda 2 qarama-qarshi – ijobiy va salbiy tomonlar bor. Masalan: guingmlar (otlar) va iexular (buzilgan odamlar) qabilasi.

Nemis ma'rifatchilik adabiyoti. XVIII asrda Evropadagi bir necha davlatlarda (Frantsiya, Angliya) markazlashgan mutloq hokimiyat vujudga kelgan bo'lsa, Germaniya juda ko'p maydda knyazlik, graflik, imperiya shaharlaridan iborat kichik davlatlarga parchalanib ketgan edi.

Nemis ma'rifatchilarining asosiy vazifasi – mamlakatni milliy jihatdan birlashtirish. (Frantsiyada – inqilobga tayyorlagan). Bu davrda falsafa ham juda ham ravnaq topadi. (Kant, Fixte, Gegel'). YOzuvchilar o'z asarlarida falsafiy masalalarga keng o'rin berdi. Nemis ma'rifatchiligi rivojini 4 ta bosqichga bo'lishi mumkin.

- 1) 20-30 yil adabiyotda klassitsizm hukmronlik qilardi. (O'tmishimizga murojaat qilish)
- 2) 60-yillar – bu davrda tasvirlashning realistik uslubi asosiy bo'ladi. Ma'rifatchilik harakati boshchisi – Lessing.
- 3) 70 va 80 yillar yarmi («Bo'ron va tazyiq») buni kuchli va olijanob qahramonlar amalga oshirishi mumkin. (SHunday fikrlarni Getening «Götter, Feen und Berlikingen» va SHillerning «Qaroqchilar» dramalarida ham kuzatish mumkin).

SHtyurmerlar nazariyotchisi bo'lib Gerder (1744-1803) edi. U birinchilardan bo'lib adabiyotda milliy kuchlarning millat rivojlanishining aks etishini aniq sistemali holda e'tirof etdi. U badiiy adabiyot xalqchilligi tushinchasini kashf etdi. (SHundan beri bu termin ishlatilmoqda). Ungacha ham xalq ijodiy o'rganishni umumxalq ishi deb bildi, unga falsafiy ko'z bilan tahlil qildi.

Sheller (1759-1805). Marbach shaharchasida tug'ildi. Harbiy akademiyaning meditsina fakultetini tugatdi. O'sha paytdayoq she'r yaratish bilan qiziqdi. 1781 yilda «Qaroqchilar»ni yozadi. U shahar ketganligi (spektakl sahnalashtirish) uchun gautpaxtada o'tirib chiqadi. (SHahzoda Karl Evgeniy) 1782 yil bu geruochlikdan chiqib ketadi. Germaniya bo'ylab yuradi.

1795 yilda «Kishini estetik jihatdan tarbiyalash to'g'risida xatlar» nazariy maqolasini yozadi. Uning fikricha, inson go'zallik ta'siri ostida, insonparvarlar, haqqoniy bo'ladi va hayotdagi nuqsonlar bartaraf etiladi va aql-idrok, ozodlik, tenglik xukm suradi.

U yozuvchilarni o'z asri farzandi (quli emas) bo'lishiga, o'z davri ehtiyojiga qarab yozishga chaqiradi. «Qaroqchilar» (1781 yil)

Graf Maksimilian fon Mooring ikki o'g'li Karl (Leptsigda o'qiydi) va Frants (shuhratparast) bor. Karl qarzga botib, yordam so'rab yozgan xatlarini Frants qari otasiga buzib, soxtalashtirib o'qib beradi, akasiga tuxmat qiladi. Graf Karldan voz kechadi. Ilojsiz Karl Qaroqchilar guruhini tuzadi. (Butun mamlakatga dahshat soladi) Otasi bundan habar topadi. Frants bir kishini yollab, otasiga Karlning o'limi haqida yolg'on habar beradi. Hasta graf olamdan o'tadi. Frants otasi o'rnini egallaydi va saroyda adolatsizlik o'rnatadi. Begona kishi qiyofasida saroyga kelgan Karl barchasidan habar topadi. Sevgan qizi Amaliyani qaroqchilar tutib Qaroqchilar huzuriga keltiradi. Ammo Karl sevgan bilan birga Amaliyaga xanjar uradi. O'zini xukumat qo'lga topshirmoqchi ekanini qaroqchilarga ma'lum qiladi. Qaroqchi Karl jamiyatni o'zgartirmoqchi bo'ladi.

Iongann Vol'fgang Gyote (1749-1832). Frankfurt shahrida yurist oilasida, tug'ildi. Laykuna universitetida (grafik) o'qibg' yurganda birinchi she'rlarini yozadi. Uning dunyoqarashiga Spinoza falsafasi «Poetika» ta'sir katta bo'ladi. Studentlik yillari Gan'ening «Muhammadning hayoti» kitobidan ruhlanib Muhammad haqida drama yozmoqchi bo'ladi (parchalar).

O'z hayoti davomida 1600 ga yaqin she'r yozadi. Judu ko'pchiligi xalq qo'shiqlariga aylanadi. «Götter, Feen und Berlikingen» (1773) Gyotening nomi butun Germaniyaga mashhur qiladi. Drama XVI asr voqealariga murojaat qilinadi. Bosh qahramoni Geu ritsorv. U xalq orasida juda mashhur. Isyonkor shaxs taqdiri uni juda qiziqtiradi. Asar uning Shekspir bilan juda qiziqan davrda yaratildi. (Xronikalar ruhida). Asar klassitsizm teatridan butunlay farq qiladi. 1774 yili «Yosh Verterning iztiroblari» romanini yozdi.

«Faust» fojiasini. Bu asar ustida Gete 60 yil davomida ishladi. «Faust»ni yozish niyati unda studentlik yillaridan boshlangan edi.

Afsungar doktor Faust haqidagi afsonalar XVI asrda paydo bo'lgan. 1592 yil. Kristofer Marlo «Doktor Faustning fojiiyaviy tarixi» sahna asarini yaratdi. XVII-XVIII asrda tabiat sirlarini o'zlashtirgan doktor haqida Germaniyada turli kitoblar bosilib chiqqan.

Ёдда тутинг! Трагедияда бир-бирига зид бўлган икки хил кучнинг тўқнашуви тасвирланади.

- 1) Фауст-илғор дунёқараш, ёруғлик тимсоли. Тўхтовсиз ҳаракат, яратиш, бунёдкорлик унинг асосий шиори. У илмга ташни, инжилни таржима қилган.
- 2) Мифистофелр – шубҳа, инкор, вайрончилик кучларини мужассамлаштирган. У Фаустни йўлдан урмоқчи бўлади.

Ёдда тутинг! Англия маърифатчилигини 3 та даврга бўлиш мумкин.

- 4) 1688-1730 йил - илк маорифатчилик. (Журналистика ривож, янги драматик жанрларни пайдо бўлиши)
- 5) 1730-1750 йиллар маърифатчилик романининг пайдо бўлиши ва гуллаб-яшнаши.
- 6) 1750-1790 (89) – маърифатчилик мафкурасида тушкунлик аломатларини пайдо бўлиши, сентиментализм ва преромантизмни пайдо бўлиши.

2-qismida – Mifistofel' uni qadimiy Yunonistonga olib borgan. Sport malikasi Menelay xotini Elena obrazi.

Savol va topshiriqlar:

1. Ma`rifatchilik adabiyoti deganda nimani tushunasizq
2. Angliyadagi romantizmning asosiy nomoyondalari kimlarq
3. SHiller ijodida isyonkor qahramon .

Adabiyotlar:

1. Q.Azizov, O.Qayumov. Chet el adabiyoti tarixi. T., 1987.
2. Gete. «Verterning iztiroblari», T., 1975.
3. Gete I.V. «Faust, T., Adab va san`at nashriyoti, 1972-74 y.

III simestr

Mavzu:Angliya va Germaniyada ma`rifatchilik adabiyoti

Reja:

- 1.Ma`rifatchilik adabiyoti haqida. Ma`rifatchilik adabiyotining asosiy xususiyatlari.
- 2.Angliya adabiyoti;

a) D.Defo ijodi;

b) J.Swift ijodi.

- 3.Nemis adabiyoti:

a) Shiller ijodi;

b) Gete ijodi.

XVIII asrga kelib G'arb, Evropa davlatlari turlicha siyosiy tuzimga ega edilar. Angliyada absolyutizm o'z umrini yashab bo'ldi. Qirollik hokimiyati siyosatiga ta'sir o'tkazmaydigan hokimyatga aylandi. (1648-1649 burjuaziya revoltsiyasi).

Fransiyada hali absolyutizmi yashamoqda edi. Germaniya mayda knyazlik, geruochliklarga bo'linib ketgan edi. Italiyada ham Germaniya singari mayda davlatlarga bo'linish yuz bergan, shimoli esa Avstriya mustamlakachiligi azoblarini totirmoqda edi.

Evropa ilg'or kuchlarining siyosiy kurashlari asosan antifeodal xarakterda bo'lgani uchun, XVIII asr adabiyoti ham asosan antifeodal yoki ma`rifatchilik ruhda edi.

«Ma`rifat» so`zi, keng ma`noda xalqni bilimli, ma`rifatli qilish ma`nosida qo'llansa, tor ma`noda burjuaziyaning feodalizmiga qarshi kurashi avj olgan davrdagi aqliy harakatni ifoda etadi.Ma`rifatparvarlar uchun, aql-idrok bosh masaladir. Ular insonning aqliy faoliyatiga, odamiylik fazilatlariga yuqori boho berganlar. Shu bilan birga, ma`rifatparvarchilik g'oyasiga yuqori baho berishadi. (Davlat tepasida o`qimishli, odil podsho turishi kerak).

Ma`rifatparvar yozuvchilar adabiyoti tug'ilib kelayotgan yangi sinfnig g'oyaviy kurash quroli deb biladilar. Ma`rifatparvarlar «tabiiy inson haqidagi» kontseptsiyasini ilgari surdilar. Ularning fikricha inson tabiatan go`zal va yaxshi xulqli, uni faqatgina hayot, yashash sharoiti buzadi.

Djon Lokk falsafasi ma`rifatchilarga katta ta'sir o'tkazdi. Uning «Inson aqli haqida tajriba»

(1690) kitobi. Uning fikricha, inson olayotgan barcha bilimlar aql-idrok orqali keladi.

Daniel' Defo (1660-1731). Savdogar oilasida tug'ildi. Otasi uni puritan diniy akademiyasiga o'qishga berdi. Ammo Defo savdo ishiga qiziqib umrining oxirigacha yirik kommertsant bo'lib qoldi. U jurnalist ham bo'lgan, satirik pamfletlar, romanlar, traktalar yozgan. Ko'p sonli maqola va pamfletlarida feodal-aristokratlar bilan cherkov reaksiyasini fosh qiladi.

«*Robinzo Kruzo*» romani (1719). Defo davri kitobxonlari adabiyotga, xususan, prozaga shunday talablar qo'yadilar: hikoya ajabtovur narsalar haqida bo'lishi, boshqalardan ajralib turishi va shu bilan bir qatorda to'qilgan bo'lmasligi kerak. Defo birdaniga 2 talabni bajaradi.

Uning romani biz hozir xujjatli prozaga qo'shilgan bo'lur edik. Romanni hujjatligini shu narsa ham ta'kidlaydiki, Robinzonni proobrazi - real odam shotlandiyalik matros Sel'kosdir. U kimsasiz orolda 4 yilu 4 oy yashaydi.

Romaning I qismidan so'ng II va II va III qismlarini yozadi. Ammo eng mashhur I qismi. Romanning asosiy qismi yolg'iz insonning kimsasiz orolda yovuz tabiat kuchlari bilan yuzma-yuz olishuviga bag'ishlangan.

Adabiyotda birinchilardan bo'lib yaratuvchanlik mehnati mavzusini ko'tardi. Mehnat Robinzonni odam bo'lib qolishiga yordam berdi. Voqealarning sodda, qiziqarli tilda hikoya qilinishi asarning o'qimishli bo'lishini ta'minlagan.

Robinzon 28 yil. Kimsasiz orolda yashaydi. 25-yili Jumovoyini uchratadi.

Djonatan Svift (1667-1745). Irlandiya poytaxti - Dublinda ruhoniylar oilasida tug'ilgan. Yirik ingliz amaldori Vil'yam Templ' saroyida kotib bo'lib ishlagan. Vil'yam Boy kutubxonasidan foydalangan. Jurnalist sifatida tanilib «Kitoblar janggi», «Bochka haqida ertak» (1704) va boshqa hajviy asarlari bosilib chiqqan.

«*Kitoblar janggi*» pamfleti.

XVII asr oxirida Frantsiyada – 2 xil lager' – ya'ni eski antik adabiyoti tarafdorlari va yangi, zamonaviy adabiyot tarafdorlari o'rtasida katta tortishuvlar bo'lgan. Birinchi lagerdan Bualo ("Poeziya san'ati") - ikkinchi tomondan aka-uka Perrolar (3 aka-uka). Asosiy rol' - SHarl' Perro. ("Qizil shapkacha", "Zolushka", "Uyqudagi go'zal" va boshqalar) badiiy ertak asoschisi.

Templg' hali qadimiy adabiyot tarafdori edi. Kutubxonada yangi avtorlar kitobiga polkadan yaxshi joy, qadimiy avtorlar kitobiga - qorong'u, burchak. Xafa bo'lgan qadimiy avtorlar qo'zg'olon qilgan. Otiqlarni Gomer va Pindor, qurollilarni Aristotel' va Platon va boshqalar g'alaba qozongan.

Svift – asosan siysiy yozuvchi. Uni asosan ijtimoiy masalalar qiziqtiradi. Uni dunyo sirlari, go'zallik, chuqur psixologizm qiziqitirmaydi. Faqat jamiyat nuqsonlari qiziqtiradi.

«*Gulliverning sayyohatlari*» (1726). Roman qahramoni - afsonaviy mamlakatlarni Liliputimiyaga, ulkan odamlar mamlakatiga, Brobdingnegga, aqlli otlar mamlakatiga (Guinginiyaga) va boshqa erlarga sayyohat qilgan shaxs.

Sayyohatchining maqsadi – insonlarni ma'rifatli qilish (yaxshi va yomon misollar orqali) edi. Shuning uchun Svift fantaziyasi ostida falsafiy podteks yotadi.

Roman 4 qismdan iborat.

1) liliputlar mamlakati haqida. Ular oddiy odamlardan 12 barovar kichik. (Bu Angliya). Amaldorlari ham halq manfaatidan ko'ra o'z foydasini ko'proq o'ylaydi. Angliya kabi bu erda 2 partiya bor: baland poshnalilar va vichilar partiyasi.

2 hildagi badiiy janr (Defo singari): sayyohat va utopiya janri uning romani yaratilishadi namuna rolini o'ynaydi. (Tomas Mor "Utopiya", Komponella "Quyosh shahri") Svift ironik holda hikoya qilish ustasi. Agar u "olijanob", "har narsaga qodir" deb aytsa, demak buning aksi.

Svift kitobi tendentsioz ruhda. Unda 2 qarama-qarshi – ijobiy va salbiy tomonlar bor. Masalan: guingmlar (otlar) va iexular (buzilgan odamlar) qabilasi.

**Nemis ma`rifatchilik adabiyoti.** XVIII asrda Evropadagi bir necha davlatlarda (Frantsiya, Angliya) markazlashgan mutloq hokimiyat vujudga kelgan bo`lsa, Germaniya juda ko`p maydda knyazlik, graflik, imperiya shaharlaridan iborat kichik davlatlarga parchalanib ketgan edi.

Nemis ma`rifatchilarining asosiy vazifasi – mamlakatni milliy jihatdan birlashtirish. (Frantsiyada – inqilobga tayyorlagan). Bu davrda falsafa ham juda ham ravnaq topadi. (Kant, Fixte, Gegel’). YOZUVCHILAR o`z asarlarida falsafiy masalalarga keng o`rin berdi. Nemis ma`rifatchiligi rivojini 4 ta bosqichga bo`lishi mumkin.

- 4) 20-30 yil adabiyotda klassitsizm hukmronlik qilar edi. (O`tmishimizga murojaat qilish)
- 5) 60-yillar – bu davrda tasvirlashning realistik uslubi asosiy bo`ladi. Ma`rifatchilik harakati boshchisi – Lessing.
- 6) 70 va 80 yillar yarmi («Bo`ron va tazyiq») buni kuchli va olijanob qahramonlar amalga oshirishi mumkin. (SHunday fikrlarni Getening «Gets fan Berlixingen» va SHillerning «Qaroqchilar» dramalarida ham kuzatish mumkin).

SHtyurmerlar nazariyotchisi bo`lib Gerder (1744-1803) edi. U birinchilardan bo`lib adabiyotda milliy kuchlarning millat rivojlanishining aks etishini aniq sistemali holda e`tirof etdi. U badiiy adabiyot xalqchilligi tushinchasini kashf etdi. (SHundan beri bu termin ishlatilmoqda). Ungacha ham xalq ijodiy o`rganishni umumxalq ishi deb bildi, unga falsafiy ko`z bilan tahlil qildi.

Sheller (1759-1805). Marbah shaharchasida tug`ildi. Harbiy akademiyaning meditsina faku`tetini tugatdi. O`sha paytdayoq she`riyat bilan qiziqdi. 1781 yilda «Qaroqchilar»ni yozadi. U sshtamay ketganligi (spektakl` sahnalashtirish) uchun gauptvaxtada o`tirib chiqadi. (SHahzoda Karl Evgeniy) 1782 yil bu geruochlikdan chiqib ketadi. Germaniya bo`ylab yuradi.

1795 yilda «Kishini estetik jihatdan tarbiyalash to`g`risida xatlar» nazariy maqolasini yozadi. Uning fikricha, inson go`zallik ta`siri ostida, insonparvarlar, haqqoniy bo`ladi va hayotdagi nuqsonlar bartaraf etiladi va aql-idrok, ozodlik, tenglik xukm suradi.

U yozuvchilarni o`z asri farzandi (quli emas) bo`lishiga, o`z davri ehtiyojiga qarab yozishga chaqiradi. «Qaroqchilar» (1781 yil)

Graf Maksimilian fon Moorning ikki o`g`li Karl (Leptsigda o`qiydi) va Frants (shuhratparast) bor. Karl qarzga botib, yordam so`rab yozgan xatlarini Frants qari otasiga buzib, soxtalashtirib o`qib beradi, akasiga tuxmat qiladi. Graf Karldan voz kechadi. Ilojsiz Karl Qaroqchilar guruhini tuzadi. (Butun mamlakatga dahshat soladi) Otasi bundan habar topadi. Frants bir kishini yollab, otasiga Karlning o`limi haqida yolg`on habar beradi. Hasta graf olamdan o`tadi. Frants otasi o`rnini egallaydi va saroyda adolatsizlik o`rnatadi. Begona kishi qiyofasida saroyga kelgan Karl barchasidan habar topadi. Sevgan qizi Amaliyani qaroqchilar tutib Qaroqchilar huzuriga keltiradi. Ammo Karl sevgan bilan birga Amaliyaga xanjar uradi. O`zini xukumat qo`liga topshirmoqchi ekanini qaroqchilarga ma`lum qiladi. Qaroqchi Karl jamiyatni o`zgartirmoqchi bo`ladi.

**Iongann Vol`fgang Gyote (1749-1832).** Frankfurt shahrida yurist oilasida, tug`ildi. Laykuna universitetida (grafik) o`qibg` yurganda birinchi she`rlarini yozadi. Uning dunyoqarashiga Spinoza falsafasi «Poetika» ta`sir katta bo`ladi. Studentlik yillari Gan`ening «Muhammadning hayoti» kitobidan ruhlanib Muhammad haqida drama yozmoqchi bo`ladi (parchalar).

O`z hayoti davomida 1600 ga yaqin she`r yozadi. Judu ko`pchiligi xalq qo`shiqlariga aylanadi. «Gets fon Berlixingen» (1773) Gyotening nomi butun Germaniyaga mashhur qiladi. Drama XVI asr voqealariga murojaat qilinadi. Bosh qahramoni Geu ritsorv. U xalq orasida juda mashhur. Isyonkor shaxs taqdiri uni juda qiziqtiradi. Asar uning SEkspir bilan juda qiziqan davrda yaratildi. (Xronikalar ruhida)

Asar klassitsizm teatridan butunlay farq qiladi.

1774 yili «Yosh Verterning iztiroblari» romanini yozdi.

«Faust» fojiiyasi. Bu asar ustida Gete 60 yil davomida ishladi. «Faust»ni yozish niyati unda studentlik yillaridan boshlangan edi.

Afsungar doktor Faust haqidagi afsonalar XVI asrda paydo bo'lgan. 1592 yil. Kristofer Marlo «Doktor Faustning fojiiyaviy tarixi» sahna asarini yaratdi. XVII-XVIII asrda tabiat sirlarini o'zlashtirgan doktor haqida Germaniyada turli kitoblar bosilib chiqqan.

Ёдда тутинг! Трагедияда бир-бирига зид бўлган икки хил кучнинг тўқнашуви тасвирланади.

3) Фауст-илғор дунёқараш, ёруғлик тимсоли. Тўхтовсиз ҳаракат, яратиш, бунёдкорлик унинг асосий шиори. У илмга ташни, инжилни таржима қилган.

4) Мифистофелр – шубҳа, инкор, вайрончилиқ кучларини мужассамлаштирган. У Фаустни йўлдан урмоқчи бўлади.

2-qismida – Mifistofel' uni qadimiy Yunonistonga olib borgan. Sport malikasi Menelay xotini Elena obrazi.

Savol va topshiriqlar:

4. Ma'rifatchilik adabiyoti deganda nimani tushunasiz?
5. Angliyadagi romantizmning asosiy nomoyondalari kimlar?
6. Shiller ijodida isyonkor qahramon .

Adabiyotlar:

4. Q.Azizov, O.Qayumov. Chet el adabiyoti tarixi. T., 1987.
5. Gete. «Verterning iztiroblari», T., 1975.
6. Gete I.V. «Faust, T., Adab va san'at nashriyoti, 1972-74 y.

Mavzu:Romantizm adabiyoti

Reja:

1. XIX asr romantizm oqimining kelib chiqish sabablari, o'ziga xos xususiyatlari.
2. Jorj Gordon Noel' Bayron – ingliz she'riyatining buyuk namoyandasi.
3. Viktor Gyugo – romantizm adabiy oqimining nazariyotchisi sifatida.

Shartli ravishda XIX asr deb ataladigan asr, jahon tarixi va adabiyotidagi yangi davr nafaqat frantsuz burjuaziya inqilobi tomonidan tayyorlangan, balki ana shu inqilob voqealari bilan ochiladi.

Inqilob aks-sadosi asr davomida tinmay yangrab turdi. XIX asr haqida gapirib V. Gyugo shunday degandi: “XIX asrni buyuk onasi – frantsuz inqilobi bor. Uning tomirlarida uning tuganmas qoni jo'sh urmoqda».

Inqilobning ijtimoiy-siyosiy sohadagi asosiy yutug'i feodal ijtimoiy munosabatlarni sindirdi, uning «Ozodlik, tenglik, qardoshlik» deb ataluvchi shiori katta kuchga aylandi, qo'shni mamlakatlarda inqilobiy kayfiyatni vujudga keltirdi.

Frantsuz inqilobining adabiy-estetik g'oyalar va formalarga ko'rsatgan ta'siri boshqa sohalar singari adabiyotda ham sezildi.

Inqilob davri (1789-1894) o'z adabiyotini yaratadigan darajada ancha vaqtga cho'zildi. Klassitsizm va sintimentalizm an'analarini davom ettirgan va inqilob g'oyalaridan ruhlangan yangi adabiyot vujudga keldi. Inqilobiy klassitsizimning vakili shior va dramaturg Mari Jozef SHen'e (1764-1811) hisoblanadi.

Inqilobiy lirikaning namunasi sifatida Ruje de Lilning « Reyn armiyasining xarbiy qo'shig'i» (1792) – «Marsel'eza» paydo bo'ldi.

She'riyatda frantsuz inqilobi sabab tarkib topgan an'analar butun XIX asr (1830, 1848, 1871 yillar inqilobi) va XX asr (antifashistik qarshilik harakatida) o'z dolzarbligini yo'qotmadi.

Inqilob so'z san'ati sohasida tugaganmas mavzuni ochib berdi. Masalan: Beranjening “14 iyul”she'ri, Stendalning “Parma ibodatxonasi” romani, G.Geynening liro-publistik esselardan iborat «G'oyalar. Le grange» to'plami, Bayronning «CHayl'd – Garol'dning sayyohatlari» dostoni,

Gyugonning «93 yil» romani (1874) va XX asrdagi R.Rollan va A.Frans asarlari.

Frantsuz inqilobi Evropa va jahon adabiyotidagi kuchli oqim – romantizmni vujudga kelishiga zamin hozirladi.

Biz romantizmni Evropa va Amerika adabiyotida, 18 asr oxiri va 19 asr 1 yarmida tarqalgan yirik oqimlardan biri deb bilamiz. Bir necha o'n yillardan beri tadqiqotchilar nimani «Romantizm» deb atash to'g'risida baxs olib bormoqdalar. (Frantsuz olimi Sur'e bu oqimga butunlay qarama-qarshi bo'lgan naturalizmni ham romantizmga qo'shadi). 50-yillarga kelib sobiq ittifoqda butun boshli yangi kontsepsiya paydo bo'ldi. Unga ko'ra romantizm yo'nalishi o'z badiiy uslubi bilan bir-biridan farq qiluvchi, ikki oqimdan iborat.

a) faol romantizm:

b) passiv romantizm;

Ammo 60-70 yillarga kelib bu borada bir qancha ilmiy ishlar paydo bo'la boshaldi. Ularda yangi materiallar asosida (Chyen romantiklari; Gofman, Po ijodi va boshqalar asosida), yangi xulosaga keldilar. Bu romantiklar badiiy uslublarining birligi haqidagi xulosadir.

Romantiklar ijodi har bir mamlakatda o'z belgilariga ega. Bu davlatlarning milliy, tarixiy xususiyatlari bilan belgilanadi. Shu bilan birga, romantiklar o'z umumiy xususiyatlariga ham egadirlar:

a) romantiklar paydo bo'lgan tarixiy sharoit;

b) uslub hususiyatlari;

v) qahramon xarakteri;

a) Evropa romantizmi uchun frantsuz inqilobi tarixiy sharoit bo'lib xizmat qiladi. Romantiklar inqilob ilgari surgan inson ozodligi g'oyasini qabul qildilar. Ammo shu bilan birga, inson jamiyatda himoyasiz ekanligini, mulkchilik xissi barcha narsa ustidan ustunlikka erishayotganini xis qildi. SHuning uchun muhit oldidagi ojizlik, ikkilanish, qahramonlar taqdirini fojyaviyligi romantiklar dunyosining o'ziga xos tomonlardandir.

b) Bir tomondan shaxsga nisbatan alohida munosabat, uni atrof muhit bilan aloqalari xarakteri, ikkinchi tomondan, real muhitga ideal dunyoqarashni qarshi qo'yish o'ziga xos badiiy uslub bo'lishini belgilab beradi. Romantiklarning vazifasi turmushni aniq va ravshan tasvirlash emas, balki turmush haqidagi orzu umidlarni tasvirlashdir. SHunday yo'llar orqali ular o'z ideallarini aks ettiradilar.

v) Romantizm adabiyoti o'z qahramonini ham ilgari suradi. Romantik qahramon asosan yuksak va nozik xis soxibi, boshqalar bo'ysunuvchi qonunlarga bo'ysunmaydigan mag'rur shaxsdir. SHuning uchun u doim boshqalardan ustun qo'yiladi va ajralib turadi. Bunday qahramon ko'pincha yolg'iz bo'ladi. SHu sababdan yolg'izlik mavzusiga juda ko'p janrlarda, asosan she'riyatda keng o'rin berilgan.

Romantiklarni shaxsning ichki dunyosiga bo'lgan qiziqish lirik va liro-epik janrlarning gullab yashnashiga sabab bo'lgan. XVIII asr oxiriga kelib ma'rifatparvarlik ideologiyasi o'z umrini yashab bo'lgani ma'lum bo'lib qoldi. XVIII asrning ikkinchi yarmida ma'rifatparvarlarning o'zlaridan o'z adreslariga tanqid paydo bo'la boshladi (Didroning «Jiyanim Ramo» asari).

Yangi tarixiy sharoitda - Evropada, frantsuz inqilobidan so'ng, hayot romantiklar oldiga juda ko'p muammolarni qo'ydi, bunday muammolar Vol'er yoki Russolarga butunlay yod edi. Ma'rifatparvarlar kutgan va ishongan «Aql-idrok» mamlakati ro'yobga chiqmadi. Romantiklar hayotga ma'rifatparvarlarga qaraganda boshqacha, o'ziga xos yo'llar bilan yondoshdilar. Hayot ma'rifatparvarlar taklif etgan sxemalarga tushmadi. Romantiklar muhitning zidiyatli ekanligini aniqladilar. Romantiklar adabiyotda tarixiylikni kashf etdilar. Ma'rifatparvar esa o'tmish to'g'risida antitarixiy xolda («yaxshi-yomon» deb) fikr yuritgan edilar. Klassitsistlar tragediyalarining syujetini asosan tarixiy voqealar tashkil etsada ularni, tasvirlanayotgan davr xususiyatlari qiziqitirmaydi. Ular o'z asarlarida umumiy bo'lgan burch va ehtiros masalasini qo'yadilar va echadilar.

Romantiklar o'tmishda nafaqat inson xarakterlarini, balki o'z zamonasi ta'sirida shakllangan xarakterlarni ham ko'ra oldilar. Ma'rifatparvarlar yuksak ma'naviyat, aql-zakovat egalari bo'lgan ko'plab ijobiy obrazlarni yaratgan bo'lsalar. Romantik qahramon ijobiy bo'lishi shart bo'lmay, u muallif idealini o'zida aks ettirishi lozim edi.

Romantizm adabiy yo'nalish sifatida XVIII asr oxiriga kelib birdaniga bir necha mamlakatlarda paydo bo'la boshladi. estetik manifest, traktatlari bilan Germaniyadan Chyen romantiklari, Frantsiyadan SHatobrion va de Stal', Angliyadan ko'l maktabi vakillari chiqdilar.

Ёдда тутинг! Европа романтизми ривожининг учта босқичи ҳақида гапириш мумкин:

а) Илк романтизм (XVIII аср охири XIX аср боши)

б) Ривожланган романтизм (20-40 йиллар)

в) Кеч романтизм (1848 йилдан кейинги)

Ammo bu sxematik davriylashtirish barcha Evropa davlatlari uchun bir deb bo'lmaydi. Germaniyada ilk romantizm yen romantiklari (Novalis, aka-uka SHlegelar) nomlari bilan bog'liq. Ikkinchi bosqichidagi Geydel'berg romantiklari davri Napalion okkupatsiyasi va milliy uyg'onish davriga to'g'ri keladi. Xuddi shu paytda aka-uka Grimm ertaklari paydo bo'lgan.

20-yillarga kelib, Gofman o'limidan so'ng va yosh Heynining relizm an'analari yoqlab chiqish munosabati bilan nemis romantizmi egallagan mavqeini boy bera boshladi.

Angliyada esa SHelli (1822) va Bayron (1824) ning hayotdan ko'z yumishi romantizmning ikkinchi o'ringa tushib qolishiga asosiy sabab bo'ldi.

Romantizm Frantsiyada 30-yillarga kelib to'la shakllandi. Bu paytda Angliya va Germaniyada romantizm o'z umrini yashab bo'lgandi deyish mumkin. Frantsiya romantiklari yangi drama uchun kurashdilar. (ungacha klassitsistlar teatri xukmron edi). Drama janrining reformati bo'lib V.Gyugo maydonga chiqdi.

Pol'shada romantizm haqidagi bahslar 18-10-yillarga to'g'ri kelgan. 20-yillarga kelib, adabiyotga A.Mitskevichning kelishi bilan shakllandi va o'zini asosiy o'rni uzoq vaqt saqlab qoldi.

Romantizm tiplari haqidagi masala to'laligicha o'rganilmagan.

Nemis romantizmi. Germaniyada Frantsiyada bo'layotgan voqealarni zo'r qiziqish bilan kuzatib bordilar. Germaniyaning ilg'or vakllari ularning qoloq, o'nlab mustaqil knyazliklarga bo'lingan mamlakatida inqilobiy o'zgarishlar bo'lmasligiga ko'zlari etdi. Shuning uchun ular ma'naviy sohada inqilob qilishga harakat qildilar.

Nemis romantiklari idealist Fixte falsafiy qarashlarini yoqlab chiqdilar. «O'z diqqat-etiboringni seni o'rab turgan atrof-olamga emas, balki o'zingga qarat» (Fixte).

O'z intilish va harakatlari tufayli inson yanada yaxshi bo'lishi mumkin va bo'lishi kerak. Bunda unga yordam berish kerak. Nemis romantiklarining asosiy vazifa va maqsadi ana shundan iborat edi.

Bu erda Gofman, Shamisso, Heyne (ilk ijodi) va Byuxerlar ijod qiladi.

Nemis romantiklarining katta ishlaridan biri-xalq og'zaki ijodini o'rganishlari bo'ldi. Yakob (1785-1863) va Vil'gel'm (1786-1859) Grimmlar fol'klorning estetik qimmati yuksak qadrlaganlardan edi: Ularning tarix, til tarixi, huquq va mifologiya bo'yicha bir qancha ilmiy maqolalar mavjud. Ammo ularga xalqdan yozib olingan 3 tomli va 200 ta ertakdan iborat «Bolalar va xonadon ertaklari» (1812-1822) katta shuhrat keltirdi. ertaklarni ular butun Germaniya bo'ylab yurib turli toifa odamlardan yozib olishadi.

Ertaklarni 3 guruhga bo'lish mumkin: sehrli, hayvonlar haqidagi (Bo'ri va etti echkicha), «Bremen muzikantlari») va maishiy ertaklar.

Barcha ertaklarda mehnatni sevuvchi, dono, sabr-toqatli qahramonlar doimo g'alaba qozonishadi.

Pushkin «Oltin baliq va baliqcha haqida» ertagi uchun «Kambala baliq haqidagi ertak» epizodidan foydalangan.

Viktor Gyugo (1902-1885). Viktor Gyugo frantsuz romantizmining eng yirik vakili

Ёдда тутинг! Гюго ижодини учта даврга бўлиш мумкин.

- 1) Биринчи давр (1820-1850)
- 2) Иккинчи давр (1870-1885)
- 3) Учинчи давр (1870-1885)

hisoblanadi. Viktor Gyugo Bezonsen shahrida ofitser oilasida tug'ildi. Otasi Napoleon davrining generali, onasi esa aksincha, Burbonlar tarafdori edi. O'zining birinchi she'rlarida burbonlarni madh etadi. 1827 yili birinchi dramasi «Kromvel» ni yaratadi. Va unga kengaytirilgan so'z boshi yozadi. Ushbu so'z boshi Frantsuz romantizmining manifestiga aylandi. Romantik dramalar Gyugogacha ham yaratilgan. Klassitsizm hukmronligi davrida dramalar sahnalashtirilmagan. Ularni o'qish uchun yozilgan dramalar deb atashar edi. Viktor Gyugo Shekspir tajribasidan foydalanib tragediya emas, romantik tarixiy drama yaratadi. (XVII asr Angliya burjuaziya revolyutsiyasi va uning dahosi Kromvel haqida) U klassitsizm qonun qoidalaridan voz kechishga (vaqt, makon, harakat birligi, yuqori va quyi janrlar) chaqiradi. Viktor Gyugo Shekspir ijodini ana shunda qonun-qoidlardan holi deb biladi.

1831 y. «Parij Bibi Mariyam ibodatxonasi» romani yaratildi. Asar mavzusi XV asrdagi Frantsiya tarixidan olingan.

O'rta asr ibodatxonasi ustunlaridan birida «Ananke» so'zini o'qidi. (taqdir, qismat degani) Yozuvchi bu so'zga keng ma'no berdi. (Din anankesi, jamiyat anankesi va boshq).

Ibodatxona ruhoniysi Klod Frollo - o'z umrini din yo'liga tikkan odam. U yoshi o'tib qolgan bo'lishiga qaramay Parij ko'chalarida o'yinga tushib tirikchilik o'tkazuvchi lo'li qiz esmiraldani sevib qoladi. Qiz buni rad qiladi. Frollo kapitan Feb bilan esmiraldani kuzatib yuradi. Qizni qirol armiyasi ofitseriga suiqasd qilishda ayblab, o'limga hukm qiladilar. Uni jazolash uchun olib ketayotganda Kvazimodo uni ibodatxonaga olib ketadi. U qashshoq odamlar bilan ibodatxonada yashaydi.

Frollo qizga o'z sevgisini majburlab o'tkazmoqchi bo'ladi, ammo bu befoyda. U qizni jallodlar qo'lga topshiradi. Qizni dorga osishadi. Kvazimoda Klod Frolloni o'ldiradi. O'zi ibodatxonani tark etib esmiralda jasadi oldida jon beradi.

Asardagi ibodatxona - o'rta asrchalik, feodalizm, zulm adaolatsizlik maskani sifatida tasvirlangan.

Viktor Gyugo 1862 «Ho'rlanganlar», 1869 yili. «Kulgich odam», 1874 yili esa «93 yil» romanini yaratdi.

Jorj Gordon Noel' Bayron 1788 yil 22 yanvarda Londonda tug'ildi. Uning otasi angliya aristokratiyasining kambag'allashib qolgan tabaqasiga, onasi esa shotlandiyalik boy dvoryan oilasiga mansub edi. Jorj Bayron tug'ilgan paytda ota-onalari ajrashib ketadilar. Otasi 1791 yilda Frantsiyaga ketib, u erda vafot etadi. Bayronning bolaligi SHotlandiyada - onasi yonida o'tadi. Jorj tug'ma oqsoq edi. Ammo bu uning mohir suzuvchi, boksyor, chavandoz bo'lishiga halaqit bermadi. Bo'lg'usi shoir dunyoqarashining shakllanishida SHotlandiya tabiatiga bo'lgan chuqur muhabbat alohida ahamiyatga ega bo'ldi.

Bayron o'n yoshga to'lganda unga lordlik unvoni meros sifatida qoldi. Bayron jahon tarixining, Angliya hayotining shiddatli davrida yashadi, ijod qildi. U frantsuz burjua revolyutsiyasi va xalq xarakatining guvohi bo'ldi. Bu revolyutsiyaning maqsadi sanoat to'ntarishiga, Angliya sotsial

hayotini o'zgartirishga qaratilgan edi.

Bayron bolaligidan siyosat bilan qiziqdi. U maktabda o'qib yurgan paytlaridanoq notiqlik san'ati bilan tanishdi. SHu bilan birga 1807 yilda o'qigan kitoblari ichida birinchi o'rinni tarixiy asarlar tashkil etar edi. Bayron Vol'ter, Russo, Lokk, Gibbon asarlarini ham sevib o'qidi.

1807 yilning yozida birinchi she'riy to'plami «Hordiq soatlari» nashr etildi. Bayron 1809-1811 yillarda chet el sayohatiga chiqadi. Bu sayohat yosh shoirning hayot voqeligini keng atroflicha tushinishida katta yordam beradi. U sayohati davomida Napalion intervensiyasiga qarshi qaqshatqich zarba bergan ispan partizanlari harakatining guvohi bo'ldi. U Gretsiyadagi milliy ozodlik qo'zg'olonining guvohi bo'ldi. U hatto Villington qumondonligidagi Britaniya armiyasida Napoleon qo'shinlariga qarshi kurashda qatnashdi. SHu bilan birga Mal'tada – O'rta dengiz harbiy bazasidagi harakatlarini ko'rib, Buyuk Britaniya reaksion hukumatining tashqi siyosatini qoraladi. Bayron bu davrda turk, yangi grek, al'ban va ital'yan tillarini hamda xalq og'zaki ijodini o'rgandi. 1816 yilda arman tilini o'rganishga kirishdi.

Bayron sayyohatlarining mevasi sifatida 1812 yilda «CHayl'd Gorol'd» dostonini yaratdi. Bu asar Bayron shuhratini Angliya va uning tashqarisiga yoydi. Bu asarning ilk qo'shiqlarida Bayron she'riyatining demokratik tendentsiyalari ko'zga tashlanadi.

Bayron o'z ona yurtiga qaytganida Angliyada ishchilarning stixiyali norozilik to'loqlari ko'tarilgan, ozodlik harakatlari kuchaygan edi. Ammo reaksiya bu harakatni ayovsizlik bilan bostirdi. 1799-1800 yillarda ishchilar harakatiga qarshi qonunlar qabul qilinishi natijasida bu harakat 25 yil davomida yashirin holga o'tishga majbur bo'ldi.

Bayron Lordlar palatalarida bir necha marotaba nutq so'zladi. U o'z nutqlarida luddachilik harakati deb nom olgan ishchilar harakatini yoqladi.

Ёдда тутунг! Байроннинг «Шары достонлари» туркумига «Гяур» (1813), «Корсар» (1814), «Лара» (1814) каби достонлар кирadi.

Bayronning 1814-1815 yillar davomida «YAhudiy oxanglari» she'riy to'plami nashr etildi. Ma'lumki Bayron bolaligidan «Injil» ni yaxshi bilgan. Bu she'r turkumida shoir Injil obrazlariga murojaat qiladi.

Bayronning parlamentdagi dadil chiqishlari hamda siyosiy qarashlari uchun reaksion-romantizm vakillari o'ch olish rejasini tuzib qo'ygan edi. Ayniqsa, Bayronning o'z xotini bilan bo'lib o'tgan mojarolarini reaksion guruhlar o'z maqsadlari yo'lida foydalanmoqchi bo'ladilar. Bayronga qarshi har qanday kuchlarni ishga soladilar. Matbuotda Bayron sha'niga mos kelmaydigan turli bo'xton axbortlar tarqatildi. Ammo bunday hurujlar Bayron matonatini buka olmadi. U o'z vatanini tashlab ketishga majbur bo'ladi. 1816 yil 26 aprelda Bayron bir umrga vatanini Angliyani tashlab ketdi.

Bayron 1816 yil yozida SHvetsariyada bo'lishi, uning ruhiy tushkinlik davriga to'g'ri keldi. Bu ruhiy tushkunlik bir tomondan Vatandan ajralish bo'lsa, ikkinchi tomondan oilaviy bo'lib o'tgan ko'ngilsizliklar edi. U bu davr haqida «Mening qalbim qayg'uga tutqin bo'lsa ham, ammo qayg'uning quli emas» deydi. Bayron romantizmdagi qarama-qarshiliklar bevosita shoirning Vatandan judolik, xalq ozodlik harakatidan ajralib qolishi, shaxsiy hayotidagi fojialar bilan bevosita bog'liqdir.

Bayron «Manfred» /1817/ dostonida isyonkor shaxs obrazini aks ettirishni maqsad qilib qo'yadi. Manfred obrazi orqali yaqqalanib qolgan shaxs istiroblari va fojeasini aks ettiradi. Manfred jamiyat aqidalaridan yuqori turuvchi, o'ziga xos qarashlarga ega bo'lgan mag'rur shaxs. U jamiyatning qonunlariga, hayot qonunlariga qarshi shaxs. Mutelik unga yot narsa.

Bayronning «Shil'on tutqini» /1816/ dostoni ham yolg'iz isyonkor shaxs qiyofasini aks ettirishga baishlangan edi. Bu doston Bayronning SHil'on qal'asiga borganidagi taassurotlari asosida

yozilgan edi. SHil'on qal'asi Jeneva ko'lida joylashgan bo'lib, bu erda 1530-1535 yillarda respublikachi, SHvetsariyaning mustaqilligi uchun tolmas kurashchi Fransua Boniver qamoqda saqlangan. U gertsog Savatskiy buyrug'i bilan qamoqqa olingan edi.

Bayron 1816 yilning kuzida Italiyaga keldi. Bu erda Bayron ijodi gullab yashnadi. Bu davrda Italiyada karabanariylar rahbarligidagi xalq ozodlik harakatida avstriya bosqinchilariga qarshi avj olgan edi. U ko'p o'tmay Italiya revolyutsion harakatining ishtirokchisiga aylandi. Boloniya, Rim, Venetsiya politsiyasi uni va uning do'stlarini doimo nazorat ostida saqladi. Bayronning tarixiy tragediyasi «Marks Fal'ero» Neapalda yozildi. Bu erda 1820 yilning revolyutsiya g'alabaga kilgan edi.

1821 yilda yozilgan «Kain» dramasida ham shoir «Injil» mavzusiga murojaat qildi. Drama mifologik obrazlarni aks etgan bo'lsa-da: unda oddiy inson, uning hayotiy kechinmalari, huquqlari haqida fikr yuritiladi.

Bayron «Don Juan» she'riy romani ustida bir necha yil davomida, Italiyada yashayotgan 1819-1824 yillar davomida ishladi. Bayron ijodining yuksak cho'qqisi bo'lgan «Don Juan» romani Evropa ijtimoiy hayotining satirik ensklopediyasi bo'lib xizmat qildi. Asar yakunlanmagan.

Bayron 1824 yilda Italiyada vafot etdi

Bayronning ijodiy faoliyati isyonkorlik ruhi bilan to'ladir. Utabiatning extirosli kuychisi emas, inson shaxsiy kechinmalarini katta she'riy qudrat bilan ocha olgan ijodkordir.

Bayronning isyonkor, o'z mohiti bilan to'lg'in ijtioiy-siyosiy she'riyati ingliz jamiyatining reaksion doiralariqa qarshi qaratilgan edi. Butun reaksion matbuot Bayronqa qarshi ig'volar yog'dirdi.

O'liklar sharpasi bo'ronlar oshib,
Qulog'imga huddi nidoday kelar.
Qahramonlar ruhi yurar adashib,
Ona yurt ko'ksiga shamolday elar.

Bayron Angliyada inqilobiy ko'tarilishini orziqib kutdi, u agar inqilob bo'lsa, kurashda shaxsan ishtirok etish uchun vataniyaga qaytajagini ko'p marta aytgan edi.

U umrini oxirigacha sobit kurashchi sifatida ijod qildi. Uni doimo ozodlik uchun kurash maydonlari o'ziga tortdi. 1823 yilning iyunida Bayron «Gerkules» kemasini o'z mablag'i hisobiga qurollantirdi. U Gretsiya milliy-ozodlik kurashining ilhomchilaridan biriga aylandi. Grek qo'zg'alonchilarini bilashtirishda fidokorona ishlar olib bordi. Zamondoshlari uning harbiy qo'mondon sifatidagi yuksak iqtidori haqida ham so'zlaydilar.

Bayronning eng yaxshi asarlari bugun ham katta kuchga egadir. V.Belinskiy ta'biri bilan aytganda, XIX asr Promiteynning ijodiyoti ozodlik va haqiqat jarchisi sifatida butun insoniyat uchun qadrlidir.

Bayron muhabbat mavzusiga bag'ishlangan she'rlarida ham davrning muhim siyosiy, ijtimoiy – falsafiy fikrlari o'z aksini topadi:

*Yo`qol, ey, jimjimador adabiy inja so`zlar,
Tarqal yolg`onu yashiq, g`iybatlarning to`dasi.
Nurin sochib maftunkor nafisu shahlo ko`zlar,
Sarxush etadi meni sevgining ilk bo`sasi.
Hayol tasavvurga asir qofiyabozlar,
Etar chuchmal tuyg`ular va ohanglar chashmasi.
Sovuq sonetlaringiz – bachkana ehtiroslar,
Sizga tanishmas jonbaxsh sevgining ilk bo`sasi.*

«Sevgining ilk bo'sasi» she'ridan olingan ushbu parchada lirik qahramon jamiyatning illatlarini tanqid ostiga oladi. Bachkana extiroslardan holi bo'lgan porloq tuyg'ular jarchisiga aylanadi. Yoki «Bosh suyakdan qilingan kosadagi yozuv» she'ridagi ushbu satrlar inson umrining o'tkinchiligi haqidagi falsafiy fikrlarni ifodalashga intiladi:

*Qo`rqma: men oddiy suyakman, xolos,
So`ngan qalbimni eslab, qilma xumori.
Endi bu kosadan chiqolmas paqqos
U tirik boshlarning shum kirdikori.
Men senday yashadim, sevdim va ichdim,
Endi-chi, jonsizman, to`ldirib may quy!
Mastlik jinniliging ranjitmas, kechdim,
Qurtlar chaynagandan shu menga ma`qul.*

Xullas, Bayron she'riyati mavzu jihatdan g'oyat rang-barang. Unda mavjud tartiblarga qarshi isyonkorlik ruhi kuchli bo'lib, davrning shiddatkor voqeligining o'zida mujassamlashtiradi.

Savol va topshiriqlar:

1. «Chayl'd Garol'd» dostonida qanday an'analar ko'zga tashlanadi?
2. «Yahudiy ohanglari»da shoir qanday obrazlarga murojaat qiladi?
3. Bayron o'zining «Manfred» dostonida qanday lirik qahramonni yaratdi?
4. Shoir she'riyatining ideal qahramonlari qanday shaxslar?

Adabiyotlar:

1. Q.Azizov, O.Qayumov. Chet el adabiyoti tarixi.
2. Bayron. Saylanma, she'rlar, dostonlar, T., 1974

Mavzu: Frantsiyada tanqidiy realizm adabiyoti

Reja:

1. Adabiyot realizm tushinchasi.
2. Fredrik Stendal' ijodi.
3. Onere de Bal'zak ijodi.

Borliqni, inson va uni o'rab turgan dunyoni xarakterli tomonlarini aks ettiruvchi uslub sifatida realizmni ilk bor toshlarga solingan suratlarda, antik davr asarlarida uchratishimiz mumkin. Biz uyg'onish davri, ma'rifatparvarlik davri realizmining o'ziga hos xususiyatlari to'g'risida gapirishimiz mumkin. Ammo burjua aloqalari asosida etilgan adabiy oqim sifatida XIX asrning 30-40 yillarida shakllanadi.

XIX asr realizmini unga xos bo'lgan tadqiqotga moyilligini (analitizm) hisobiga olib «tanqidiy» yoki «klassik» deb ataydilar. Chunki realizmga hos bo'lgan xususiyatlar XIX asarda shakllandi.

M.B.Xronchenkoning fikricha realizm shaxs, va jamiyatning doimiy xarakatida, dinamik aloqalarda aks ettiradi. Buning uchun badiiy tasvirning turli formalaridan foydalaniladi.

Roman faqat o'ziga hos bo'lgan xususiyatlarga ega bo'lgan holda, boshqa adabiy sistemalar «kashfiyotlaridan» foydalanadi, ularni to'ldiradi. Masalan, asr boshlarida romantizmga hos bo'lgan tipiklashtirishning bir qancha xususiyatlarini qabul qilsa. Asr oxirida naturalizm va simvolizm yutuqlaridan foydalanadi.

«Realizm» termin paydo bo'lishiga Shanflyori va Dyuranti boshchiligidagi bir guruh frpantsuz yozuvchilari sababchi bo'ldilar. Ular 50-yillarda ushbu termin bilan haqqoniy avtor munosabatisiz, borliqni aks ettirilishini atadilar.

Realistik san'at o'z tadqiqotlarida fan kashfiyotlariga, avvalom bor jamiyat rivoji haqidagi

fanlarga tayanadi. (20-30 yillarda Angliya va Frantsiyada tarix fanining rivoji. Buyuk ingliz iqtisodchisi Adom Smitning Tannarx, jamiyatining sinfiy sutrukturasi haqidagi tadqiqotlari va boshq.)

Realist dunyoqarashining shakllanishida dunyoviy bilimlarda erishilgan kashfiyotlar ham katta rol o'ynaydi.

(XVIII asr o'rtalarida K.Linniy o'simliklari va hayvonot dunyosining birinchi klassifikatsiyasini tuzdi. J.Byufonning barcha jonzorlarning birligi va uning turlarining muhit almashuviga qarab o'zgarishi haqidagi fikri. J.Kyuv'e XIX asr boshlarida tirik organizm organlari orasidagi aloqa va ularning bir-biriga ta'siri haqidagi fikri va boshq.) Bal'zak ham «Insoniyat komediyasi»ni so'zboshisida Kyuv'e va Sent - Ilerlarning tilga olib o'tadi.

Realizmining umumiy qonuniyatini ishlab chiqqan, milliy hususiyatlarini shakllantirgan yozuvchilar sarasiga Frantsiyada F.Stendal', O.Bal'zak, P.Merime, G.Flober, Sh.Bodler, P.J.Beranje;

Angliyada – CH.Dikens, Utekkeriy, e.Gaskell, SH.Bronte, DJ.Eliot, Amerikada esa realistlik san'atning muhim bir davri deb U.Uitten, G.Bicher –Stou ijodi, romantizmning ko'proq saqlanib turgan Germaniyada esa Geyne va Fontane ijodining so'nggi davrlari kiradi.

Frantsuz realizmining shakllanishi mamlakatdagi muhim siyosiy voqealar bilan bog'liq. Ayniqsa 1830 . iyul' revalyutsiyasi katta ahamiyatga ega.

1831-34 yillar ionlar qo'zg'oloni. Lui Filipp monarhiyai krizis holatga keladi.

Revalyutsiyadan so'ng 1830-31 yillarda matbuotning roli oshdi. Gazetalarda professional jurnalistlardan tortib student, etikdo'zgacha o'z maqollariri bilan qatnashadilar.

Frantsuz adabiyotida realizmning hukmronlik davrini ikki bosqichga bo'lish mumkin: 1) Realizmning paydo bo'lishi va tan olinishi (20-yillarning oxiri va 40-yillar) Beranje, Merimi, Stendal', Bal'zak.

2) 50-70 yillar. G.Flober nomi bilan bog'liq (1848 yildan keyingi adabiyot)

Realizmning metod-sifatida paydo bo'lishi 20-yillarning oxiriga, asosiy rolni romantiklar o'ynagan davrga to'g'ri keladi. 1830yil revalyutsiyasidan so'ng ularni ijodiy yo'llari turlicha bo'lgan.

Realizmning gullab-yashnagan davri 30-40 yillarga to'g'ri keladi. Bu esa Stendal', Bal'zak, Merimi kaba realist yozuvchilar ijodlari bilan bog'liq. O.Bal'zak «Inson komediyasi»da. «Frantsuz jamiyati o'ziga-o'zi tarixchidir. Men esa uning tarixini tasvirlovchi oddiy kotibman» deydi.

Fredrik Stendal'. (1783-1842). Yuzlab taxalluslarga ega bo'lgan frantsuz yozuvchisining bitta taxallusi asosiy bo'lib qoldi. – Fredrik Stendal' (Stendal' – XVIII asrdagi mashhur san'atshunos Vinkel'man tug'ilgan Germaniyadagi shahar).

Stendal' Grenobl' shahridagi advokat oilasida tug'ildi. Onasidan erta ajraydi. 1800 yili 17 yoshli Stendal' Napoleon armiyasi safiga kiradi va bir qancha harbiy yurishlarda ishtirok etadi.

Napoleon qulashi va Burbollar taxtga qaytgandan so'ng Stendal' Italiyaga ketdi. Italiyani sevgan adib zo'r qiziqish bilan italyan san'atini o'rganadi. Italiya uning «Italiya tasviriy san'ati tasviri tarixi», «Rim. Florentsiya. Neopol'», «Rim bo'ylab sayohat» singari san'at tarixi bo'yicha ishlarini, bir qancha novellalarni va «Parma ibodatxonasi» romanini yaratilishiga asosiy sabab bo'lgan mamlakat. Stendalning bu mamlakatga muhabbati boshqacha bo'lgan.

Stendal' hayotlik davrida katta shuhrat qozonmaydi. U ko'pincha, « Meni yoki XIX asr oxirida, (80-yillar) yoki XX asrning 30-yillari o'qishi mumkin» deb aytadi.

Stendal' san'atda haqqoniylikni yoqlab chiqadi.U «Rasin va SHekspir» risollasi (1825) – yozuvchining badiiy dasturiga aylanadi. Bunda ikki buyuk tragik shoir ijodi batafsil tahlil qilinadi. San'atkor jamiyatni o'z ortidan ergashtira olsagina, o'z vazifasini uddalagan bo'ladi, deydi Stendal'.

«Rasin va Shekspir» o'z ma'nosiga ko'ra realizm manifesti hisoblansa ham Stendal' o'zini romantik deb tan oladi. «Romantizm san'atning barcha turlarida – bu qahramonlik davrlari odamlarini (bizdan yiroq bo'lgan va balki butunlay bo'lmagan) tasvirlash emas, balki zamonamiz

kishilarini tasvirlashdir» - deyiladi risolada.

San`at haqqoniy bo`lishi kerak. U romanni («Qizil va qora») katta yo`l bo`ylab olib boriluvchi oynaga o`xshatadi.

Stendal`ning ilk asarlaridan biri «Armans» (1827) romanidir. Bu asar rus qizi Armans Zoilovaga va Oktava de Maliverlarning dramatik sevgisi haqida.

Yozuvchi 20-yillari «Vanina Vanini» novellasini yozadi. Bunda italiyan karbonariylarining inqilobiy harakatlari tarixidan bir epizod berilgan. Asar qao`ramoni – yosh karbonar Petro Missirilli U mahfiy tashkilotning rahbari Bir kuni politsiya ta`qibidan qochib zadogon qiz Vanina Vanini xonadoniga yashirinadi. Ikki yosh bir-birini sevib qoladi. Qiz yigitni inqilob ishidan ajratish va uni tamomila o`ziga qaratib olish maqsadida mahfiy tashkilot a`zolari nomlarini politsiyaga ma`lum qiladi. Buni bilgan P`etro qizni la`natlaydi shaxsiy baxtini xalq ozodligidan ustun qo`ymaydi.

1830yil «Qizil va qora» romani paydo bo`ldi. Romandagi qizil sifati «erkinlik»,»respublika» tushunchalarini anglatasa, «qora» reaksiya kuchlarni anglatadi. Roman syujeti 1827 yil gazetada bosilgan sud xronikasidan olingan. Antuan Berto ismli yigit o`zi o`qituvchilik qilgan xonadon bekasi Mishu xonimga suiqa qilgan va buning uchun qim jazosiga xukm etilgan.

Romandagi qahramon biografiyasi zinasimon harakat sifatida tasvirlangan. Qahramon tarixi uning otasi – kambag`al duradgor xonadonidan boshlanadi. Bilimli va iqtidorli Sorelni jismoniy mehnatga unchalik uquvi yo`q. SHuning uchun unga otasi va akalari tekinxo`r sifatida qarashadi Keyingi bosqich- Ver`er shahri meri janob de Renal` xonimga muhabbati bu xonadonni tark etishga majbur qiladi. Keyingi qadam –Bezanson seminariyasi. Sxolostik bilim berish usuli,har qadamda talabalarni ta`qib ostiga olish, ular ketidan josuslik qilish kabi seminariya tartiblari qahramonni qanoatlantirmaydi. Va nihoyat, Jyul`en Parijda yirik zodagon markaz de lya Mol` saroyiga kotib va bibliotekari bo`lib ishga kiradi. Qobiliyatli yigit tez orada ko`zga tashlanib qoladi. Markiz qizi uni sevib qoladi.Ammo qiz otasi yigitni avvalgi ish joyidan xarakteristika so`raydi. Renal` xonim katolik ruhoniysining tazyiqi ostida Sorel`ga salbiy xarakteristika yozadi. Sorel` Renal` xonimga o`q uzadi. Keyin qamoq va o`lim jazosi.

Stendal` vafotidan ancha keyin – 1850 yillardan boshlab uning asarlari qayta nashr etila boshlandi. Keyinchalik realist yozuvchilar Stendalni o`zlarining yo`lboshchilari deb tan oldilar. Simvolistlar esa Stendal` romanlarini yod oldilar. Ular yozuvchi asarlaridagi psixologik tahlilni qadrlar edilar.

**Onore de Bal`zak.** (1799 – 1850). Bal`zak tur shahrida tug`ilgan. Ota – onasi hohishiga ko`ra huquq fakul`tetini tugatadi. U o`z otasidan yozuvchi bo`lishga qiziqishi orzu emasligini isbotlash uchun 2 yillik muhlat so`raydi. Birinchi she`riy tragediyasi «Kromvel`» muvaffaqiyatsiz chiqadi.

SHaxsiy hayotda ham omadi chopmaydi. Polyak grafiniyasi rus fuqarosi evelina Ganskaya bilan bo`ladigan nikohni uzoq vaqt kutadi va hayotining so`nggi yili bunga erishadi.

Uning asarlarini noshirlar jon deb nashr qilishar va bundan katta foyda olar edilar. Muallif esa hayotining oxirigacha qutula olmadi.

YOzuvchi sifatida Bal`zak nomini tanitgan asar – «SHuanlar» romani (1829) hisoblanadi. SHundan so`ng «Gobsek», «Sag`ri teri tilsimi», «Polkovnik SHaber», «Evgeniya Grande», «Gorio ota» va boshqa asarlari bosilib chiqdi.

Birinchi qism B rejasiga ko`ra 6 ta bo`limdan («Pravintsiya hayoti sahnalari», «Siyosiy hayot

Билиб олинг! Бальзак ўз асарларини «Инсон комедияси» деган умумий ном остига бирлаштиради (Дантенинг «Илохий комедияси»дан рухланиб) ва 3 қисмга бўлади.

1. «Хулқлар ҳақида этюдлар».
2. «Фалсафий этюдлар»
3. «Аналитик этюдлар»

sahnalari», «Parij hayoti sahnalari», «Qishloq hayoti sahnalari», «SHaxsiy hayot sahnalari», «Gorio

ota», «Gobsek», «Polkovnik SHober» va boshqalar.) 111 asardan iborat bo'lsa kerak edi – aslida 72tasi yozildi.

Ikkinchi qism (bo'limlarga bo'linmaydi) 27 roman bo'lishi kerak edi –22tasi yozildi.

Uchinchi qism – 5ta – aslida 2ta («Nikoh fiziologiyasi», «Oilaviy hayot noxushliklari») yozildi. Barchasi bo'lib rejadagi 143 tadan 96 tasi yozilgan. Bal'zak o'z asarlarida restavratsiya davridagi 1815 dan to 1848 yilgacha bo'lgan voqealarni o'z ichiga oladi.

«Inson komediyasi»da 2 mingdan ortiq personaj qatnashadi. Agar frantsuz jamiyati tarixchi bo'lsa, Bal'zak o'zini uning kotibi deb atadi.

Uning asarlarida boylik, pul kishi xarakterini, psixologiyasini o'zgartiruvchi, izdan chiqaruvchi salbiy kuch sifatida ko'rsatiladi.

«Gobsek». Gobsek hikoyasining qahramoni hayotida puling qancha ko'p bo'lsa, sen shuncha qudratli bo'lasan degan falsafani o'zlashtirib olib, yoshligidan oltin, pul to'playdi. Gobsek sudxo'r. Pul jamiyat hayotining asosiy kuchi bo'lgan davr da u ishbilarmon, ministr, yozuvchi, artistlarni o'z qo'liga qaram qilib olgan.

Ana shu odamlar hayoti, taqdiri uning qo'lida, u o'z shartlarini qo'yadi.

Uning qarindosh-urug'lari ham, do'stlari ham yo'q. Juda xarob kiyinadi va eski uyda yashaydi. Tilladan boshqa narsani tan olmaydigan bu chol : «Bordi-yu mendan qirol qarz bo'lganda va qarzini muddatida to'lolmaganda, men uni boshqa qarzdorlardan oldinroq sudga berardim» - deydi.

Adabiyotlar:

1. Bol'zak Onar de. Gobsek, Sagri teri tilsimi.T., Adab va san'at. 1981.
2. Bol'zak Onare. Gorio ota. T.Badiiy adab. nashr. 1968.
3. Stendal' Qizil va qora. 1830 yil. Xronikasi – T., T.,Adab va san'at nashriyoti, 1979.
4. Stendal'. Parma ibodatxonasi. –T. Meditsina, 1990.
5. Azizov Q. Qayumov O. CHet el adabiyoti tarixi. T., O'qituvchi, 1982

Mavzu: XX asr boshlarida Amerika adabiyoti

Reja:

1. Amerika adabiyoti taraqqiyotining o'ziga xos xususiyatlari. Davr ziddiyatlarining adabiyotda aks etishi.
2. Mark Tven - AQSHning yirik hajviyotchi adibi.
3. Ernest Xemenguey ijodi:
 - a) «Yo'qotilgan avlod» mavzui.
 - b) «Chol va dengiz»

XIX asrning ikkinchi yarmida Amerika ijtimoiy hayotida katta o'zgarishlar sodir biladi. 1861-1865 yillardagi grajdanlar urushi natijasida Shimol burjuaziyasi quldorlar Janubi ustidan g'alaba qilib, butun mamlakat bo'ylab o'z hukmronligini o'rnatdi. AQSH jadal Kapitalistik taraqqiyot yo'liga o'tadi.

XIX asrning oxiri va XX asrning boshida adabiyotni hayotga yaqinlashtirishda ma'lum qo'lganlardan biri romannavis va tanqidchi Uilpyam Din Xouellsdir (1837-1920). U adabiyotda sun'iylik va hartlilikka qarshi chiqib, "nozik realist"larning favqulodda, alohida voqealarni tasvirlashiga javoban kundalik hayotda uchraydigan oddiy shodisalarni real ko'rsatishga chaqirdi.

Mark Tven (1835-1910) Adabiy taxallusi Mark Tven bilgan Semyuelp Lengxorn Klemens Amerika demokratik adabiyotining yirik vakili, o'z zamonasi burjua jamiyati illatlarini fosh etgan satirik va realist yozuvchidir.Semyuelp Klemens Missuro'ya shtatida joylashgan Florida deb ataluvchi kichik asholi punktida tug'ilgan Mark Tvenning ilk ijodi "Qalaverasdan chiqqan mashhur sakrab yuruvchi qurbaqa", "Tennesiyada jurnalistika", "Men qishloq xo'jaligi gazetasini qanday tashrir etdim" yumoristik hikoyalarida qiziq voqea, latifa va uydirma voqealar tasvirlanadi, ularda burjua matbuotidagi beburdlik masxara qilinadi.

Mark Tven shu yillardayoq ijtimoiy hajviyaning ajoyib namunasi bilgan (1870) hikoyalarida Amerika soxta demokratiyasini fosh etgan yillar - Jek London ijodining yuqori cho'qqisi hisoblanadi

(1876) roman qahramoni Tom kichik shahardagi meshchanlar ichida yashaydi. Xolasining betixtov naso'shatlari, maktabda quruq yod oldirishdan iborat eskicha iqtish usullari zerikarli bilganidan u darsga qiziqmaydi, mashg'ulot vaqtida boshqa narsalarni o'ynab itiradi. Uning shixligi va iyingaroqligi o'sha voqelikka o'ziga xos norozilikdir. Tomning uyso'z bola Gek Finnga shavas bilan qarashi - meshchan urf-odatlaridan xoli erkinlikka intilish alomatidir.

"Tom Soyerning boshidan kechirganlari" romanining tarbiyaviy ahamiyati katta. U bolalarni do'stlik, adolat tashabbuskorlik rushida tarbiyalashga yordam beradi. Asarning o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri unda realo'zm (kichik shaharda istiqomat qiluvchi meshchanlar hayoti tasviri) bilan romantizm (Tom va do'stlarining xayoliy romantik dunyosi)ning mavjud bilishidadir.

Mark Tven tarixiy temadagi romanlaridan biri "Shashzoda va gado" (1882)da garchi O'rta asr feodal davri voqealarini aks ettirsa ham, lekin o'z zamonasidagi illatlarning negizini o'sha uzoq itnishda ko'radi va unga tanqidiy munosabatda biladi. asardagi voqea XVI asrning Birinchi yarmida Angliyada ro'y beradi.

Bir vaqtda bir-biriga ixshagan ikki bola dunyoga keladi. Ulardan biri saroyda, ikkinchisi qashshoq xonadonda tug'iladi. Bular shashzoda Eduard bilan gadoy Tom Kentilardir. Agar Eduard Tyudor saroyda Shoh farzandi sifatida izzat-shurmat va farog'atda yashasa, Tom kambag'al oilada qashshoqlikning butun azob-uqubatlarini boshidan kechiradi.

"Geklpberri Finning boshidan kechirganlari" (1885) romani bilan Mark Tven ijodida yangi davr boshlanadi. Bu ham bolalar haqidagi Birinchi asarining davomidek tuyulsa-da, lekin undan farq qiladigan tomonlari bor. Endi bu romanda bosh qahramon Tom emas, balki kichida yuruvchi yetim Gek Finndir. U faqat shaxsiy erkinlikka intiluvchi bola bilmay, balki ham aqlan, ham jismonan kamol topib borayotgan o'smir sifatida harakat qiladi.

"Qirol Artur saroyidagi Konnektikutlik Yanki" tarixiy-fantastik romanining qahramoni oddiy amerikalik Yankidir. U bir mushtlashish vaqtida boshiga tushgan kaltak zarbidan so'ng aqlini yo'qotadi, shushiga kelgach, o'zini VI asrdagi Angliyada ko'radi va qirol artur saroyiga boradi. Asarning fantastik pardasi ostida real voqealar aks etadi. Artur qirolligi zulm-dahshat, diniy jaholat avj olgan feodalizm hukmronlik qo'lgan davr edi. Yozuvchi o'z zamonasidagi qaboshatlarning itnishdagi yaramasliklar bilan bog'liqligini ko'radi.

Mark Tven keyinchalik fransuz xalqining milliy qahramoni Janna d'Ark shaxsiyatiga qiziqadi va "Janna d'Ark" (1896) tarixiy romanini yaratadi.

Janna d'Ark Ingliz bosqinchilariga qarshi yuz yillik urush vaqtida o'z jasorati bilan xalqni jangga rushlantirib turgan Fransiyaning milliy qahramoni sifatida ma'lum. Bu asarida yozuvchining monarx, diniy reaksiyaga qarshi nafrati ko'zga tashlanib turadi. Roman Jannaning quroldoshining bu mard qiz haqidagi eshlari asosida yozilgan. Ijodining shu davriga xos "Gedlibergni buzgan odam" (1899) qissasida boylik, shasadgiylikka berilgan shozirgi zamon Amerika burjua jamiyati illatlarini fosh etadi. Gedliberg yaxshi odamlar yashaydigan, nuqsonlardan xoli joy, deb atalar edi. Lekin yaqindan qaraganda, u o'sha tuzumning barcha qaboshatlarini o'zida mujassamlantirgan shahar. Uning aksar fuqarolarida vijdon va poklikdan asar ko'rinmaydi. Shaharda insofli kishilar uchun yashash imkoniyati yo'q. Bu shaharning ustunlari hisoblangan boy grajdanlari aslida eng insofso'z, tovlamachi, pul uchun o'z shaonidan ham voz kechuvchi shaxslar bilib chiqadilar. Bu shahardagi turmush butun mamlakat uchun xarakterli. Demak, kichik Gedliberg orqali butun Amerikadagi hayot anglashiladi.

Ernest Xeminguey. (1899-1961). Yirik Amerika yozuvchisi ernest Xeminguey Ouk-Park shahrida vrach oilasida tug'iladi. U maktabni bitirgandan so'ng, kichik bir gazetada ishlaydi. Evropaga boradi: avval Frantsiyadan keyin Italiyada joylashgan Amerika sanitar qismlarida turib, birinchi jahxon urishida qatnashadi. Urishdan so'ng u Amerika gazetalarning muxbiri sifatida o'z mamlakatiga qaytib, Florida sohillarida istiqomat qiladi.

Xeminguey Ispaniya respublikachilarining fashist fitnachilariga qarshi olib borgan kurashlarida faol qatnashgan va bu haqda ko'p asarlar yozgan, ikkinchi jahon urish yillarida aviatsiya qimlarida muxbir bo'lib ishlagan. Ittifoqchilar armiyasining Frantsiyaga bostirib kirishlarida ishtirok etgan.

Xeminguey ijodining boshlanishi birinchi jahon urishidan keyingi yillarga to'g'ri keladi. « Bizning zamonda» (1925) kitobiga kirgan hikoyalarida yozuvchi, birinchidlan asarning lirik

qahramoni Nik Adamsning yoshligi, o'smirlik yillari, sevgisi va oilasi haqida hikoya qilsa, ikkinchidan tinch hayot haqidagi hayollarga qonli urush voqealarini qarama-qarshi qo'yadi. Individualistik xarakterda bo'lsa ham, asarda urushga qarshi qahramonning noroziligi bayon etiladi.

Imperializm keltirib chiqargan bosqinchilik urushlarni nafratlashga bag'ishlangan «Alvido qurol!» (1929) romani yozuvchi ijodida muhim bosqinni tashkil etadi. Asarda birinchi jahon urushi yillarida Avstraliya frontida ro'y bergan voqealar hikoya qilinadi. Sanitar xizmati letenanti amerikalik Genri urushning butun dahshatlari - ochlik, ifloslik, o'zaro qon to'kish va son-sanoqsiz begunoh kishilarning o'lib ketayotganligini ko'rib, urush haqidagi fikrlarining pup hayoldan iborat ekanini biladi va umidsizlikka beriladi. Italiyan soldat va ofitserlari bilan samimiy suhbat va aloqalar uni milliy xudbinlik va mag'rurlikdan xoli qiladi. Shuning uchun leytenant Genri urishdan yuz o'girib, qurolini tashlab, betaraf mamlakat Shvetsariyaga o'tib ketadi. Yozuvchi urush qabohatlariga shaxsiy hayotni qarshi qo'yadi. Genri Ketrin Berkliga bo'lgan sevgisi bilan urush dahshatlaridan ham tashqi, dunyo mashaqatlaridan ham qutilishga intiladi. Lekin u shaxsiy hayot va muhabbatdan ham vaqt topa olmaydi. Ketrin tug'riqxonada o'lganidan so'ng Genri butunlay umidsizlik ichida qoladi. «Alvido qurol!» romnida birinchi jahon urushi qoralanadi. Biroq unda bayon etilgan norozilik shaxsiy yo'sindadir.

Bu kitoning muallifi, - deb yozadi Xeminguey asar boshida, - ongli suratda shu fikrga keldiki, urushlarda jang qilayotgan damlar dunyodagi eng ajoyib odamlardir, frontning qizg'in qismlariga kirib borganing sari bunday ajoyib kishilarga ko'proq duch kela boshlaysan. Lekin urishni boshlaganlar, uni oloviga yana olv tashlab turganlar, iqtisodiy raqobatdan, foyda undirishdan boshqa narsani o'ylamaydigan to'ng'izlardir... Men urush olovini yoqqanlar ... otib tashlanmog'i zarur, deb hisoblayman.

Xemingueyning 30-yillarning o'rtalarigacha bo'lgan asarlarida u tashqi dunyoga munosabatida ziddiyatli va individualist ijodkorligicha qoladi. O'sha yillari ocherk shaklida yozgan «Tushdan keyingi o'lim» (1932) kitobida o'lim mavzusi yana ham ochiq ko'rinadi. Asarda buqalar urishi va unga boliq qoidalar batafsil beriladi. Buqalarni o'ldiruvchi matadorlar yoki matadorlarni halok etuvchi buqalar, otlarning yorilib ketgan qornidan otilib chiqayotgan qonlar fojea ustiga fojea va ayniqsa jarohatlangan odamning o'limi oldidan kechirgan azoblari umidsizlik ruhida tasvirlanadi.

«Afrikaning yashil tepaliklari»da (1935) ham yuqoridagi kitobiga xos bo'lgan o'lim masalasi ko'tariladi. Agar «Tushdan keyingi o'lim» matador bilan buqa o'rtasidagi olishuvdv ikkalasidan birini halok etishi bilan tugasa, bunda ovchi haqida gapiriladi va albatta voqea ovchining g'alabasi va havonning o'limi bilan yakunlanadi.

Yolg'izlik, umidsizlik yozuvchining boshqa hikoyalarida ham aks etadi. Masalan, «Toza va yorug' joyda» (1936) kitobi qahxramoni kecha va qorong'ulikdan vahimaga tushadi., uning uchun yagona makon toza va yorug' mayxona bo'lib qoladi. 30- yillarning o'rtalarida Xeminguey sotsial voqealarga murojaat qiladi. Shu davrga xos romani «Hayot yoki mamot» (1937) qahramoni Garri Morgan o'z oilasini boqish yo'lida tinmay ishlaydi Garri yashashga bo'lgan tabiiy extiyojini qondirish maqsadida burjua jamiyatining vahshilika asosalangan qonunlariga tayanib o'zini ham ayamaydi, boshqalarga ham shafqat qilmaydi. Hatto odam o'ldirishgacha borib etadi. U faqat o'zining shaxsiy kuchiga ishonadi. Kuba anarxistlari bilan to'qnash kelgan va jarohatlangan Garri Morgan o'limi oldidan yolg'iz odam hech narsa qila olmaydi, degan fikrga keladi. Qahramonning fajiali halokati yozuvchidagi individualistik qarashlarning samarasizligini ko'rsatadi.

«Daryoning narigi tomonidagi daraxtlar soyasida» (1950) asrida ijtimoiy hayotdan chetda turuvchi yakka qahramon paydo bo'ladi. Bu ikki urushda qatnashgan amerikalik polkovnik Richard Kentuellidir. Asar qahramoniga xos narsa shuki, u hamma vaqt o'lim hayoli bilan yashaydi va bu esa, povestning g'amgin ruhini ko'rsatadi.

Xeminguey so'nggi «CHol va dengiz» (1952) qissasi uchun Nobel' mukoqotini olgan. Asar qahramoni chol Sant'yago baliq oviga chiqqaniga ancha kunlar bo'lsa ham, lekin ishi yurishmaydi. Uning elkaniga «ko'p yamoq tushgan» qayiqqa qanday qilib ham baliq ilinsin. Sant'yago keksa bo'lsa ham, lekin o'zi tetik. SHuning uchun yozuvchi bu odam «taslim bo'lmaydi deb uqtiradi».

Chol to'riga katta baliq tushganida cheksiz sevinadi. «Baliq deb chaqirdi u sekingina, -

o'lsam o'lamanki, sendan ajralmayman». Chol butun kuch g'ayratini ishga solib, baliq bilan olishadi va engadi. « Uning: «Odamzodni yanchib tashlash mumkin, lekin uni bo'ysundirish mumkin emas» degan so'zlari inson qudratiga yozuvchining cheksiz ishonchini ko'rsatadi.

Baliqqa bir gala akula xujum qilganida ham Sant'yago bo'shashmay kurashni davom ettiradi, shu tariqa olishuv ancha davom etadi. Uning pichog'i sinib, qo'llari qonga belansada to'qmoq bilan akulalarning boshiga urishda davom etadi. Sant'yago qirg'oqqa etib borganida katta baliqning faqat gavda suyagigina qolgan edi. «Kim ham seni eng qoldi o'zi chol, - so'radi o'z-o'zidan – hech kim, - javob berdi u. – Aybim shuki men dengizdan xaddan tashqari uzoqqa ketib qolibman».

Sant'yago uchun umidsizlik gunohdir. Kitobxon ko'zi o'ngida mag'lubiyatni bilmaydigan, irodali inson timsolida namoyon bo'ladi. Sant'yago shu jihatdan yozuvchining oldingi asarlari qahramonlaridan farq qiladi. Uni qirg'oqda kutib olgan bola navbatdagi baliq ovida chol bilan birga borishni va undan ko'p narsa o'rganish zarurligini aytadiki, bu – Sant'yagoning yolg'iz emasligiga ishoradir.

Savol va topshiriqlar:

1. XX asr AQSH adabiyotida ijod qilgan yozuvchilarni sanab o'ting.
2. E.Xemingueyning «Chol va dengiz» asarining asosiy g'oyasi nimadan iborat?

Adabiyotlar:

1. Jomonov R., Mirzaeva Sh. Chet el adabiyoti T.: "Cho'lpon", 2007
2. Boynazarov F. Jahon adabiyoti T.: "Musika nashriyoti", 2006
3. Alimuhammedov A. Antik adabiyot tarixi. T., O'qituvchi, 1976.

Mavzu: Lotin Amerikasi mamlakatlari adabiyoti.

Reja:

1. Lotin Amerikasi mamlakatlari adabiyotiga umumiy tavsif.
2. Pablo Neruda hayoti va ijodi.
3. Jorji Amadu hayoti va ijodi.

XIX asrda Lotin Amerikasi mamlakatlari - milliy-ozodlik harakatining kuchayishi bilan xarakterlanadi. Ezilgan omma chet el bosqinchilari va ularning malaylari - mashalliy hukmronlarga qarshi kurashlarini davom ettirib, jiddiy g'alabalarni qo'lga kiro'tdilar. Xalqlarning ezuvchilarga qarshi kurashi shozirgi kunda ham qitoaning ko'p yerlarida davom etmoqda.

Pablo Neruda (1904-1973) Pablo Neruda (Neftali Rikardo Reyes) Chilining janubidagi Parralp shaharchasida temir yil xizmatchisi oilasida tug'iladi.

Pablo Nerudaning 20-yillar oxiri va 30-yillar boshida yozgan dastlabki sheorlari individualistik xarakterda bilib, ularda shoirning suboektiv kayfiyatlari aks etgan. Shoirning katta ijtimoiy-siyosiy voqealardan uzoq, g'amgin motivlar bilan qoplangan bu sheorlari shakl tuzilishi jihatidan ham murakkab bilgan.P.Neruda ijodida keskin o'zgarish 30-yillarning ikkinchi yarmida yuz beradi. Shu vaqtda u katta siyosiy shodisalariga duch keladi. 1934 yildan Madridda diplomatiya xizmatida bilgan P. Neruda ispan xalqining general Franko fashist qishinlariga qarshi olib borgan qahramonona kurashini ko'radi. U respublika shimoyachilariga katta xayrixoshlik bilan qaraydi. Chili hukumati buyrug'i bilan 1937 yilning kuzida Ispaniyadan chiqib ketadi va "qalbdagi Ispaniya" (1938) kitobini yaratadi. Fashistlarga nafrat bilan tila bu asar tezda ko'p tillarga tarjima qilinadi.

Shoir mazkur she'rlarida Ispaniyani qonga botirgan xoinlarni g'azab bilan laonatlaydi. "Nafrat", "Boylar aybi bilan kambag'allashgan Ispaniya", "Shaqoratlangan yer" sheorlarida og'ir ashvolga tushib qolgan Ispaniya va uning xalqi haqida qayg'uradi, ozodlikni sezuvchi mehnatkashlarning kelajagiga ishonch bilan qaraydi."internasional brigadaning Madridga kelishi" sheorida turli mamlakat xalq vakillaridan iborat ispan birodarlarga yordam qilini cqizgan jangchi-internasionalistlarni tabriklaydi. "qalbdagi Ispaniya" kitobi Pablo Nerudani individualistik poeziyaning tor doirasidan realistik sa'natning keng yiliga chiqqan shoir bilib yetishganini ko'rsatadi. Shunday qilib, Pablo Neruda ijodida yakka-yolg'o'zlik, qayg'u o'rmini ozodlik va demokratiyani shimoya qiluvchi otashin minbar shoirning zalvorli ovozi egallaydi.

Prezident Gonsalos Videlaning sotqinligini fosh etgan va polisiya ta'qibi ostida yurgan Pablo Nerudaning oddiy kishilarga bag'ishlab yozgan ajoyib asarlaridan biri "Baharo'yat qishig'i" (1950) epopeyasida Amerikaning eng qadimgi davridan tortib to shozirgi kungacha bilgan tarixi aks

etgan. Epopeya XV bobdan iborat. Uning 1 bobi ("Er nuri")da Amerikaning tabiati - isimliklar dunyosi, hayvonlari, qushlari, yer osti oyliklari, daryolari va qabilalari haqida hikoya qilinadi. "Istilochilar" deb atalgan uchinchi bobda Markaziy va Janubiy Amerikani zabt etib, uning xalqlarini qirib tashlagan va qul qo'lgan ispan konkvistodor-fotishlari haqida gapiriladi. Epopeyaning to'rtinchi bobi - "Xaloskorlar"da chet el bosqinchilari zulmiga qarshi otlangan mashalliy xalqlarning ozodlik urushi tasvirlangan. Bunday kurashga Kuautemon (Meksika), Lautro (Chili), Tupok Amaru (Peru) boshchilik qiladilar. Xalqlarning zolimlarga qarshi kurash mavzui "O'rmon kesuvchi uyg'onsin" deb ataladigan IX bobda aks etgan. Epopeyaning "Qochoq" (X), "Puno'taka gullari" (XI), "qo'shiq mavjlari" (XI1), "qayg'uli vatanga yangi yil gimni" (XI11), "Buyuk okean" (XIV) kabi so'nggi boblarida shoirning turli mamlakatlardagi darbadar kezishlari, oddiy kishilar haqidagi taassurotlari aks etgan.

"Bahariyat qishig'i" epopeyasi "O'zim shaqimda" gi (XV) bob bilan tugaydi. Bu qismdagi sheorlarda ("Uy", "Yildagi do'stlar", "Sayoshatchi", "Uzoq yerlarda", "Urush", "Sevgi", "Meksika", "qaytish", "Hayot", "Men yashayajakman") shoirning hayot mashaqqatlari haqidagi qarashlari ifodalanadi. "Baharo'yat qishig'i" epopeyasidan so'ng Neruda yana bir qancha asarlar yozgan. Ulardan biri "Tokzorlar va hamollar"ni (1954) Yevropa va Osiyoda yashovchi ishchilar, deshqonlar, yozuvchi va siyosiy arboblarga bag'ishlangan. U O'taliyaning shahar va daryolari, Pragadagi ko'priklar, Polpshadagi qurilishlar, Vengro'ya o'rmonlari haqida chuqur mulohazalar yuro'tadi. 50-60-yillarda Neruda "Oddiy narsalar haqida qasida" (1957), "Muhabbat haqida", "qora orol daftari" avtobiografik dostoni va boshqa asarlar yaratadi.

Jorji Amadu (1912 yilda tug'ilgan) Jorji Amadu hozirgi zamon Braziliya adabiyotining yirik vakili, yozuvchi, olim va jamoat arbobi. "Xalqlar O'rtasida tinchlikni mustashkamlash uchun" Xalqaro Lenin mukofoti bilan taqdirlangan. J. Amadu Jahon Tinchlik Kengashining aozosidir. Jorji Amadu inqilobiy harakatlar kuchayib borayotgan 30-yillarning boshlarida ijod etishga kiro'shadi. Uning 19 yoshida yozgan asari "Karnaval mamlakati" (1931) Birinchi romanidir. 40-50-yillardagi ijodi bilan u katta shuhrat qozonadi. Jorji Amaduning ilk asarlari - "qahva" (1933), "Ter" (1934), "Jubiaba" (1935) Braziliya ijtimoiy hayotining dolzarb masalalariga bag'ishlangan, tanqidiy realo'zm ruhida yozilgan romanlardir. "Bepoyon yerlar" romanidagi bosh personajlar yirik pomeschchiklarga aylangan sobiq harbo'ylardir. Ulardan har bo'riining o'z qiyofasi bor. Polkovnik Orasio o'z kuchiga ishongan, hukmronlikka intiluvchi, irodali, lekin shafqat nimaligini bilmaydigan shaxs.

"Bepoyon yerlar"ning davomi sifatida "Oltin mevalar dalasi" romani paydo biladi. unda "qahva ilkasi" - shosildor yerlar uchun kurash yana ham keskinlashgani tasvirga tushiriladi. Endi bu yerlarni qo'lga kiritish uchun chet el kapo'tali aralashadi. Serdaromad qahvani eksport qilish bilan shug'ullanuvchi yirik Kapitalistik birlashmalar yuzaga keladi. Ular barcha shosildor yerlarni qillariga kiritiladilar.

"Qizil kurtaklar" (1946) romanining markazida deshqon Jeronimo oilasining og'ir ashvoli tasvirlangan. Zamindor bu oilan ijaraga qiyilgan yerdan shaydaydi. Ko'plar qatorida Jeronimolar ham boshqa shtatga ish axtarib jo'naydilar. Yil uzoq bilib, chil tepaliklaridan iborat. Odamlar ochlikdan darmonso'zlanib yo'qiladilar. Bolalar va keksalar ochlikka bardosh berolmaydilar. Keksa Jeronimo ham och qolib yilda iladi. Ko'p qiyinchiliklarni yengib, yetib borganlarning qismati yana ham og'ir kechadi. Ular qattiq ekspluatasiyaga duchor biladilar. Nima qilmoq kerak, degan siroq tug'iladi.

"qizil kurtaklar" romanining ikkinchi qismi "Umid yillari"da deshqon Jeronimoning uch O'g'li taqdiri hikoya qilinadi. Romanning nomi ramziy. Braziliya xalqining o'z ozodligi uchun kurashi kuchayib bormoqda, inqilobning qizil kurtaklari birtib chiqmoqda. Romanning xotimasida Braziliya inqilobchilarini yangi - navqiron avlodi haqida so'z boradi. Asar qahramoni Nenen vataniga yolg'o'z o'zi emas, balki inqilob ishida unga katta tayanch bilmish nabirasi bilan birga qaytadi.

Yozuvchi 1947 yilda yana vatanidan chiqib ketadi va uzoq yillar mushojirlikda yashaydi. "Ozodlik podpolpesi" (1954) ana shu davr mashsulidir.

Jorji Amadu unda xalq ozodligi uchun kurahayotgan irodali va jasur kishilar, - yorqin obrazini yaratgan. Bular Joakin Vitor, Joze Gonsalo, Mariana, negr ishchisi Doroteu va uning xotini Inasiya, Joan, Ruyvo, fashizmga qarshi kurashda qatnashmoq qasdida Ispaniyaga yil olgan kapo'tan Rodrigues.

Shafqatsiz tuzum tomonidan qattiq ta'qib ostiga olingan kommunistlar yaShirin holatga o'tib, og'ir haroitda fashizmga qarshi ozodlik kurashini davom ettiradilar.

Jorji Amadu 60-70-yillarda ham qator asarlar yaratdi. Bular "Kinkas Sginp Vodaning g'alati ilimi" (1963) qissasi, "Biz kechani qo'riqladik" (1966) kabi romanlardir. Braziliyada mashalliy fashistlarning nayranglarini fosh etgan "Harbiy kitelp, akademik mundir, tungi kiylak" (1979) romani g'oyaviy mazmunining chuqurligi bilan ajralib turadi.

Savol va topshiriqlar:

1. Pablo Neruda hayoti va ijodi haqida nimalarni bilasizq
2. Uning yaratgan asarlari haqida gapirib bering..
3. "Bahariyat qo'shig'i" epopeyasi haqida gapiring.
4. Jorji Amaduning "Qizil kurtaklar" romanida ilgari surilgan g'oya.

Adabiyotlar:

1. Q.Azizov, O.Qayumov. Chet el adabiyoti tarixi.